

ARMONLAR DIYORI

Judolik diyori...

Armonlar diyori...

Sogʻ Binchlar diyori...

Vatandagi vatansizlarning unsiz faryodlari.

Ardoqli adibimiz Murod Mansurning yangi asarlarini shunday sifatlasak ham bo'lar. Mazkur asarning birinchi kitobi bilan adibiyot muhoblari tanishlar. Adibning ko'p yillik mehnatlari samara berib, ikkinchi kitob ham yozildi. Xalqimizning yaqin o'tmishdagi armonlari, unsiz faryodlari yozuvchining qalbini larzaga solib, so'ng qogʻ Bhozga ko'chdi. Umid shulki, bu unsiz faryodlar siz - muhtaram kitobxonni ham befarq qoldirmas. Yozuvchining yuragini titratgan voqealar katta avlod xotiralarini uygʻ Btishi tabiiy. Yosh avlodga esa tariximizning bu sahifalari ertak kabi tuyulsa ajab emas. Xalq boshiga shunchalar tashvishlar tushishi mumkinligini ular hali his etolmasalar kerak.

... Oliy o'quv yurti talabalari bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng bir qiz yaqinlashib, savol berdi: "Siz istiqlolning buyuk ne'matligini aytdingiz, lekin ayrim kattalar "avvalgi zamon yaxshi edi", deyishadi. Kimning gapi to'gʻ B? Qaysi gaplarga ishonishimiz kerak?" Toliba va uning tengdoshlari biz - katta avlodga shunday savol berishga haqli. Chunki o'tmishni qo'msab qoladigan qorin bandalarining bunday gaplarini ba'zi-ba'zida biz ham eshitib qolamiz. Ajablanamiz: "Kechagi kunning nimasi yaxshi bo'lgan ekan? To'gʻ B, o'sha o'tmish - bizniki. Uni qoralash, loy chapish ongsizlik belgisi. Lekin avvalgi jamiyatning qora kunlaridan ko'z yummoqlik ham adolatdan emas. Begunoh otilganlarning, sovuq sibiriyaning o'rmonlarida jasadlari qolib ketgan ajdodlarning, Vatan sogʻ Binchida ko'z yoshlari emas, qon yoshlari to'kib, armon-la vafot topganlarning ruhlari oldida nima deb javob beramiz? Kechagi o'tmishni "to'qlik zamoni" deb hisoblovchilar ocharchilik yillarida bir burda nonga zor ravishda ko'chalarda o'lib qolganlarning ruhi oldida nima deb javob berar ekanlar?.."

Uchrashuvlarda ko'p qatori bizga ana shunday turli savollar berishadi. Dam jiddiy, dam hazil ohangida javob qaytaramiz va bu savollarning aksari yoddan ko'tariladi. Lekin bu qizning savoli esa unutiladigan xilidan emasdi. Biroq, Murodjon akaning asarlarini o'qish jarayonida ham bu savol bot-bot qulogʻ Bim ostida jarangladi va o'sha talabchan singlimizga shu kitob orqali xayolan javob berganday bo'laverdim.

Fasllardan biriga "oltin kuz" deb ta'rif beramiz. 1991 yilning kuzi vatanimiz tarixidagi oltin davrni boshlab berdi, desak yanglishmaymiz. Men o'sha oylari ota yurt tuprogʻ Bini o'pishni eng ulugʻ B saodat deb bilib, Xudoga shukrlar qilgan vatandoshlarimiz ko'zlaridagi yoshni unuta olmayman. Shulardan biri aytgan edi: "Dadam jon berar vaqtlarida dedilarki: "Bolam, men senga boylik meros qoldirmayapman, men senga Vatan sogʻ Binchini, hijronni meros qoldiryapman. Yurt ozod bo'lgan daqiqadayoq qanot chiqarib uch, agar uzoqda esang-da, ikki ummonni suzib o'tsang-da, bor-da, men uchun ham Vatan tufrogʻ Bini o'p, men uchun ham bu muqaddas tufroqni ko'zlaringga surt..."

"Arining zahrini chekmagan bolning qadrini na bilsin", deganlaricha bor...

Istiqlol bergan ne'matlardan yana biri - ana o'sha armonlar kitoblarga ko'chdi. "Judolik diyori" o'sha armonlarning bir qismi, lahzasi xalos. Yozuvchi 1966 yilgi Toshkent zilzilasi bahonasida buzilgan uylarni, xarob qilingan bogʻ Bnlarni, loyqalangan an-horni bejiz tasvirlamaydi. Odamlarni serfayz bogʻ Blardan ko'chirilishi bayonida ramziy ma'no bor. Sovet mafkurasi bu holatni "Lenincha xalqlar do'stligi tantanasi", deb ta'riflagani bilan aslida bu ham yigirmanchi-o'ttizinchi yillardagi zulmning boshqa libosda ko'rinishi, mantiqiy davomi edi. Yozuvchining kechinmalari faqat o'ziga xos emas, bu - xalqning tilga ko'chmagan iztiroblaridir. Sul-tonmurod va Mahfuzaning taqdiri - ayriliqlarning siyoh bilan emas, ko'z yoshlari bilan bitilgan bayoni. Yodgor - ularning farzandlari - kelajakka bo'lgan umid. Ilhom sut- chi - bu dunyo hoyu havaslaridan yuz o'g'irgan odam. U kurashchi emas, u umid ham emas, lekin undagi pok-likka havas qilmoq mumkin. Hoziq to'ra - yorugʻ B kelajak umidiga ishonch. Parpi bebaxt - gunohlar uchun ajrning naqdligi. Uning tuzalishi zulmning abadiy emasligiga ishora.

Asardagi bu kabi ramziy ma'nolar o'quvchini fikr-lashga da'vat etadi. Kitobxonlar yozuvchilar bilan uchrashganlarida "asaringizdagi falon qahramon hayotda bo'lganmi?" deb so'rashadi. "Judolik diyori"ni o'qiganlarda ham, shubhasiz, shu savol uygʻ Btonar. Maktabdagi adabiyot darslarida "prototip" degan tushuncha haqida ko'p gapirilgani uchun ham bunday savollar tugʻ Bbiladi. Aslida yozuvchi hech bir qahramonini hayotdan to'laligacha ko'chirib olmaydi. Adabiyotda "prototip" bilan birga "umumlashtirish" degan tushuncha ham bor. Aytaylik, mazkur asardagi Parpi bebaxtning qaroqchiligi bir odamdan olinsa, uning to'gʻ B to'ra yo'lga o'tishi boshqa bir odamning fazilatidan olingan bo'ladi. Hoziq to'ra ham kechagi tariximizda o'tgan ulugʻ Blardan birini eslatar, lekin u ham hayotda o'tgan birgina odamning to'la tasviri emas. Bir necha yaxshilarning fazilatlarini yozuvchi tahlilidan o'tib, xayoloti chashmasidan bahramand bo'lgach, yuzaga kelgan qahramonlardan biri. Ayrim olimlarimiz bularni "to'qima obraz" ham deyishadi. Bu atamani "Judolik diyori"ga to'la tadbiiq eta olmaymiz. Shunday desak, asarning ishontirish quvvatiga putur yetkazgan bo'lamiz. Ro-man - hayotiy voqealarning umumlashtirilgan bayonidir, deyilsa haqiqatga muvofiqdir. Mazkur asar garchi, kechagi kunimiz haqida bo'lsa-da, u bugungi kunimiz uchun xizmat qiladi. O'tmish zamoni qo'msaganlar bu kitobni o'qisalar, fikrlarini o'zgartirarlar. Menga savol bergan singlimiz esa javobni shu kitobdan olsalar ajab emas.

Tohir Malik

Izn Istab...

Avvalo: Bismillahir rohmahir rohiym

So'ngra: Judolik diyorida kechgan bu tarixning davomi va uni Alloh qodir etganicha yozganimiz xususida. Umidim bor, shoyad Alloh chiroyli etsa.

"Qissalarning go'zali Qur'on qissalaridir", to abad tildan tushmagay. Qolganlari unutilib, alal-oqibat yo'qolishga, o'chishga mahkum. Ular qusurli bandaning qusurli so'zi, bitigi, xolos. Faqat... faqat shular orasida Alloh taborak va taolo O'zi izn berib, jindek yuqtirganlari, O'zi xush ko'rib, ixlos to'nini yopgan va qabul bezaklari ila bezab, kam-ko'stini to'ldirganlari ham borki, ana o'shalar yashab qoluv, o'qiganlarga har gal chiroyli ko'rinuvi va to qiyomatga qadar mo'minlarning qo'lidan tushmasligi mumkin. Demak, Alloh azza va jallaga xush keladurgan bir nimalar bitmak mumkin?..

Axir, mehr-muruvvat, silai rahm, yetimlarning boshini silamoq singari chiroyli amallar, shahidlik sharobini totmogʻ B hidoyat topmoqqa o'xshash go'zal ajrlar hali tugab bitmagan. Bu haqida qancha go'zal rivoyatu qissayu tarixlar mavjud. Nafas yutmay eshitganmiz ularni. Qolaversa, eng mushkul damlarda diniyu iymonini kaftida laxcha cho'gʻ Bday tutib, togʻ B-toshlarga chiqib ketgan, o'z diyorlaridan hijrat etganlarning Alloh subhonahu va taologa ham xush kelguvchi judolik tarixlari-chi?!

Bilmam, notavon ko'nglimga qachon, qaydan ilashdi bu havas, judolik diyori tarixining ilk kitobini yozib tugatib ham taskin

topmadim. Bitganlarim ayriligi qo'shig'ining debochasi, xolos edi go'yo. Hali oldinda zo'r imtihonlar, saragu puchakka ajralishlar turgandek edi. Kimga jahon ahli ayollari havas etsa arzigulik sabri jamiil, kimga shahidlik martabasi ato etiluvchi mumkindek, kecha jaholat va razolat dunyo-sida zo'r sanalib yurganlar esa nihoyati bir qoqiluv ila adolat tarafga yuz beruvi, hidoyat topmog'ini mumkindek edi, vallohi a'lam.

Shundan beri o'zimni bu yumushga chog'ib edim. Tungi duolarim tonggi iltijolarimda so'rardim. Haftalab, oylab "tirqoq"lab bir nimalar topgan-jamlagandek bo'lardimu... o'shal qayg'ib'uli qissa tasavvurimda munlig'ib'ertakdek jonlanib kelib, uni birovdan qizg'ib'ongandek, xuddi uch-ketini yo'qotib qo'yadigandek shoshib-entikib yoza ketardim. Ammo nadomatlar bo'lsinkim, bu hol bir oy va yo undan ortiqqa cho'zilmay yana aro yo'lga kirib, qayon borarini bilmagan musofirdek turib qolardim. Ich-ichimdan sezib turibman, nimadir monelik qilyapti. Nima qilsam, tizginni qo'lga olaman? Yana o'sha samimiyat, o'sha yoniq hislar, shirin bir titroq qayta mehmon bo'lib keladi - bilmadim, bilolmasdim.

Axiyri topdim! Yolg'ib'iz O'zidan so'ramoq lozim ekan. Murod doram - umidim bor, deb iltijo etsang, albatta, baroyad, yo rab - iloyo, yetgin, javobi berilgusi ekan!

Bilasiz, "Judolik diyori"ning birinchi kitobida chin ko'klamni sog'ib'ingan bog'ib'lar misoli aldamchi nasimlarga uchib qolgan qavmim judoliklaridan hikoya etgan edim, endi esa, uning najoti uchun bosh tikib chiqqan bir hovuch kishilar - botir akalarimizning alamlari qissalarini davom ettirmoqqa yo'l izlab, izn istardim.

Akalarimizni jindek bo'lsa-da, taniysiz. Eshitgansiz ular haqda. Ular o'z yurtlariga sig'ib'mab edilar. Ular iymonlarini qutqarmoq-chun eng ayamli narsalari - moli, holi, jigarlaridan ayrilib, vatanlaridan judo bo'lib, bo'lak diyarlarga bosh olib ketmish edilar. Ana o'shal hijrat yurti - Tangritog'ib'tomonlarda Dorilamon bir diyor qurib, uni maskan tutmoq-chun kurashgan o'sha boturlar qissasi mana, necha yildirki, og'ib'izdan-og'ib'izga, nasldan naslga ertakday ko'chib kelmoqda. Zabt etilmagan iymon qal'asiyu halovat diyori misol, hijron qo'shig'ib'ini kabi!..

Yo, qodir Alloh! O'zing izn ber, shul qo'shiqning davomini yozmog'ib'imga, Ijzat et, Vataniyu dinini deb tog'ib'larga chiqib ketgan, iymonini asrab qololgan birodarlarim qissasini bu yoqda qolganlarga yetkazmagimga. Samimiyatlar ato etib, ilhomu kushoyishlar ber, avvalo O'zingga, qolaversa, jumla mo'minga manzur bo'larli bir nima bitmagimga. Uni O'zing mumtoz et. Suyukli qil. To qiyomat qadar yashab qolguvchi asarlar jumlasiga qo'sh.

Hasbiyallohu va ne'mal vakil - O'zingga tavakkul aylab, rahmat oyi - Mohi ramazon ichi boshladim va bu tarixni o'qigan nasllarga sening hidoyatingni sog'ib'inib, kitobning bu qismini "Najot farishtasi" deb atab, yozilajak uchunchi kitobini "Rushdi hidoyat" deb belgiladim. Iloho, nihoyasiga adashmay oson yetmagimga O'zing musharraflar aylagaysan. Omin ya Robbil olamiyn.

Muallif

Ramazoni sharifning beshinchi kunlari.

Toshkent, fazilatli "Qoziguzar" mahallasi

Jindek Izoh:

Asarning avvalini o'qib, davomini kutmoqda bo'lgan aziz o'quvchilarimga ma'lum bo'lsinkim, Sultonmurod va Mahfuza tarixining judolik yurtiga tegishli qismini avvalgidek Maqsud hikoya qilib, o'rtadagi vo-qealarni Alloh izn berganicha o'zim to'ldirib bormoqni ixtiyor etdim.

Alloh o'zi bu murobitlarni hammamizga suyukli etib, o'qiganlar qalbiga rushdi hidoyatini solsin. Uni bitmagimga ilhom bergan va shoshtirgan narsani ham aytib qo'ya qolay.

Bu Alixonto'ram Sog'ib'uniy janoblarining bir og'ib'iz kalomlari - "Ey bor Xudoyo, agar menga jannatingdan nasib etgan bo'lsang, boturlarimsiz kirgizmagil", degan duolari bo'ldi.

Farishtalar omin degan bo'lsin. Omin ya Robbil olamiyn.

Murod Mansur,

1 mart, 1999 yil

Birinchi Bo'lim - O'sha Biravning Mahfuzasi

Kimning Erkasisiz, Yodgormurod?

Mezbonqog'ib'oz jimitdekkina-yu, juda bejirim edi.

Yozuvlari ham bir boshqacha, ishqilib mening tishim o'tmaydurgan bir imloda edi. Men bunaqasini umrim bino bo'lib, endi ko'rib turardim.

Tavba, Chaman aka shunaqa zo'r odam bo'lib ketgan ekanmi - xorijlarga chiqadurgan, chet elliklar bilan bordi-keldilar qiladurgan? ! Uzoq-uzoq yo'q bo'lib ketishi... shundanmikan?

Ammo tashrif qog'ib'ozini o'ngarib, quvonib ketdim. Bu yog'ib'ini - o'zbekona edi: Janob Chaman Ubaydulloh o'g'ib'li. Manzil-mavozemiz: Toshkandi azim, Qumloq mavze, 17-Zarqaynar ko'cha (Kalkovuz yoqalab o'tgaysiz), 58. Telefonumiz... va hokazo. Ol-a! Ko'zimni bog'ib'lab qo'ysalar, topib borarman! Talabalik yillarim qaerda turibman?! Kechalari dars qilib o'tirib, uyqu bosib kelganida Kalkovuzga sho'ng'ib'ib-sho'ng'ib'ib olishlarimiz yodimga tushib ketgan edi. O'sha yerda turib, Chaman akani uchratmagan ekanmanmi?

Ertasiga ishga o'tiboq sim qoqishga tushdim. Ammo men ko'zga to'tiyo etib, terayotgan raqamlarim hech ulanmasdi. Axiyri ishga unnab, chalg'ib'ib ketibman. Indiniga bir qistalang topshiriq bilan Andijonga jo'natib yuborishdiyu shu bilan yoddan ko'tarilibdi. Chaman aka shu haftaning ichi qidirib topsin, deb tayinlagani ham bir bo'пти, mening alahsiganim ham...

Shanba kuni hamma yumushlarni yig'ib'ishtirib, izlashga tushdim. Bu safar qo'ng'ib'irog'ib'ini ulana qolib, telefonni shirintoygina bolakay ko'tardi;

- Aluyo, Siz kim bo'lutsiz? - derdi u shirin bir tilda jovurlab.

- Sen tanimaysan, - dedim.

U bolalarcha ijkiladi:

- Nega tanumaskanman?

- Chunki ko'rmagansan-da, - dedim. U gaplashgan saring gaplashging keladigan - yoqimtoy edi.

- Hich kelmaganmusiz? - dedi u erkalanib.

- Yo'q, okovsi, bormaganman.

- Unda qaerdan bilutsiz telufunimiznu?
- Bilaman-da...
- Ha-a, aldoqchi, bilarkansiz-ku...
- Unda nima deyish kerak?
- Undamu?.. Xassalomu alaykum, - dedi u qarz salomini eslab.
- Vallaykum assalom! Kat-to yigit bo'ling, - dedim men erib. - Otingiz nima edi, toy bola?
- Manimu? - dedi u teng ko'rib gaplashayotganimdan tantiqlanib. - Manu otum...
- Xo'sh?
- Otum o-ot, - dedi kutilmaganda tegajogv'lanib.
- Yilingiz toychoq! - dedim men ham.
U qiqirlab kuldi va gaplashgichni tushirib yuborib, bir nimalar taraqlab ketdi. Bola uni ola, "fuf-fuf"ladi:
- Aluyo, kechiras, tushub kettu. Eshitisizmu?
- Sinmadimi, ishqilib?
- Yo'q, sinmaptu.
- Xayriyat. Ehtiyot bo'ling-da, toy bola.
- Xo'p bo'ladi, - dedi u odob bilan. Nimagadir u ba'zan-ba'zan "bo'ladi-keladi"lab qolar edi l.
Men so'rashimni qo'ymasdim:
- Otingizni aytmadingiz-ku, toy bola?
- Manmu?
- Ha-da.
- Manu otum, - dedi u dona-dona qilib, - Yod-gor-muro-od. (U erkalanib, boshini bir chiroyli burib qo'yganini... yaqqol tasavvur etdim.)
- O'-ho', zo'r-ku, Chiroyliyan! - dedim besh ketib.
- Siznuki-chi? - dedi u qiziqib.
- Meniki Maqsud.
- Siznukiyam chiroyluykan, - dedi havasi ke- lib. - Siz biznukiga hicham kelmaganmusiz?
Borganman, deya qolsamu... ana, kelganakansiz-kelganakansiz, deb sakrab-quvnay ketsa! Bo'ladi-ku, shunaqa bolalar: birpasda elakishib, sirachdek yopishib oladigan...
- Yo'q, ogv'Hayni. Xudo xohlasa, endi boraman, - dedim uni sevintirgim kelib. - Boravuraymi?
- Kelung-kelung-kelung! - deb o'ynoqladi u.
- Kim bor? Yolg'v'iz o'zing zeriki-ib o'tiribsanmi?
- Buvijon borlar, opoqum borlar. Chaqiraymu opoqumlarni? - u shoshib qolganidan gaplashgichni tashlab, tashqariga chopdi. - Opoqu! Asal opoqu! Amaqum chaqiroptula.
Ana, xolos! Halitdan amaki ham bo'lib qoldim! Men miyigv'himda kulib, uni o'ylardim: kim ekan, bu shirintoy? Chaman akaning o'gv'li desam, "opoqu"lab turipti? Yo numerda adashdimmikan?
Bu orada kimdir kelib, gaplashgichni ko'tardi:
- Lab-bay?! - dedi ayol kishi chars ovozdada, go'yo boshimdan qaynoq suv quygandek qilib. Uning bir ogv'iz so'zi shunday zahar-zaqqum aralash ediki, hushim uchib, kalavanning uchini yo'qotib ham qo'ydim.
- Gaping! - dedi u boyagidan ham tersroq qilib.
Adashib tushibman shekilli, deb o'ylab:
- Chaman akaning uylari...masmi? - deyoldim zo'rgv'ha.
- Uylari!.. - dedi ayol "Nimaydi?!" degan kabi. Tavba, ayol kishi ham shunaqa chars bo'larkanmi! Iloji boricha yumshoq so'rashga unnaldim:
- Kechirasiz, opoy. - Men uni boshqa millatdan deb o'ylab, qovun tushiribman.
- "Opoy"izga balo bormi?! Gaping gapizzi?! - deb jerkib berdi u.
- Kechiras, - Damim ichimga tushib ketgan, tezroq kimligimni aytmam, gaplashmay qo'yaqolishi ham mumkin edi. - Chaman aka tunov kuni so'rab borganakanlar. Men Maqsudman, ogv'Haynilarining ukasi, - dedim.
Ammo ayol yumshash tugul, voy, shunaqami, deb qo'ymasdi. Bunga sari yuragim po'killab, dedim:
- Eshityapsizmi, men...
- Eshityapman, - dedi u "kar emasman!", degan kabi. - Topib kelalasizmi?
- Borolaman. Ammo o'zlari, qattalar?
Ayol gapni kalta qildi:
- Kelsangiz - bilasiz.
Vo-oh, ana sizga opoqu!.. U gaplashgichni ildi-qo'ydi. Faqat bolakayning "Kim, opoqu? Adamlani o'rtoqlarimu?", degani chalarim eshilib qoldi.
Bechora, har bitta qo'ngv'hiroqqa chopib borayotgani, "aluyo, kimsuz"lab ijikilayotgani... shundanmi ekan? Adajonisini ichikib kutayotgan u toychoq - kimning erkasi ekan?..
Kalkovuz yoqasidagi qator tollar qiyg'v'os sochpopuk chiqarib yuborgan edilar. Shamol bu yerda ham ular ustida quvlashmachoq o'ynab charchamas, hali novdalariga osilib halinchak uchar, hali allaqayoqlarga izg'v'ib ketar edi. Jaladan keyingidek bo'tana suv qirg'v'hoqlargayu tollarning yo'gv'bon qora ildizlariga bosh urib haloplardi. Shaharning ichida, yana jinko'chalaru tomi-tomiga tutashib ketgan mahallalar oralab shunday katta suv oqib yotganiga aqlim bovar qilmay anhor yoqalab, aytilgan joyni izlab borardim. Yoninamdan tandirdan yangi uzilgan non hidini anqitib, velosipedli bolakay o'tib ketdi. Oldida non savati - bozorligiyu ko'zi tomda, varrak sogv'Hayotgan bolakaylarda. O'zi esa shuvillab boryapti. Qoyil! Osmoni-haftimdan dardaraklari darillab varrak ovozi keladi, ammo o'zini ilg'v'ab bo'psiz!
Bolakaylar olamni unutib, qiyqirishardi:
Shamo-ol, bagv'bring kamo-ol,
Varragimni osmoningga o-ol.
Yashavor! Bular ipni bo'shatgani sari osmon varrakni yutib boryapti...

Ko'cha oxirlab, Kalkovuz allaqanday tashlandiq bogʻ b-maydonga kirib boradigan joyda esa... asta'firulloh, uni qarang! Chaqmoq uribmi, yonibmi, batamom ku-yib tushgan, bahaybat yolgb'iz daraxt ko'rinar, u yongb'hoq desam yongb'hoqqa, qayragb'hoch desam, qayragb'hochga o'xshamasdi. Shunaqa abgorki, kuyib ko'mir bo'pqopti.

Men qaerga kelganimni bilolmay garangsib turarkanman, yakka tavaqali eshik ortidan ayol kishining o'qday ovozi yangrab qoldi:

- Akbar-uv, baloginaga yo'liqqur-uv?!

- Ketvotman. - Tol tagida ko'ringan bola chelagini ko'tarolmay inqillab, ikki egilib kelardi.

- Hu, qirilibgina ketkur! Man nimaga yuboruvdim, otginang o'chgur? - Ayolning o'zi ko'rinmasa ham qaragb'ishi qiya ochiq eshikdan o'qday chiqar edi.

- Mana, opkevtotman.

- Hu, opkemay ket. Samovar erib bitdi-ku.

Bola suv to'la paqirni u qo'lidan bu qo'luga olgan sari o'sha tomonga obkashdek egilar, har qadamida paqir to'pigb'higa urilib, suv chayqalar, chayqalgani mayli, ishtonining yoni shalabbo bo'lib borardi. Qadamimni tezlatdim:

- Qani, menga bering-chi, saritoy.

Yuzlariga sepkil toshib, shu sepkili o'ziga yarashib tushgan bolakay qaddini rostlab, aftimga tikildi. Kemshik tishi uni yana ham begb'ubor qilib ko'rsatardi.

- Bizanikiga kevotsizmi? - dedi qiziqsinib.

- Shunaqaga o'xshaydimi? - dedim jilmayib.

- Rostizzi ayting. - Kemshiktoy endi bu tomonimdan aylanib o'tdi.

Men chelakni olib, unga ergashaverdim:

- Yaxshisi, o'zingdan so'rab qo'yaqolay: sen Chaman amakini taniysanmi?

- Nega amaki bo'larkanlar?! Togb'hamla-ku!.. He-hey, Sizni qarang-u! - U oldimga tushib o'ynoqladi.

- Togb'hang? - Men hayratlanib qaradim unga. Bolaning sap-sariq yuzida qilcha ham o'xshashlik... ko'rinmasdi. - Rostingni ayt? U boyagidek irgb'ishladi:

- Bizanikiga kevotganakansiz-ku... - So'ng haligi yakka tavaqali eshikka qarab chopdi. - Oyi, bizanikiga kelishvotti, bizanikiga...

Bu orada men ostonasiga katta xarsangtosh yotqizilgan eshikka yetib qolgan edim. Qiya ochiq eshik ortida esa, bir qo'li tizzasida, bir qo'li bilan hovli supurayotgan qora nimchali, rangpar juvon ko'rinar. U ham ko'zi menga tushib, chimirilib qaddini rostladiyu supurgini yo'lga tashlab, burilib keta boshladi. Yupqa lablari xunuk qimtilib ketdimi-ey. "Ko'zim uchib turuvdi o'zimam" degandek. Men to'xtab qolgan joyimda... noiloj bolaga ergashdim.

Eshik almisoqdan qolgan, oftobda o'ngib-oqarib ketgani bilan hovli juda katta, yuqoridagi boloxonali uzun uyga borguncha ishkomb tagilab allaqancha yurish kerak edi. Hali toki ochilmagan ishkomblar necha qator bo'lib, bir yoni haligi tashlandiq maydonga tutashib ketgan. Tepada gir atrofni qari qora tollar o'ragan ovloq hovuz ham ko'rinyapti. Tagida qorashaqshaqlar uchib-qo'nib, ora-chira bir chiroyli shaqillab-sayrab qo'yadilar.

- Endi bera qoling, - dedi bolakay ostonadan o'tishimiz ila paqirning bandidan tutib.

- Sen shoshma, - dedim men uni ayab.

Biz poyadan ko'tarilgan so'ri tagi bilan pastak oshxona tomon yurdik. U yerda ikkita gb'isht ustida qo'nqaygan samovar burqsib, o'txonasi jizillar edi. Kemshiktoy chopib borib, samovar karnayini olib tashladi-yu, qopqogb'hini ocha turib, qo'li kuyib "otib" yubordi.

- Hazir bo'l. - Men suvni solib, qopqogb'hini yopib berdim.

Shungacha ham boyagi chimirilgan ayol ko'rina qolmasdi. U tepadagi uyga kirib ketgan... ketib borardi. Elakishib bo'lgan bola qo'limdan tortqilab, qistay boshladi:

- Siz yuravuring, u yoqda opoqbuvimla borla. Kirmasayiz xafa bo'ladila.

- Kim deding?

- Oyto'ra buvimla...

- Shunaqami? - dedim ichim yorishib kelib. - Shoshma, sening oting... Akbarmidi?

U ajablanib tikildi:

- Qayoqdan bilasiz?

- Yodgormurod-chi, u qaerda? - dedim battar hayratga solib.

- He, sizni - aldoqchi, bizanikiga kevotganakansiz-ku, hammovzani bilarkansiz-ku, - deb u begb'ubor iljaydi, so'ng yana qistashga tushdi. - U o'shatta, opoqbuvimlaga qarab o'tiribdi.

- Obbo, toy bolalar-ey, katta yigit bo'lib, qarab o'tiribdi degin? - Men ularni alqab qo'yib, o'smoqchiladim: - U seni ukachangmi yo?... - O'zim esa bu ayolga qolgan bolalarning sho'ri qursin, deb o'yildim. Tanimagan odamga shuncha dimogb'h-firoq, bularni nima qilmaskan? Chayonning o'zi-ku?

Hovlining o'rtasiga borib qolganimizda katta uyning eshigi ochilib, haligi juvon ko'rindi. U kovshandozda kalishini kiyarkan, yelkasidan qora ilondek sirgb'balab tushavergan sochini zarda ila orqasiga otib, menga qarab yurdi. Qo'lida bir parcha qogb'boz. Men beiz kirib kelayotganimdan xijolatga tushib, to'xtab qoldim: to'xtamasam, chaqib olishi ham tayindek edi. Ammo u chimirilib kelib, qarshimda to'xtadi-yu, tomdan tarasha tushgandek qilib:

- Mana, shunga kelganmisiz? - dedi qo'lidagini uzatib.

Men taxta bo'lib qolgandim. Qogb'bozni qanday olganimni ham bilmayman.

- U yogb'hini o'zingiz bilarkansiz! - Juvon mensimaganday burnini bir jiyirib qo'yib, boya supurgisini tashlab kelgan joyga qarab yuraverdi.

Ol-a, xo'p odamiga uchrabman-ku! Na salom bor, na alik, na mulozamat... Men xatchani o'qishimni ham, ketishimni ham bilmay ang-shang qolgan edim. Ko'z oldimdan esa, boyagi qop-qora daraxt ketmasdi, tavba.

Bir mahal qaragam, Kemshiktoy tirsagimdan tortqilab, qulogb'himga shivirlayapti:

- Siz yuravuring, opoqbuvimlarning oldilariga kiravuring. - U ko'z qisib, nimadir demoqchi bo'lardi.

Noiloj ergashdim. Shundayam haligi ayoldan xavfsirab turibman. Nazarimda, hozir undan eshitadiganimni eshitib oladigandekman. Nihoyat, boloxonaga chiqiladigan yogb'boch zinaning yonginasidagi katalakday bir uyga burildik. Uning kovshandozi ham ichkarisida edi.

Men xolamgilamikida turib, o'qib yurgan kezlarim shu atrofda ko'p uylarga kirganman. Bosh suq-ganingizdanoq gup etib, ming

yillik zax tuproq hidi dimogʻi tingizga urilaveradi. Necha qayta tezlab ham undan qutulisha olmaydi. Kovshandoz chetiga qirasi bilan terib chiqilgan musulmon gʻibishtlar ham bu uy qadimdan qolganidan darak berib turar, ammo undan tanish zax hidiga qoʻshilib, yana allaqanday mushk-anbar hidlari ham ufurardi.

Men moʻjaz xonaga kiriboq uning toʻridagi xonlar zamonidan qolgan qubbali ruh karavotda oppoq choyshablar oʻrtasida oʻtirgan halimdekina kampirshoga hayratlanib tikilib qolibman. U qiblaga qarab tasbeh oʻgʻirib oʻtirar edi. Qoʻlim oʻz-oʻzidan koʻksimga qarab ketib:

- Assalomu alaykum, xolamoyi, - dedim.

Men oʻzimni yaqin olganimcha bor edi: ajinlariyam bir ajabtovur nur bilan toʻlgan kampirsho chindan ham xolalarimgami, kimgadir oʻxshab ketar edi. U kishi tasbeh oʻgʻirishdan toʻxtab, bosh silkidilar:

- Vaalaykum, keling, bolam. Oʻta qoling.

Derazaga yaqin yerdagi sandalning koʻrpayu govra-poʻshlari hali yigʻi bilmagan, oʻrtadagi boʻyradekkina namat ustida bir bolakay daxanini mushkchasiga tirab yotvolganicha, rasmi kitob varaqlab, oyoqchalarini oʻynatib qoʻyar edi.

U bizni koʻra sakrab turdiyu menga osmondan tushgan odamga tikilganday tikildi-qoldi. U yuz-koʻzlari judayam tanish, hatto shu indamay turishidayam allaqanday yoqimtoy edi.

- Voy, keldizmu? - dedi u chapak chalib.

Tanidim, u men bilan simda gaplashgan bolakayning oʻzginasi edi. Ovoziyam, oʻziyam - shirin bolalar boʻladi-ku, oʻshanaqa edi. U jilmayib, qoʻlchasini uzatdi.

- Man Yodgorman. Siz... Siz telefunda chaqirub ediza? Topdimmu? - dedi u sakrab-quv nab.

- Topding, - dedim uning qoʻlchasini kaftlarim orasiga olib, keyin oʻzini bagʻi birmga tortdim-da, peshonasidan oʻpib qoʻydim. - Chindan asaltay ekansan.

- Yoʻq, men Yodgortoyman. Ayam qoʻyganlar, - dedi u maqtanib.

- Ayang chiroyli ot topgan ekanlar, - dedim men.

- Nega toy boʻlarkansan? Yodgormurodsan, - dedi meni boshlab kirgan kemshiktoy.

- Ha-ha, u Saritoy. Men esam, Yodgormurodman! - tan olib quchogʻi birmda oʻynoqladi bola.

- Yana ham yaxshi, - deb boshiyu yelkalarini siladim.

- Chiqib oʻtiring. Chaqirmaysanmi, boʻtam, - dedi kampir tasbehini yigʻi bishtirib, yoniga qoʻyarkan. Lekin oʻzi oq choyshab ichidagi oyoqlarini (yigʻi bholmasmi) oʻsha-oʻsha uzatib oʻtirar, allaqanday oʻngarilolmas edi. Karavotning bosh tomonida ulugʻi b kitob solingan jild bilan yoʻl-yoʻl matodan tikilgan naysimon bir narsa osigʻi blik. Unisi tushunarli, lekin yonidagisi nima ekan, bilolmay, tancha yoniga choʻkkaladim. Buvi oʻsha oʻtirgan koʻyi momiqday oppoq qoʻllarini duoga ochdilar:

- Iloho omin, siylab kepsiz, sizni Ollohimning oʻzi siylasin. Gʻanimat dunyoda oqibatlilar qatorida qilsin, Ollohu akbar.

Kampir oppogʻi boyimlarni esga solib, koʻnglim iyib keldi. Beixtiyor bularning duolarini olib qolish katta davlat ekanini oʻylab, u kishining yuzlariga tikildim. Tikilardimu oʻylardim.

Yuzlaridan taralayotgan bu tarovatli nur qaerdan chiqib, hech ado boʻlmayapti? Bu joylarning qadim zax hidlarini ham unuttirib, uni mushk-anbar boʻylariga toʻlatib oʻtirgan ham balki shu oq-oppoq kampirshoning oʻzidir?

- Yaxshi keldizmi, oʻgʻi bilm? Uy ichilariz bilan yaxshimisizlar? Oyiz, kelinim omonmilar? - Kampir xuddi qarindoshlardek yaqin olib, tavoze ila hol-ahvol soʻrar edi. Men esam hamon iyib borayotirman bu mulozamat, bu soʻrashishlardan. Bir lazzat olayotirmanki, qoʻyaverasiz.

- Rahmat, oʻziz bardam-baquvvatginamisiz?

- Oʻziga ming qatla shukr. Koʻrsatganiga shukr. Turolmasam ham, mana, oʻtiribman-ku: eplaganicha ibodatlarimni ado etib... namozlarimni oʻqib... Har odamlar bor-boshini bir koʻtarishga zor, qoʻlini qimirlatishga, oʻngarilishga intiq. Oʻshandan asrasin.

Hech bandani ibodatdan qoʻymasiz. Soʻnggi nafasigacha chiroyli amallarga hamroh etsin, ilohim.

- Nima, oyogʻi bismi?... - deya oldim men.

- Bumi, bir yogʻi b qarichilik, qolaversa, koʻrgilik ekan: koʻp boʻladi oʻtirib qolganimga. Savil, ikkalasi ham ketgan, jonsiz, - dedi buvi choyshab ustidan oʻsha jonsiz narsani siypab qoʻyib. - Shunisigayam shukr. Qoʻl-oyogʻi bismi birdan olganida nima qilardim?

Buyam boʻlsa, Xudoyimning marhamati. Manavi jujuqlarning baxtigami, boshqagami - meni tirik ushlab turibdi. Boʻlmasa, bular kimning qoʻlida qolardiyo kim bularning boshini silardi! Bilmadim, mendan keyin bularning holi nima kechadi? Chamanning yurishi unday, Asalning feʻli bunday... Onasi boyaqishning-ku, peshonasi shoʻrdan-shoʻr ekan. Menga suyanib qolishdi bular.

Oʻzim esa yolgʻi b Ollohga suyanguliman. - Buvi ovozi oʻzgarib, koʻzlarida yosh aylandi. Soʻng shishin-qiragan barmoqlarini oʻpib, uchayotgan koʻzlariga surtarkan, Oytoʻra buvi hamd aytib shivirladi: - Al-hamdulilloh, alhamdulilloh: ishqilib, yaxshilikka boʻl-sin.

Men esam dardim boshqa yoqda: Chaman akamni soʻray olmay dogʻi bdaman. Qachon qaytadilar degim bor-u, kampirning dardini yangilab qoʻyishdan istihola etib turibman. Nihoyat, u kishi qayrilib soʻradilar:

- Asal opchiqib berdimi Chamanimning omonatini? Yo gaplashgisi ham kelmay...

- Berdilar, - dedim boyagi qogʻi b hoz yodimga tushib.

- Nima debdi, koʻrdingizmi?

- Yoʻq, hali, - men choʻntagimni kavlashtirdim.

- Oʻqung-oʻqung, - deb qistab, oʻtirgan yerimda yelkalarimga suyukaldi Yodgormurod, - Opoqbuvimam eshitsunla.

- Sen tinch oʻtir, Yodgor. Uyat boʻladi: mehmonga shunday yopishadilarmi? - dedi tanbeh berib u kishi.

- Hechqisi yoʻq, ukachamday gap, - dedim men.

Lekin Yodgormurod bir ogʻi b soʻzdan:

- Xoʻp, opoqbuviyon, xoʻp, - deb yonimga qoʻndoqdek boʻlib oʻtirib olgan edi.

Men xatchani topib, qatini yozdim. U ikki enlikkina edi-yu, ichi toʻla jumboq edi. Xuddi Chaman akaning oʻzidek:

"Maqsud, kutdim-kutdim, kelmading, - deb yozgan edi u. - Bir rijoyim: oyimlarga uchramay ketma! Xudoning xohlashi shunday ekan, koʻrisholmadik. No-umid boʻlma, gʻi bafatdayam qolma. Kennoyingni senga, seni Xudoga topshirdim. Qolgan gaplarni aytishadi. Chaman akang".

"Qanaqa kennoyim? Kimni aytyapti?..." Nima gapligiga aqlim yetmay boshimni koʻtarsam, buvi yarim qayrilganicha yuzimga tikilib turibdilar:

- Siz Sul-tonmurod oshnasining kimi boʻlasiz?- Aftidan, akamga oʻxshatolmay turar edilar.

5 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Xolavachchamiz... - dedim to'g'v b'risiga ko'chib.

- Ha-a... - deb bosh silkidilar-da, Yodgormurodga yuzlandilar: - Aytmoqchi, anuv kungi xatni nima qilding? Ehtiyotlab qo'yganmisan?

- Qaysu? Anuv berganizmu? Turibdu mimit choynukda, - dedi bola pildirab kovshandozga tusharkan.

- Optushaqol, bolam. Shoshma, - deb to'xtatdilar-da, menga qaradilar. - O'zingiz birga chiqa qoling. Bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur bo'lmasin.

- Yaxshi, - men turib Yodgorga ergashdim-u, ammo o'zimning ichim qurib boryapti. Chaman aka ham qiziq: aytadiganini mana shu xatda aytib qo'ya qolmaydimi! Kimdan yashiradi? Anuv chirsillagan zaqqumoydanmi?

Bu orada biz tashqari chiqib, almisoqdan qolgan yogv boch zina bilan ko'tarila boshladik. Opoqbuvining shirin nevarasi - Yodgormurod zinani to'pillatib chiqib borayotib, dam-badam orqasiga qayrilib, meni qistaydi:

- Yuravuring, faqat ehtiyot bo'lung, boshizzi urvolas...

Men uning shirinligidan ham burun aqliga besh ketib borayotibman: mana, kimni pakana pari desa bo'ladi! Qolaversa, yuzi buncha issiq, buncha tanish? O'g'v bil bola ham shunchalik ko'hlik bo'larkanmi? Har gapiga bir tegishgim kelardi.

- Urvolsam-chi? - dedim atay.

- G'urra bo'ladu, - dedi u qayrilib, so'ng o'sha g'v b'urrani tasavvur etib, qiqirlab kuldi.

- G'urra ham ko'rk, - dedim hazillashib.

- Bo'lmasa, urvola qolung, - yana qiqir-qiqir kulgancha zinani to'pillatib chiqib keta boshladi. Rostdan boshimni urib oladigandek engasharkanman, so'radim:

- Sizlar shu boloxonada turasizlarmi?

Yodgor qayrilib to'xtadi:

- Siz bilmaysiz-de. Zo'r bu yer!

- Yo'g'v b'e...

- Ko'rmagansiz-de, Kalkovuzning oqishinu... bogv b'larimiznu... Bu yoqdan ko'rsangizmu!..

- Tomga chiqvolib, degin?

- Ha-de. Siz chiqung avval, - u eshikni ochib, kalishchasini chechib qoldirdi, - kelung-kelavuring.

Men pastak eshikdan engashib o'tib, mo"jazgina xonaga oyoq qo'ydimu hovliga qaragan deraza pastida u aytganidan ham faraxli bir manzaraga ko'zim tushib, "voh", deb yubordim: chindan zo'r-ku!..

Rostdan boloxonamisan, boloxona edi. Bu yerdan hovli bir ajoyib ko'rinar! Zebolanib desammi, kaftda turgandek desammi, ishqilib, ta'riflasa, ta'riflagudek edi. Hali toklari ko'tarilmagan yalangv boch ishkomlari boyagi ko'chadagi sochpopuk chiqarib yuborib endi barg yozib kelayotgan qator tollari uning tagida sarigv b' ilondek to'lgv b'onib oqqan Kalkovuzgacha - bari-bari ajoyib, bir jonli suvratga o'xshar edi. Ularning bariga soatlab tikilib o'tirmoq mumkin edi. Bu yerdan hatto anuv kuygan daraxt ham bor bo'yi-la ko'rinish tursa-da, lekin ajabki, boyagidek yomon taassurot qoldirmas edi. Nega, tushuna olmadim.

- Joyni xo'b topgan ekansizlar-ku!

- Yoqdimu sizga?

- Yoqqanda-chi! - Shunday deb o'girildimu nogahon ko'zim uning to'ridagi devorga tushib, qotib qoldim. U yerda hozir ko'rganlarimdan yuz chandon chiroyliroq narsa osigv b'liq turar edi.

- Iya, Margv b'u kennoyim-ku!.. - deb yuboribman.

Men yo'qotib qo'ygan kishisini uchratgan odamdek gangib qolgan edim.

- Kim deysuz?

- U kishi-ku! Kennoyimlar-ku! Bu suvratni... qaerdan olgansizlar? - dedim hech narsaga tushunolmay. O'sha oy desa, oy degudek, suluv desa suluvlardan o'tgudek, kim malak deb atagan, kim parilar mamlakatidan deb ta'riflab esi ketgan... xusnu jamol egasi...

Kattabogv b' go'zali, mening aziz kennoyimning suvrati bu yerda nima qilib turibdi? Qanday kelib qolibdi bularnikiga? Hech aqlim bovar qilmasdi.

- Manu ayamlar-ku bu... - dedi Yodgor iljayib.

- Sening ayang? - Mening esim joyiga kela boshlagandek edi.

- Bo'lmasa, kim ekanlar, mening ayam bo'lmay?

- Chiningni ayt? - dedim darvoqe deyish o'rniqa.

- Siz yaxshilab qarang... - dedi u. So'ng bolalarcha qiqirlab kula boshladi. Uning kulgusi shunday begv b'ubor ediki, tavba, men tan bersamoq u sakrab-quvna ketadigandek edi. Yo O'lloh, yana adashganimni qarang. Men suvratga qayta qarab, ichim jizillab ketdi. Chindanam uning quloq yumshogv b'i ostida tirnoq yuzidek, nozikdan-nozik nori bor edi:

- Darvoqe, bu kennoyimiz-ku! - deb yubordim. Qarang-a, u biznikida birozgina turib, keyin izsiz yo'qolgan Mahfuz kennoyimning katta qilib oldirilgan suvrati edi! Oyim hali-hali kuyinadilar: qaerlarga sigv b'di ekan, yo vataniga qaytib ketdimikan, deb. U bo'lsa... Men xuddi shunday jajji yuzni yana qaerdadir ko'rganimni eslab, yalt etib bolaga qaradim hamma narsa op-oydin bo'la qoldi! Men omi nega bu bolaning husni bunchalar o'tkir, deb o'tiribman! Gap bu yoqda ekan-ku!

- Sen... sen hali? - dedim dilimdagini tilimga chiqara olmay va asta borib cho'kkalaganimcha ikki tirsagidan tutib, bagv b'rimga tortdim.

- Siz rostdanam... taniysizmu ayajonimlarnu? - dedi u shodlanib.

- Ho'-ho', taniganda qandoq! - dedim uning yelkasiga qoqib ham erkalab. Va devordagi o'sha ayajonisiga qarab, battar tong qoldim. Yo tavba! Tushimmi-o'ngimmi? Boyagi suvrat o'rnida endi... tamomila bo'lak siymo yuz ochgan edi. Suvratdan...

Ajab hol! Hatto ko'zlarimni ishqab qo'ydim. Yo'q, o'sha-o'sha: devordagi oynavand gardish ichidan ("yo subhonolloh, qanday mo"jiza bu?") men sogv b'inib, ichikish darajasiga borgan odam - Sultonmurod akam (!) qarab turardi. Nima bu, sarobmi, jodu? Esim ogv b'ib, bolaga qaradim.

U issiq jilmaydi:

- Siz hayron qolmang, bu o'zu shunaqa! Shunaqa ishlungan!..

- Qanaqa... ish-langan? - Men hech narsa tushunmayotgan edim, hatto boshimni to'lgv b'ab-to'lgv b'ab qo'yar edim.

- Shunaqa-shunaqa, - dedi u sakrab-quvna, men tushunolmayotganimdan qiqirlab kulib, - bir qarasangiz ayam, bir qarasangiz u kishu, yana bir qarasangiz amaqqum ko'rinaradular.

- Qaysi amaking?

- Voy, Siznu qarang-uv. Turing-turing. Bu yoqdan qarang,- deb u qistashga, tirsagimdan tortqilab, uyning bu chekkasiga boshlashga tushdi. - Siz o'ziz ko'rung.

Men u aytgan tomonga o'tib (yo qudratingdan!) suvratda tamomila boshqa odam - Chaman akani ko'rib, battar hayratda qoldim: bir suvratgardish ichidan uch kishi uch holatda ko'rinar edilar! Tagv Bin hech bekami-ko'st! Bir-biriga quralashib ham ketmagan! Xalaqit ham etmaydi! Daf'atan, ajinalarning ishi emasmi, degan xayollarga borib qolasan kishi. Ammo bu "o'zi shunaqa ishlangan" mish! Tavba, kim ishlatadi? Chaman akami yo Mahfuz kennoyimning o'zi? Unda... unda buning oti nega Yodgormurod? Kimdan yodgor? Nahot o'sha... ivir-sivir gaplar hammasi rost?

- Ayang?.. - dedim-u, u yogv Binini so'rashga holim ham, majolim ham kelmay, ammo ich-ichimdan bir titroqmi, nimadir turib, bolaning ko'zlariga tikildim. Ayang qaerdalar deyishga qani tilim aylana qolsa! Aylanmasdi. Ammo u tushundi. Tushunib, ko'zlarini oldiyu, mungv Bayib bilagini silay boshladi.

- Yotub qoldula, - dedi ovozi o'zgarib, - Manu... Manu yuborishmayaptu.

- Qaerda, shu Toshkentdamlar, axir?

U ko'ngli to'lib, chetga qaradi:

- Hm...

- Voy seniyo, boyadan beri aytmaysanmi?!- Sekin qarshisiga cho'kkalab boyagidek yelkayu tirsaklarini siladim. - Qaerda ekanliklarini bilasanmi o'zing?

Yodgormurod bosh to'lgv Bab tisarildi va qo'limdan bir alpozda sirgv Balib chiqdi-da, to'gv Biri tokcha tomon borib boya o'zi aytgan olma gulli jimit choynak ichini timirskilashga tushdi. Undan ikki buklogv Bliq bir qogv Boz oldi.

- Mana, ko'rung.

- Hammasi shunda aytilganmi?

- Bilmasam...

- Ha, darvoqe, bu buving aytgan omonatlari-ya?..- dedim o'zimga kelib. So'ng shoshib qogv Boz qatini yozdim.

"Maqsud, mening sendan bo'lak ishonganim yo'q, - deb bitilgan edi xatda. - Akangning daragini eshitib, jo'nab ketyapman. O'zing tushunasan-ku, uning menga kimligini! Sen bizning boshimizga tushgan ko'rguliklarni bilmay eshikdan qaytib ketmagan, deb (Asal opamga qolsa, shunday qilishdan ham toymaydi!), oyimlarga uchragin, deb tayinlab edim.

Mahfuzdan ko'nglim tinch emas. U ogv Bir dardga chalinib qoldi. Zo'rgv Ba stasionarga joyladim. Lekin u yoqqa bormasam ham bo'lmaydi. To'gv Biri, hozir bormasam, bir umr armonda qolishim mumkin. Akangning daragi chiqib qoldi. Ammo sen unga zinhor bildira ko'rma! Yuragi chiqib, ko'tara olmay qolmasin. Asal opamga-ku, isini ham sezdirma. Sezsa, ishni buzadi u jodugar. Sendan o'tinib-o'tinib-o'tinib so'rayman! Mahfuz kennoyingni yolgv Biz qo'yma. Yonidan jilma. Va buni, (kennoying biznikida ekanini ham) hech kimga ayta ko'rma! Men qaytgunimcha pochchadan ham, oyinglardan ham yashirib tur.

Shunday qilish kerak! Qaytgach hammasini o'zim tushuntirib beraman. Akangning unga (Mahfuzga) atalgan maktublari bor, ko'rsataman. O'shanda senga hamma narsa ayon bo'lgay.

Yolgv Biz o'zingga ishonдим. Mendan bemaslahat yoxud beruxsat biron ishga qo'l ura ko'rma. Yodgor onasini sogv Binib, juda-juda ichikkan. Xarxasha qilsa, yana ko'rsatgani olib borib yurma. Undan ko'ra, o'zinglarnikiga - dalaga olib ket. Shu yaxshiroq: ham ovunadi, ham bexavotir. (Oyimlarga tayinlaganman, biladilar.) Ishqilib, ularni senga, seni Xudoga topshirdim. Mening yo'qligimni bilintirma. Iloji boricha tez qaytishga harakat etaman. Chamang akang".

Ana, xolos! Yolgv Biz o'zimga shuncha omonat! Faqat bir narsaga hech aqlim yetmasdi. Bu suqsurday bolakayni nimaga ayasining oldiga olib bormaslik kerak? Ahvoli ogv Biriligi uchunmi yo boshqa sababdanmi? Agar kennoyimning o'zi so'rab qo'ymasa-chi? O'shandayammi? Hammasidan "o'tinib-o'tinib-o'tinib so'rashi" qiziq edi. Nega bunchalik qattiq tayinlayapti? Nimaning oshkor bo'lib qolishidan cho'chiydi? Bolanimi yo Mahfuz kennoyimni? Hech tushunusiz. Xuddi sir oshkor bo'lib qolsa, falokat ustiga falokat yogv Biladigandek, ulardan ajrab qoladigandek... yozibdi xatni.

Sekin ko'z qirimni tashlasam, bolakay intiqib tikilib turibdi. Bir ogv Biz so'zimdan sakrab-o'ynoq-labam ketishi, yigv Blabam yuborishi mumkindek. Chin-danam ayajonisini ichikar darajada sogv Binibdi. Bir ogv Biz so'zimga mushtoq. Yur desam, chopib ketgudek! Ammo Chaman akadan beruxsat nima ham qila olardim?!

- Nima deptular, amaqum?

- Seni dalaga, biznikiga olib ketarkanman.

- Ur-re, talaga ketarkanmuz! O'ynagani borarkanmuz!- Yodgormurod bir ajib quv nab, qo'zichoqday sakrab o'ynoqlay ketdi.

Shodligi shunchalik: gir aylanib chopadimi-ey, ikki yoniga shatta urib, shataloqlar otadimi-ey. - He-hey, talalarga chiqarkanmuz, chuchmo'malar terarkanmuz...

Keyin tizzamni quchib, qo'llarimdan tortqilab, bir nimalarni ijikilashga tushib ketdi-ku...

- Siz talada turasizmu? Sizlarda ham varraklar bormu?

- Bizda uchirishsin-da! Ka-atta-kon quroqlar kechasiminan darillab chiqsin-da!

- Vu-uy, kechasuman deng? - Uning kipriklari uzun-uzun, ko'zlari javdirab yonardi.

- Kechasiminan.

- Ipiniyam uzmaydimu?

- Uzmaydi.

- Birov tegmaydiyammu?

- Tegmaydiyam.

- Qanday yaxshu, - dedi u chapak urib.

- Bir uchirishgancha uch kunlab uchib yotadi, - dedim men.

U aqliga sigv Bdira olmay aftimga termuldi:

- Uch kunlab?.. Vu-uy...

- Ha-da, u shunchaki varrak emas-da, - men qulochimni yoydim. - Mana bunday kelar-ov. Uni tushirib olish o'zimas. - U aftimga termulganacha qolgan edi. - Ipini uzgan quroqlarni ho'v qayoqlardan topib kelishadi.

- Qaerdan topib kelishadu? - qaytarib so'radi u.

- Qaysinisini soyning narigi yogv Bidan, qaysinisini yongv Boqzordan. Nimalarga ilinib-urilib, dabdalasi chiqib ketgan bo'ladi.

Qaytadan yasashadi.

- Zo'r ekan, - dedi u besh ketib, ham chiroyli bosh silkib. Keyin yana boyagiday tirsagimga tarmashib, shoshirdi. - Otlar-chi,

otlaram bormu?

- Bor, - dedi men uning ko'ngliga qarab.

- Minishadimu bolalar?

- Minishadi. Istasang seni ham mindirishadi. Bedapoyalarga opchiqishadi. Soylarga optushishadi.

- Yana nimalar bor, ayting, ayta qoling, - deb qistardi u.

- Ariq bo'yalaridan yalpozlar, binafshalar teradilar. Tepalardan esa qo'ziqorinlar.

- Qo'ziqorun? Nima u?

- Ho', uni o'tga toblab yemabsan, bu dunyoga kelmabsan. Borsang, ko'rasan.

- Borganum bo'lsun, borganum bo'lsun, - deb o'ynoqladi u. So'ng pastga oshiq turib, qayrildi: - Hozur-la ketamuzmu?

- Ketamuz, - dedim men uning shirin tiliga meng-zab, - faqat opoqbuvinglardan so'rayluk.

- So'raymuz, so'raymuz, - dedi u oshiqib.

Men esam, bu sirli go'sha - boloxonadan tushish lozimligini, bu xonadonning duogo'yi bo'lib o'tirgan anavu oq-oppoq kampirshodan ijozatu duolar olib ketishimiz lozimligini bilib tursam-da, qo'zgb' hola olmas, to'gb' hrirogb' hi, devordagi boyagi antiqa suvratdan ko'z uzolmas edim.

Suvratdan esa o'n to'rt kunlik oyday balqib, Xudo husnidan qismay baxtdan qisgan kichik kennoyim qarab turar, negadir ko'zlari yoshlanib-yoshlanib kelayotgandek tuyulaverar edi menga.

- Juring, so'raymuz, - Yodgormurod qaytib, qo'llarimdan tortqilamoqqa tushdi-yu, men unga ergasharkanman, kennoyimning ruxsori lip etib ko'z o'ngimdan gb' hoyib bo'lib, shu zahoti uning o'rnida boshqa aziz qiyofa - men qachonlardan beri yo'qotib qo'ygan Sultonmurod akam suvratda yuz ochib, jilolmayin ham qoldim: yana bir qadam bossam, u ham yo'qolib, Chaman akam chiqishi tayin edi.

Men esam, bu ajib suvratda faqat akamu Mahfuz kennoyim ko'rinishlarini istardim.

Ammo shu tob boyagi kirgan joyimizdan ayol kishining qattiq-qattiq ovozlari kelib, to'xtab qola qoldik. Asal opa uyni boshiga ko'tarib, shangb' illar edi:

- Itniyam, bitniyam qo'yavering. Nima, bu karvonsaroyi sizga?! Ana, bittasi shuncha turib, nima karomat ko'rsatdi? Yetimini tashlab ketadi hali! Itdan bo'lgan qurvonliqqa yaramas...

- Hay, sekinroq, uyalgin, axir, - o'tinardi kampir.

- Nimadan uyalaman? Nega uyalaman? O'z uyimda ham uyalaymi?!

- Hoy, Xudodan qo'rqmagan, hoy, odam isi yoqmagan! Chaman eshitsa, nima deydi?! Jilla qursa, mendan uyal. O'z onangdan uyal.

- Nima, Chamaniz? Birovning xotinini o'z uyiga obkeb o'tirgan u kishi pokdomon-u, men qora bo'ldimmi? Men yomon bo'ldimmi?

- O'chir, - dedi ona, - hammani o'ldirib, sil qilib, bezdirib, o'zing so'ppayib qolmoqchimisan bu uylarda? Xudodan qo'rq! Shu fe'ling bilan-ku, hech yerga sigb' hmading. Tirnoqqa zor o'tib boryapsan. Yana odam isini yoqtirmay qaerga sigb' hmoqchisan? Qachon odam bo'lasan?

- Bo'lmayman! - dedi Asal, ostona xatlab ulgurmagani asrandisining ketiga tarsaki tushirib.

- Bo'lmasang, bo'lmay o't!

Titrab ketdim. Va beixtiyor bolakayni bagb' hringa tortdim. Shunchalik bo'lib ketgan ekanmi u jodugar? O'shanday xokisor onaning yuziga tik qaragan inson... bularning boshiga nima kunlarni solmayapti ekan? Qanday sigb' h dilar ekan boyaqishlar bu uyga? Opketganim bo'lsin bu do'zaxdan! Qutqarganim bo'lsin bu azob "farishtasi" dan! Va o'zim yoqa ushladim: Bu qanday go'shaki, manzil-mavozeki, bir yonda oq-oppoq bo'lib, yuzlaridan nur, so'zlaridan duo yogb' hilib, rahmat farishtasiday oq kampir o'tirsa-yu, bir yoqda har so'zidan chak-chak zahar tomib, chirsillab anavi "farishta" hukmini o'tkazib yursa! Yaxshiyam, kampir bor, shirin so'zi, duolari bor! Undan keyin nima bo'ladi bu xonadon? Bular topgan manavi boshpana? To'zib bitadimi? Bekorga kasalxonaga tushmagan ekan Mahfuz kenno-yim! Bechora, qanday chidadi ekan bu egovga, Xudoning bu boshli-ko'zli balosiga? Uning zahar-zaqqum so'zlariga? Chayondek chaqishlariga? O'zining yozuqlari, boshiga tushgan musibatlar kam ekanmi? Ko'zim yoshlanib kelib, hamma narsa chaplashib ketdi. Bola ham, pastga ketgan zina ham, oyoqlarim osti ham... Faqat ko'z oldimda bo'yi baravar kuyib ketgan anuv qora daraxt turar edi!..

Biz ne alpozda, hatto miq etmayin zinadan bir-bir tushib bordik. Ming istiholayu andishaga botib o'tirgan kampir bizni ko'ra jonlanib, shoshib qoldilar:

- Voy, tushdingizlarmi, bolam. Topoldingizmi omonatini? Sizniyam tashvishga qo'ydik, - derdilar ikkala kaftlarini o'sha jonsiz tizzalaridan uzmay.

- Tashvishi bormi, mana, optushdik. Endi javob bersangiz... - deb yamlandim men.

- Kiring, o'tiring, bir piyolagina choy olib kelsin. Shundayin ketasizmi, bolam, - deb Yodgorga yuzlandilar u kishi. - Sen nima qilib jim turibsan, opkir akangni...

Bola ham birdan jonlandi:

- Opoqbuvi-chi, opoqbuvi! Bilasizmu, biz qaerga ketyapmuz! - deb o'zini buvining tizzalariga otib bijiray ketdi. - Talaga ketmoqchimuz. Rostakam varraklar uchirishadugan yerlarga. Bilasizmu, kim aytub ketibdu?

- Bilaman, bolaginam, bilaman, - dedi buvi uning kuraklarini silab-erkalab. - Amaking tayinlagan. Sen zerikib qolmagin degan-da.

- Nega aytmaduz? Yashurub ekansuz, - arazlashga, sakrab karavotni lopillatishga tushdi bolakay. - Aldab ekansuz!..

Buvi uning kuragiga qoqib, peshonasidan o'pdi.

- Har narsaning mavrudi bor, bolam. Vaqti bilan chiqasizlar ham. - Bolakay mungb' h hayib qolgan, najot kutib, aftimga termulardi. - Avval ayangdan xabar olsinlar. Keyin opketgani keladilar. Tuzukmi, toychogb' him?

Bu gapdan men ham, Yodgormurod ham inday olmay qolgandik. Hatto men jindek mulzam tortib:

- To'gb' hri aytadilar. Sen otlanib tur. Ertaga o'tib, indinga opketgani kelaman, - dedim yupatib. - Bo'p-timi?

Yodgormurod mo'min ekan, arazini tashlab, ochila qoldi:

- Indinigamu?

- Indinga, - deb men ham qaytish taraddudiga tusha boshladim.

Buni ko'rib, buvi o'tirgan joylarida jonsarak alangladilar:

- Boradurgan bo'lsangiz... biron nima berib yuborsam bo'lardi? Shoshmang, - u kishi o'girilib, yonlaridagi tokchadan eski chiyduxoba jildni oldilar-da, uning yonchigb' h ini kavlashtirib, bir nima izlay boshladilar. - Mana, jilla qursa, shuni ola keting,

vaqti-vaqti bilan hidlab tursa ham ruhi yengil tortadi.

Nima ekan, desam, u kishining oppoq kaftlarida bir ajoyib bo'y taratib qalampirmunchoq shodasi turabdi. Uni olarkanman, bo'yidan o'zim ham g'balati bo'lib ketdim. Men go'yo bolalik davrlarimga qaytib, qalampirmunchoq bo'yining sirli olamiga tushib qolgandek edim. Shunday yengil edimki, kuragimdan qanot o'sib chiqayotgandek edi...

Keyin Oyto'ra kampir bilan qanday xayrlashdim, yalang'boch ishkomu so'rilar tagidan o'tib, xayhotdek hovlidan qanday chiqib bordim, yakka tavaqali eshikdan qanday o'tib, Kalkovuz bo'yidagi ko'chaga tushdim - bilmayman. Xayolim joyida emasdi go'yo. Faqat oq kampirning istihola bilan "Kelib turing, bolam, yo'q bo'lib ketmang, Yodgormurodimni o'ksitib", degani aylanib-aylanib kelishini aytmam, boshqa hech nimani eslay olmasdim.

Ancha nari borib, o'girilib qaragam, meni boloxonaga boshlab chiqqan o'sha shirin, o'ksik bolakay yakka tavaqali eshik ostonasida oyog'ini salanglatib o'tirar, to'xtab qayrilishimni kutar, jindak imo qilsamoq, uchib keladigandek, men bilan ketvoradigandek edi. Shamol ham endi tollar ustidan tushib, uni olib ket, olib ket, degan kabi nuqul huvillab yuzlarimga urilardi, yurgani qo'ymasdi. Mening esa ich-ichimdan bir yig'ib bosib kelyapti. Nima balo, er yetib, bo'y tortib ham bundan qutulolmasam?! Yetimlarning ko'ngli o'zi shunaqa o'ksik bo'ladimi, o'sha buloqning ko'zlari sal narsaga ochilaveradimi, o'zimni tutolmasdim. Qaerdanam Chaman akani bu xonadonga izlab keldim? Yodgormurodni, Oyto'ra buvini ko'rdim? Boloxonaga chiqdim? Mahfuza kennoyim - (o'sha Kattabog'bdagi hovlimizda yarim yilgina turib, keyin dom-daraksiz ketgan, biz izini ham topolmagan o'sha tangritog'bhlik kelin) so'nggi paytda panoh topgan joyga kira qoldim? Mash'um taqdiridan xabar topdim? Devordagi u ajib suvratga ko'zim tushdi? U nima edi? Nega uch yondan uch kishi ko'rinib turardi?.. U ro'yomidi yo Mahfuz kennoyimning o'zi ishlatganmidi atay? Hech aqlim yetmasdi. Chin desam chinga, ro'yo desam ro'yoga o'xshamasdi bu tarix, bu taqdir. Yaqinroq keling, men bu firoq qissasini, taqdir atalmish buyuk imtihon tog'bidan toymay, tiy-g'bonchiq yo'llariga kirmay o'tib borayturgan akalarim, kennoyilarim tarixini Sizga ilindim. Oллоh ularni ne mushkul-mushkulotlarga soldi va oltinday toblantirib chiqardi - o'zingiz bir ko'ring. Shoyad ibrat olsak, o'shalardek yashay bilsak...

Ayriliq Kunlaridan Yodgor Bitiklar (yoxud "Voy, sizmu, qaynujonum?")

Mayindan-mayin - ukpar shamollar ufurib kelib, yuzlarimni o'pib qochar edilar...

"Moshaalloh! Ko'klam ham kepqopti-ya!", deb edilar kecha oyim...

Dalalarning erka yellari bugun shahargacha yetib kelib, jin ko'chalarni-da, tavof etib, ifor sochib yurar edilar...

Yo mening kayfim chog'ib, yo bugungi mujdalardan boshim osmonda! (Hazilmi, axir! Men kimning daragini topdim! Aziz kennoyijonimning qaerdaliklarini bilib turibman-ku!) Atrof-javonibdagi zig'birdek o'zgarish, yilt etgan nur ham manavi epkinlardek xush yoqib turibdi menga. Ifordek hidlagim, buloq suvlaridek simirgim keladi barcha-barchasini! Omonliq-somonliqqa o'xshaydi bu ko'klam nasimlari ham!...

O'zi ham ajib bodroq islarini taratib o'tayotir. Ich-ichimdan bir bahoriy hislar toshib kelmoqdaki... Va men sizga aytsam, miyamning eng olis, eng ovloq qopqalarigacha "jing-jing" ochilgandan ochilib, ichim yorishgandan yorishib, Xasti Imomdan Eski Jo'vaga tushib kelmoqdaman.

Olamda mendan xushnud kimsa yo'q. Hamma narsa, hatto yo'lka bo'ylab (oldimga tushvolib), pildirab borayturgan anuv likildoq qushcha-chittak ham biram zebo, biram yoqimtoyki, yaqin orada bunday xushhol bo'lmaganman.

Hammasi o'sha boloxonaga chiqishimizdan, olmagulli jajji choynakdagi omonatni olishimizdan, devordagi anuv suvratni ko'rishimdan boshlanmadimi?! O'shandan beri ularni yodga tushiruvchi har bitta narsa meni larzaga solyapti, yutoqib yopishyapman. Xuddi necha yil burun yo'qotgan azizlarimni topib olgandekman. Ha-ha, ertak kitobini yoxud jajji qalamtaroshini topib olgan bolakay ham menchalik holga tushmas.

Chindan ham akamni so'nggi marta ko'rgan, u haqda bir olam g'baroyib narsalarni aytib bera olguvchi kishini qayta topib olganimdan, uni ko'rgani ketayotganimdan o'zimda yo'qman.

Hazilmi, axir! Sulton akam qiblagohim o'rnida qiblagoh edi. Yolg'biz ungagina suyanardim! Uningdek bo'lishni, er yetishni o'ylab, kechalari to'lg'bonib chiqardim. Keyin ham uningdek mard, tanti insonni uchratmadim! Uchratsam ham unga o'xshata olmasdim! Endi qavmimizni himoya eta oladigan kishi qolmagandek edi. Hatto Qo'ldosh tog'bamning ham endi ilgarigidek shahdlari yo'q. Pochcha-ku, qarib, xassaga suyanib qoldilar. Ularning o'rnini bosadigan kim bor? Shuning uchun ham zilzila bahona jannatdek joylarimizni tortib olishdi! (Miq etolmadik!)... Bog'blarimizni payhon etib, biz ko'z ochib ko'rgan u ma'vodan hech vaqo qoldirmay buzib yotishibdi! (Damimiz ichimizda!)... O'zimizni esa ko'chirib yuborishdi (Hech kim g'bing deya olmadi. Ko'rsatgan joylariga qarab ketaverdik). Akam, akajonim bo'l-ganida qarab turarmidi! Buzgani qo'yarmidi! Ana shunday. (El uchun boshini tikadigan, qayg'buradigan odamlar tugab bitgan ekan, hijrat etib bo'lgan ekan undaylar!) Qayg'buradigan bir jon, bir mard qolmasa-ya!

Ana shu Tangritog'b tomonlarga bosh olib ketganlar ichidan akajonimni so'nggi bor ko'rgan (bir bo'lsa Chaman aka), bir bo'lsa, Mahfuz kennoyim edi. Uni ham yo'qotib qo'yib, qalbim bir g'balati huvillab qolgan edi. Mana endi ustma-ust mujdalar chiqib, shoshib qolgandekman. Zoraki, uni topib, bor haqiqatni bilolsam: nega xesh-aqrabolari yolg'bizdan-yolg'biz yosh bir kelinchakni kimgadir qo'shib, ota yurtga jo'natib yubordilar-u, o'zlari xabar olmadilar? Qaylig'bi - akam-chi?! Nega o'tib kelolmadimi?! Boshiga qanday mushkul ishlar tushib, o'sha yo'qlarda qolib ketdi? O'zi omonmikan ishqilib?..

Men bu tarixning bir chekkasinigina chala-yarim eshitganim bor. Og'bir yaralanib, jang maydonida yiqilib qolgan akamni birodarlaridan kimdir shu yaqin oradagi bir qo'rg'bononga ortmoqlab olib borganmish. Qo'rg'bon egalari esa ola-g'bo'vur yillari o'sha yo'qqa qochib, Tangritog'b tomonlardan panoh topgan kishilar ekan. Ular yerto'lalariga yashirib, qaray boshlashibdi. Ammo... o'sha akamni ortmoqlab borgan birodarining o'zi juda ko'p qon yo'qotgan ekan, xushiga kelib-kelmay qazo qilibdimish. Unga aza ochib, dafn etibdilaru elda Sulton Botur shahid bo'пти, degan xabar tarqab ketibdi. Qo'rg'bon egalari balki bu yaxshilikkdir, deb damlari ichida, dim-dim qolaverishibdi. Lekin ko'zimizning oqu qorasi - kenja qizimiz betob, deb kunora tabib chaqirishar, o'sha tabib har borganida bostirmaga tushib, bir yo'la musofirni ham ko'rib qo'yar ekan-u, birovga miq etishmas ekan. Kunlar o'tib qiz "sog'bayib"di. Tabibnikiga o'zi qatnaydigan bo'libdi. Shu borishida u tabibdan musofirga ham malham olib kelar, uning yaralariga bog'blashar ekan. Shunday qilib, "o'ldi"ga chiqarilgan Botur qirq kun deganda bostirma ostonasidan oyoq bosib chiqibdi. Ularning o'rtalarida nima o'tgan, qanday yaqinlik paydo bo'lgan - men bilmayman. Lekin qo'rg'bon egalari Botur kimning zuryodi ekanini eshitib, uning ustida aylanib-o'rgilib qolishibdi. Toza sog'baymaguncha qo'rg'bondan jildirmay, o'rtoqlariga ham daragini bildirmay olib o'tirishibdi. Keyin nima bo'lgan, ichkuyov qilishganmi, joy qilib berishganmi, bilmayman. Tangritog'bda inqilob yengilib, surishtir-surishtir, qoch-qoch boshlangach esa, kennoyimni ishonchli odamga

qo'shib, bu yoqqa jo'natishibdi. Akam chegaradan o'zim o'tib boraman, degan ekan. Nimaga kelolmadi yo bir ogb ʻBizgina xabar berdirmadi, hech tushunuksiz. Ishqilib, tinchlik bo'lsin.

Mahfuz kennoyimdan chala-chulpa eshitganimiz shular. Oyim ham kennoyimga taskin berganlari-bergan edi: "Qarab turing, bir kun emas, bir kun o'zi kirib keladi. U bo'ladi-yu, sizni bu yoqqa tashlab qo'yadimi?! Har qandoq bo'lganda ham bir bosh suqib ketadi", derdilar. Xuddi aytganlaridek, qishning oxirlari, ko'klamning boshlarida, ayni oy kechikib chiqib, tongga yaqin bo'zarib-qizarib botadigan kezlari Kattabogʻda gap tarqadi: nima deysan, Sultonmurodlar qaytib keptimish, nalogchilaru o'gb ʻTri-kazzoblarning adabchasini berayotgan emish. Bagʻ ʻTrimizga shamol tegadigan bo'пти, urush tugabam tinchimovdik, Xudoyimning o'zi gb ʻBamxo'r, uni yetkazibdi, deyishardi odamlar. Bir gal o'zimiz shunaqa voqeaning ustidan chiqib qoldim! Sharifa kennoyining eshigida tumonat odam. Eshak aravada esa, so'yib qo'yilgan, lekin kalla-pochaga ajratib ulgurilmagan targʻ ʻBil sigir yotar, chakkasi mo'mataloq o'gb ʻBribashara bir odam Xudoning zorini qilib, mol egalaridan uzr so'rardi. Keyin bilsak: "Egasini rozi qilsang-qilding, bo'lmasa, o'n bosh to'laysan! Bo'yin tovlab ko'r - moling talonda, o'zing badargʻ ʻBa!.." deb shart qo'yishibdi. Shartning qattiqligidan akamning isi kelardi. O'pkamni qo'ltiqlab uyga chopdim. Qayoqda!.. Kelmabdiyam, kirmabdiyam. Oyim eshitib:

- Yo'q, umas, bolam. Sultonmurod keladi-yu, kirmaydimi? Shundan shu yoqqa kelgan odam o'z uyiga bosh suqmaydimi! Yana bilmadim, kennoyingdan so'rab ko'r,- dedilar.

Kennoyim ichkarida ekan. Supadan o'tib, qiya ochiq derazadan ko'rsam, dahlizdagi tancha chetida qatim tortib, do'ppi tepchib o'tiribdi. Ammo xayoli allaqayoqlarga qochgan, ko'zlari ham bir gb ʻFalati gb ʻBiltillaydi, shu holiga nimani ko'rib, qanday tepchiyapti - tushunolmaymiz. Akam kelsa, shunday o'tiradimi?! Achinganimdan ogb ʻBiz ham ocha olmadim. Bekor aytmagan ekanman. Aytsam, umidini uzmay o'tira turarmidi...

Bu orada dalada ishlar qizib, uni chopiqqa chaqirib ketishdi. Tegirmon tepasidagi yerda lavlagi chopiqda yurgan odam kutilmaganda bir hafta-o'n kun uyda o'tirib qoldi-yu, keyin kunlardan birida:

- Men shaharga, opogʻ ʻBoyuamlarnikuga tushib chiqay, bir yo'la do'ppularni tashlab, yangi ish opkelaman, - deb ketgancha... bizni dogʻ ʻBda qoldirib ketdi.

Oyposhsha xolamlarnikiga surishtirib borib ham na izini, na daragini topdik. Borganida xolam yo'q ekanlar, do'ppiyu tepchiqlarni Muhabbat kennoyida qoldirib:

- Do'ppu bozorga tushub chiqay,- debdiyu shu ketgancha qaytib kirmabdi.

Oyim ikki kecha xolamlarnikida turib qoldilar.

- Odam igna emaski, yurib turib yo'qolib qolsa! Surishtirib ko'ring, pochcha. Sultonmuroddan uyatga qolmayluk, - derdilar oyim. Pochcha - taniqli, aytuvli odam, yonlariga meni olib, bormagan-kirmagan joylari qolmadi. Bozorga tushib, shangʻ ʻBillagan bozor qorovullariyu supuruqchilar oldigacha borib keldilar. Har ehtimolga qarshi uygʻ ʻTur mahallaga ham o'tdilar. Kallaxonadan surishtirdilar. Na do'ppido'z, na ipakfurushlar bilardi. Axiyri, milisaxonaga kirmoqchi bo'ldilar-u, o'sha Zokir badbaxtga uchragilari kelmadimi:

- Sen ang-shanglab so'ra-chi, Tangritogʻ ʻBdan o'tgansan deb ushlab, qamab qo'ymadimikan, badbaxtlar? - deb bir tanishlarini kiritdilar. - Balki ularni ushlab haqda ko'rsatma-po'rsatma bordir...

Haligi odam yarim soatlarda chiqdi. Biz esa bo'larimiz bo'lib, turibimiz: ketib ketolmaymiz, umidimizni uzib uzolmaymiz. Yo'q, unaqa ko'rsatmayam yo'qmish, bu kecha hech kimni ushlabam qolishmabdi.

Pochcha "haytovur-haytovur"lab orqaga qaytdilar.

- Milisaga tushmabdi, jin urmaydi. Hali-zamon eshikdan o'zi kirib kelib qoladi. Bozor shunaqa joy. Togʻ ʻB-togʻ ʻB bilan uchrashmaydi, odam odam bilan topishadi. Birona qarindoshi uchragan. Inshaalloh, daragi ham chiqib qolgay, - deb bizlarni tinchitmoqchi bo'ldilar.

Lekin na o'sha kuni, na ertasiga eshikdan birov kirib keldi. Nilolj, oyimlar bilan Kattaboqqa qaytib ketdik. Biz birov tashlab ketgan omonatni oldirib qo'yib, egasiga nima deb javob qilarini bilmagan odamlarga o'xshab qolgandik. Egasi esa, koski begona bo'lsa! Jondan aziz akajonim edi...

Mana, shuncha yil o'tib qaerda ekan! Akamning jonajon oshnasinikidan daragi chiqib turibdi! Bu orada shirindan-shirin farzandli bo'пти, ogb ʻBir dardga chalinib, kasalxonaga tushibdi. Lekin miq etmagani, burnimizning tekkinasida, xolamlarnikidan qo'l uzatsa yetgudek joyda yashab turib, bir ogb ʻBiz bildirib qo'ymagani gb ʻFalati edi. Nimadan uyaldi, istihola etdi ekan? Turmush qurib (qurganmikan o'zi?), farzand ko'rganidanmi? Ko'rgan bo'lsa, nega unga Yodgormurod deb ot qo'ydi-yu, u jujugʻ ʻBi Chaman akamni "amaqu" deyapti? (Bu yerda bir sir bor-u, men hech tagiga yetolmasdim. O'zidan so'ramaguncha yetolmasam ham kerak!) O'ziga o'zi shuncha tashvish sotib olgan ekanmi? Qolaversa, o'zini shunchalar gunohkor sanaydimi?

Men uning oldiga quruqdan-quruq, o'pkamni qo'ltiqlab bora olmasdim. Eski Jo'vaning ilikuzildida ham sarxil mevalar arimaydigan (Olloh baraka yogʻ ʻBdirgan) bozoriga tushib, kennoyim xush ko'radigan tansiq narsalardan: o'zgina qovunqoqi, bir qismgina sho'rdanq, jindek Madina xurmosi xarid qildim. Bir shirinzaqon kampirsho turgan sari sargʻ ʻBayib, asal boylab ketgan Toshkanni toshnokidan yarim xaltacha opchiqqan ekan. Shundan to'rt donagina oldim. Alqab-alqab xaltamga solib berdi:

- O'luk yesa, tiriltiradi, jon bolam. Jannatni mevasi-ya, bu, - deya boshimni ko'kka yetkazdi.

Jonu jahonim yorishib ketdi. Chindan jannatning isi keladigan bunday narsalar kimni xushhol etmabdi! Zora shu narsalar, mening yo'qlab borishim sabab bo'lib, oyoqqa turib ketsa, musofirgina. Xudodan bo'lib - Xudoyim meni sababchi etib, shifoi komillar bersayu yaxshi bir kunda uni o'sha shifoxonadan yetaklab olib chiqsamu, "Oyi, mana, qochqoq keliniyiz", deb uyimizga boshlab borsam...

O'lay agar, niyatim xolis edi. Akamdan ajraganimiz ajragan, kennoyimning bedarak yo'qolishi bizga bir armon bo'lib qolib edi. Bir kunmas bir kun akam eshigimizdan qirib kelsayu, qani u Tangritogʻ ʻBlik keliniyiz, deb qolsa, nima deymiz? (Sultonmurod akam bo'ladiyu kirib kelmaydimi! Tegirmonga tushsa butun chiqadigan odam-a! Qaytib kelishiga ishonamiz biz!) Nima degan odam bo'lamiz o'shanda?!

Kun qaytib qolganiga ham qaramay, jahd qilib qidirib kelayotganim shundan edi. Yaxshiyam jahd qilganim, shom tushmasidan (kun hali ufqda yangi tushgan tandirdek qizarib turardi) shifoxonaga yetib bordim. U Qibray tomonda - bahavo joylarga yaqin yerda ekan. Ilgari qaysi bir kattaning bogʻ ʻBi bo'lgan shekilli, hozir ham shinam, yogʻ ʻB tushsa yalagudek edi. Balki hukumatga qarashlidir hali ham.

O'ylaganimcha bor ekan, kiraverish - qorovulxonadagi muomaladanoq bilindi:

- Keling, opovsi. Kimni so'rab keluvdiz? - deb ko'k xalatli xurshro'ygina ayol peshvoz chiqdi oldimga. Men nomlarini aytdim:

- Shu yerga tushib qolgan ekanlar, kelinoyimiz...

U oyna tagidagi ro'yxatni ikki sidra qarab chiqibam men aytgan ismni topolmay boshini ko'tardi.

- Balki familiyalarini bilarsiz? - dedi umidvor etib.

- Familiyalari... - Akamning familiyasini eslab aytdim, - Abdurahimova bo'lsa kerak.

Lekin ro'yxatda bunday familiyali odam ham yo'q edi.

Birdan Chaman akaning omonat xati yodimga tushib, kissamdan uni izlab qoldim.

- Shoshmang-chi, mana bu yerda yozgan bo'lishlari kerak.

Xat-qogʻbʻozni olib, o'zimga hayratda qoldim. Chaman aka uning bir chekkasiga, to'gʻbʻirogʻbʻi, xatning ortiga (Yodgormurod olib bergan kezda nimaga ko'rmadim ekan?) yozgan edi: "Darvoqe, uni Margʻbʻuba Ubaydulloh qizi deb so'rab borgil. Bo'lmasa, topib berolmagaylar!"

"Margʻbʻuba? Nima bu? Shunchaki tasodifmi yo o'sha birinchi kennoyimga mengzab, o'shanday baxtini topsin deb... qo'yganmi, Chaman akam? Unda nega Ubaydulloh qizi? O'zining familiyasiga olibdimi?! Qanday oladi birovning xasmini?! Yana jonajon oshnasining qayligʻbʻini?! Esi joyidami?! Mahfuz kennoyim-chi?! Akam uchun hamma abru balolarga, jabru jafolarga rozi bo'lib, bu yoqlarda tentirab yurgan kennoyim-chi? Qanday rozi bo'la qolibdi bu ishga, birovning nomiga o'tkazishlariga?! (Balki nikohiga o'tkazib ham olgandir!?) Xayolimga urilgan ana shu o'ydan o'zimga kelolmay turarkanman, darbon ayol (holimga achinibmi?) atrofimda girgittan bo'lib qolgan edi:

- O'tiring, voy, opovsi. Birpas nafasizzi rostlang. Hech qisi yo'q, shundan shu yoqqa kelganingizda - xijolat bo'lmang, topiladi, topilmaydigan narsa bormi? Manavi choydan bir ho'plang, zora eslab qolsangiz...

- Yo'q, topdim, - dedim o'zimni tutib olib. - Mana, Margʻbʻuba Ubaydulloh qizi ekan. Qaramagan ekanman.

- Ie, anuv tili bir shirin, ko'hlik ayol bo'lmasin tagʻbʻin. So'zlari sal ketib-ketib qolayatuvi. Ogbʻacha kelinmi? - Haliyam yuzining jonoqi olmadek qizilligi qolmagan ayol ro'yxat ustiga engasharkan, yuragim orziqib tushdi.

- Shunday bo'lishi kerak, Tangritogʻbʻ tomonlardan tushishgan, - dedim.

- Kelin bo'lib-a? - dedi ayol bir qiyo qarab qo'yib.

Men (yuragim uvushib!) nima deyarimniyu qanday tushuntirarimni bilmay... (Koshki bu tarixni ochib bo'lsa hammaga!) noiloj, bosh irgʻbʻadim.

- Bizam shundaymi, deb o'ylovdik boyaqishginani, - deb turib, quvonib ketdi. - Ha, mana - aytgan odamiz, Ubaydulloh qizi.

Hammaga qanchalab odamlar kelganda bu ayolni hech kim yo'qlamasdi. Savob ham kerak deb yo'qlab chiqarduk. Yaxshi kepsiz, opovsi. - Ayol bir nozik gapi bor odamdek ichkaridan aylanib, chiqib keldi. - Kechirasiz, so'raganning aybi yo'q, kimlari bo'lasiz?

- Qaynilari, - dedim u o'zini yaqin olib bir narsa demoqchiligini anglagandek bo'lib. - Nima edi?

- Unday bo'lsa, sizga xolis bir gap-da, - deya azza-bazza qo'ltigʻbʻimdan olib, bir chetga boshladi, - boyaqish musofirgina ekan, qolaversa, qiz boladek narsa: jarrohlari qo'lga tashlab qo'ymanlar bunday. Ruxsat bermanglar.

- Nimaga ruxsat, qanday ruxsat? - dedim nima gapligini anglab-anglamay.

Ayol ko'zlarimga iltijoli boqdi:

- Tushuning siz, jarrohlarga nima! Kesadilar - qutuladilar-da. Lekin jabr-jabr kimga bo'ladi - unga bo'ladi. Ayol narsaga. Rozilik bermang. "Joyidanam" bo'ladi ba'zan bunaqa narsalar... Irimini qilsa, san ko'r-man ko'r bo'lib, oyoqqa turib ketar-midi...

Men yuragim hapriqdi:

- Oyoqlariga nima bo'lgan?..

- Aytmoqchi, hali Siz bilmaysiz-a. Boyaqish tahorat yangilayman deb vannaxonaga kirgan ekan: tiygʻbʻonib tizzasini urib olibdi. O'sha - do'ngalakdek shishib ketib, yurolmay ham, turolmay ham qolsa deng. Bo'lmasa, namozini o'qib, bir chiroyli yuruvdi.

Ranglari ham yaxshi bo'p qoluvdi.

Men qaytarib so'radim:

- "Bir chiroyli yuruvdi?" - Nazarimda, boshqa birov bilan chalgbʻitayotgandek edi.

- Ha, opovsi, tashqariga ham sekin-asta chiqayotgan edi. Faqat manavi falokat - oyogʻbʻi ostidan chiqib, yomon bo'ldi. Shuning uchunam kasali "joyi"danmikan, deymen. Eskichadan xabari bor Hoziq tabibga ko'rsatish kerakmidi. U kishi xorijdan kelganlar, shu shah-rimizdalar. Birov birovga sababchi bo'ladi-da, opovsi.

Boshda xushro'yginayu iymanchoqqina ko'ringan qishloq ayolining birpasda shuncha gapni gapirib tashlaganigami yo kennoyim haqida hech narsa bilmay yurib, birdan shuncha narsadan xabar topganimgami, boshim aylaniblar ketgan edi:

- Maslahatingiz-chun rahmat. Ko'rib chiqay-chi, avval, - deb men qo'zgbʻolib, ichkari o'tishga chogʻbʻlan-dim. - Qaysi xonadan... so'rayman?

- Iloy, Xudoyim Sizni o'zi yetkazgan bo'lsin, - eshikbon opa oldimga tushib, girgittan bo'lib yo'l ko'rsata boshladi. - Mana, shu teraklar tagi bilan borib, huv, anavi oldi peshayvonli binoga o'tasiz. Derazasi shu yoqqa qaragan kunjakdagi xona. Hamshiralardan so'rab, kirib boravurasiz.

- Rahmat.

- Faqat boyagi gapni unutmang-a?

- Yaxshi, opajon, - men tashakkur aytib, yogʻbʻ tushsa yalagudek yo'lkadan azamat teraklar tagi bilan yura ketdim. Ular hali quv yalangʻboch bo'lsalar-da, bir go'zal saf tortgan edilar. Kechki oftobda uchlari yonib ketgudek zarhallanib turar, ammo mening butun fikri-zikrim shu yo'lka adogʻbʻidagi peshayvonli binoda edi. Ko'zlarimni uning shu yoqqa qaragan eng chekka derazasidan uzolmasdim. Nimaga ichim qurib, hapriqayotir, desam, kennoyim bu ahvolda yotgan ekanlar-da. Bizni bir ko'rishga ilhaq bo'lib? Shu kunlarga tushib? Chaman akam bejiz tayinlamagan ekan. Oyogʻbʻini qachon urib olibdi, u ketgunchami yo undan keyin? Bechora kenno-yim, shu ko'rgiliklari ham bor ekanmi musofirliqi ustiga?

Huzuriga kirib boryapmanu ichim yonib, bo'gʻbʻzimga zoldirdek qaynoq bir narsa tiqilib kelyapti. Yuragimni bir nima timdalaydi. Undan nimtalab tashlagani ma'qul edi. Yengil tortarmidim... Qayni bo'lib, bizdan nima ko'rди? Shu holga tushgunchayam qidirib topmabmiz! Holidan xabar olmabmiz! Akamning, akajonimning hurmati shumi edi?!

Qalbmning eng chuqur, eng ingichka yerlarida tushunksiz, (o'z-o'zimdand shekilli!) bir norozilik ul-gʻbʻayib, bir hayqiriq qaynab kelayotir. Uyat! Qanday uyatli hol!... Ko'ksim xuddi mijmarga, ha-ha, o't tutashgan ko'ksiga o'xshab kuymoqda go'yo, dudi ichimga sigʻbʻmay ketayotir.

Dimogʻbʻimga bir gʻbʻalati hid va dudlar uriladi. Go'yo birov shu yaqin atrofda mijmar atalmish idishda mushk-anbar

tutatayotgan kabi. U shu atrofdan gupurib kelyaptimi, ich-ichimdanmi - o'zim bilmayman: Mana, sizga oqibat! Tagʻbʻin biz

jigarmishmiz! Jigarimizning jigariga jigar bo'lolmabmiz-ku! Akam kelganda oldiga qaysi yuz bilan "Voy jigarim"lab boramiz? Bagʻ Bʻriga o'zimizni tashlaymiz?

Uyat, xijolatpazlik, shuncha vaqtdan beri holidan xabar ololmaganimiz - barcha-barchasi qo'shilib, bir tarafdin ichimni tirnab borayotgan bo'lsa, boshqa tarafdin nihoyat daragini topib, eng mushkul kunda oldiga yetib kelayotganimdan, mana hozir meni ko'rib qay alpozga tushuvidan yana bir hayajondaman. Xushi uchib, esi ogʻ Bʻib qolmasa koshki edi! Balki avval xabar berib, keyin kirib borishim lozimmidi?

Qibrayning oq yuz, tim qora ko'zli qishloq qizlari hamshira bo'lib ishlashar ekan.

- Keling, kimga kelib ediyiz? - deb xayoligina iymanib, o'rnilaridan qo'zga Bʻolishdi.

Men aytdim-u, shu ondayoq yuzlarida ga Bʻalati jiddiylik ko'rib, qo'rqib ketdim:

- O'zlari... yaxshimilari ishqilib?

Hamshiralardan biri xuddi "Siz so'ragandan beri!" demoqchidek yuz burib, ishga chalga Bʻidi. Va shu asno sherigiga buyurdi:

- O'zing boshlab kira qol, Dil!

Uning bu muomalasi menga ayil botdi: "Sadqai qarindosh keting", deb yuzimga solgandek edi. Ko'ksimda bir nima simillab, tilib o'tdi. Shu asno ikkinchi sherigi o'sma qo'ygandek qora qoshi bir chimirilib, oldimga tushdi:

- Yuring.

Javobi ham zardalikkina edi uning. Yuragim shuv etdi: chindan ogʻ Bʻirlashib qoptilarmi, kennoyim?

Qadamimni tezlatib, hamshiraga yetib olishga shoshildim. (Uning ikki o'rim sochi uzunligidan taqimini o'pay-o'pay der, o'zi oq xalat ustida qo'sh ilondek to'lgʻ Bʻonar edi, tavba.)

- Hoy, singlim, - dedim yurak yutib, ham shivirlab, - nima bo'lgan u kishiga? Biz endi xabar topib kelyapbiz, - men o'zimni oqlashga urinarmidim yo ahvolini bilishga oshiqarmidim, ajrata olmasdim. Harqa-lay ikkisi ham bo'lsa kerak.

U o'g'irilib, tanbehnamo boqdi:

- Shovqinlasangiz, kiritmayin qo'yaqolishadi, - dedi sekin, - bilmaysizmi, bizda qanday nozuv kasallar yotishini?

- Bilaman, bilaman, - dedim shivirlab, ham nafasim ichimga tushib. Axir shundan shu yoqqa topib kelganimda kiritmay qo'ysalar, kimga zarar! - O'sha chekkadagi xonadalmi? - dedim yalingannamo.

- O'sha, faqat ko'p qolib, toliqtirib qo'ymaysiz. Kuni bilan mijja qoqmadalar, - dedi u kennoyimga achinib. - Qo'lingizdan kelsa, yaxshi so'zlar bilan ko'ngillarini ko'taring. Balki Sizning qadamingiz sharofati bilan... operatsiaga rozilik berib qolarlar.

Xayriyat! Hali rozilik bermagan ekanlar-ku! Yuragim gurs-gurs urib, bo'ga Bʻzimga bir nimalar tiqiladi. Go'yo ko'ksim to'la kaptarlar potir-potur uchib yotibdilar. O'zim esa nuqul titrab-qaqshayman. Hatto eshikni qoqishga... holim yo'q. Nihoyat...

zo'rgʻ Bʻa, sekin qoqdim. O'zimga ovoz bitganiga o'zim hayronman:

- Mumkinmi?

Karavotning tag simi ingranib-gʻ Bʻijirladi, ammo ichkaridan hech ovoz chiqmasdi. Hamon yuragim potirlab, xalqumimga tiqilib kelyapti. Nahot topdim deganda, kechikdim? Balki ko'zi ilinib, eshitmagan chiqar? Eshikni qiya ochsam, to'rdagi karavotda bir burdadedek bo'lib, yuzi bo'zdek oqargan birov ko'zlari javdirab yotibdi. Hayhot, bu ko'zlar juda tanish, faqat uni mung aralash yolqinidagina tanib olmoq mumkin edi!

- Ie, kennoyijon! Nima bo'ldi? - Men otilib kirib borib, yonlariga cho'kmoqqa choga Bʻlandim.

- Kim? - u javdirab turib, ovozimdanmi, nimadan tanib qoldi. - Voy, Maqsudxon, sizmusiz? - deya tirsaklariga tiralib bosh ko'targan joyida... qay bir yeridagi ogʻ Bʻriqning zo'ridan lablarini qimtib jim qoldiyu... - kechirasiz, - deya benajot boshini qayta yostiqaqqa tashladi.

- Urinmang, qimirlamang siz, kennoyijon. Menman, Maqsudman. Mana, topib keldim. Endi hammasi yaxshi bo'lib ketadi, ko'rmaganday bo'lib ketasiz.

O'zim unga taskin beryapman-u, kipriklari ostidan sizib chiqayotgan, nozik-ado ajinlarini yuvib tusha boshlagan ko'zyoshlarini nima qilarimni bilmay... (artib qo'yarga esa jur'atim yetmay) piqirlab qolyapman. Bo'ga Bʻzimga nimadir tiqilib kelib, sho'rtang bir nimalar lablarim chetidanda sizib kirayotganday. Ko'z oldim tumanlanib, hech narsa ilgʻ Bʻay olmayotirman. Ko'rolmayapman-u, kennoyimning pinqillagan ovozidan ho'ngrab yuborgudekman. Lekin o'zimni bosmasam bo'ladimi, bosdim:

- Men Sizga zo'r xabarlar olib kelganman, kennoyijon. Zo'r tabiblar, xorijdan kelgan tabiblarni topib qo'yanman, - deb tasallilar bera ketdim. - Hali otday bo'lib ketasiz... ko'rmaganday bo'lib ketasiz. Men Sizni bu yerlarda yotqizib qo'ymayman, o'z oyogʻ Bʻiz bilan yurgizib olib chiqib ketaman, - derdim, va'dalar berardim. Ostonada birov turgandek tuyulib, o'g'irilib qarasam, boyagi hamshira: lablari uchib-uchib turgan ekan, eshikni sekin yopdi. Men uyalganimdan o'zimni tutib, turib o'tirdim-da, go'yo hech gap o'tmagandek, yana yangiliklarga tushdim:

- Sizga Oyto'ra buvi salom aytdilar. Yodgormurodiz so'rab-so'rab qoldi: "Ayajonumni sogʻ Bʻundum, har ikkala ko'zlarim ila sogʻ Bʻundum", deydi.

Vo' ajab! Ogʻ Bʻriqning zo'ridan ingrab yotgan odam ko'zlari yaraqlab ochilib ketsa bo'ladimi! Yuzlariga ichdan bir ajoyib oq-qirmizi (boshqacha o'xshata olmadim!) rang yugurdi.

- Yodgortoyum-a? Menu murodum-a? - dedi to'liqqan bir tovushda. - O'zu qanday? Ichikib qolmabdimu? Qiyun bo'ldu bolam boyaqishga. Qiyun bo'lgandan o'shanga bo'ldu.

- Yo'q, unday demang. Bir aqlli, bir mo'mintoy bola bo'libdi Yodgormurodingiz. U meni Sizlar turgan boloxonalarga opchiqdi. Olmagulli jimit choynaklariz ichidan amaqusining omonatlarini olib berdi, - dedim kennoyijonimning chiroyini ochay, o'zini xursand etay, deb.

- Shunaqamu? Katta yigit bo'lib-a?

- Bo'lganda-chi! Hali qarab turasiz! Anvar mir-zoday bir yigit bo'lsinki, kelinlikka Ra'no qizlarni izlab yuring! - deb yuboribman. O'zimning gapimdan o'zimni olovim chiqib ketdi. Ammo bu gap kenno-yimga yoqqan, mahzun jilmaygan qo'lini duoga ochgan edi.

- O'sha kunlarga yetkazsun, ilohum, - dedi yuziga qo'l uchlarini surtib. So'ng mening oldimda cho'zilib yotishga o'ngʻ Bʻaysizlanibmi, boshini ko'tarib, jilla qursa, turib o'tirishga unaldi. Ammo o'sha oyogʻ Bʻimi, nimadir qaddini ko'tarishga qo'ymas, u labini tishlagan qolgan edi. Men shoshib:

- Qimirlamang, urinmang Siz, - deb yelkasidan bosib, yostiqlarini to'ga Bʻrilagan bo'ldim.

Kennoyim shu yillar ichida o'zini ancha oldirgan, yuz-ko'zlaridagi o'sha ma'sumlikni demasa, ogʻ Bʻir dardga chalingan boshqa birovga o'xshatib, tanimaslik ham mumkin edi daf'atan. Lekin tovshi, so'zlari, uni ko'ksidan chiqarib, Tangritogʻ Bʻ tomonlilarga

o'xshab, bir chiroyli talaffuz etishi o'sha-o'sha edi, boqishlari o'sha-o'sha muloyim, o'zgarmagan edi. Faqat ko'z qarashlarida mahzunlikmi, munis sinqlikmi ko'paygandek. Balki manavi dard ham, yolgb'izlik ham yengib qo'ygandir, qiynab, benajot qoldirgandir. Axir musofirlik osonmi, yolgb'iz ayol boshiga?.

- Baxay, kennoyijon, bu yerlarga tushib qolibsiz? Nima bo'ldi? Nima lozim? Ayting, tabib desangiz tabiblarga olib boray. Do'xtir desangiz do'xtirlarga. Faqat bunday yigb'lamang. Esingizdami, siz meni naqd o'limdan olib qolgan edingiz. Shunday kunda endi men yaramasam, qachon yarayman! - deb yer tizzalab olgan, go'yo poylariga bosh urib turar edim.

U esa ko'zlarida yosh, bir ogb'iz bir narsa deya olmay, yigb'hisini qult-qult yutganicha yotibdi. Faqat ko'zlarini uzmaydi, ora-sira kaflari ila mijjalarini artib, o'sha qo'llari-la boshimni silaydi, sochlarimni to'gb'irilagan bo'ladi. Ko'zlaridan olam-jahon minnatdorchilik, rahmatlar o'qiyman. Shugina menga taskin berib turibdi. Bo'lmasa, o'zimni tutolmasligim aniq. Axir men kennoyijonimni shu alpozda topaman, deb o'ylabmi edim?! Qani u go'zal xilqat? Olloh akam uchun yaratib, pardai ismatida asragan farishtasi? Margb'ubaning o'rniga bergan mahbusasi? Shunday imtihonlariga ro'baro' etibdimi bu suygan bandasini?..

- Rahmat, qaynujonum. Mana, kepsiz, shuning o'zi yetadi menga, - dedi u to'liqib. - Boshim osmonga yetdi. Shu kecha tushlarimga Hizrdek oppoq bir qariya, nurludan nurlu bir mo'ysafid kirib yuribdu. Kitob-larda ko'rganumiz, she'rilarini yod olganumiz o'sha hazrat Navoiygami, kimga o'xshab ketadu, tavba. "Qizim, ko'pam qaygb'urmang, dardingizning davosi bor, inshaalloh, Sizni yo'qlab kelishgay. Meni qidirib topsinlar", deydu. Ertalabdan beri hayron edum nima ekan deb. Mana, najot farishtasudek o'ziz kirib keldungiz. Endi qo'rqmayman. Sizni Xudoyimning o'zi yetkazdu, - deb qo'llarimni tavof etib, barmoqlarimning uchini o'pib qo'yar, hov bir vaqtdagidek ma'sum-ma'sum jilmayar edi.

Uning bu ishidan jonu jahonim yorishib, o'rnimdan turib olgim, bozorliqlarimni ochib, o'sha ilingan narsalarimdan jilla qursa, ikki donagina nokniyu Oyto'ra buvi berib yuborgan qalampirmunchoqni qo'llariga tutqazgim kelardi. Axiyri olib:

- Mana, men Sizga nimalar olib keldim, qarang,- dedim.

- Voy, halim nokmu? - kennoyim azza-bazza boshini ko'tarib, tirsagiga tiraldi. - Hidinu qarang, asal tortub ketipti-ku!..

Darhaqiqat, undan asal hidi gurkirab, o'zi sariq ipakdek jilvalanar edi.

- Bir kampirshodan oldim bu jannatning mevasini. Duo qilib yeyar ekansiz.

- Rahmat, - dedi u chiroyli kiprik qoqib. (Aftidan mutaassirlanib, ogb'irilarini qaygb'ularini bir zumgina unutgan edi.) - Bunisu qalampirmunchoq-ku. Rahmat. Shundan shu yoqqa ilinub... ko'tarub yurubsiz,- dedi u.

- Uni buvi berib yubordilar. Hidlab turarkansiz, gb'uboringizni olarkan.

- Voy, shundaymu? Baraka topsunlar. Menga yaxshilik sogb'inganlarnu Alloh qo'llasun, o'zi aziz qilsun, - dedi u yana ham ta'sirlanib. Ko'zlari chaqnab, yoshmi - nima yiltilladi. - Qani edu, tushlarum o'ngudan kela qolsa.

- Inshaalloh, o'shal ko'ringan odamni-da, topgaymiz. Bekorga belgi bermagan,- dedim eshikbon ayolning gaplari rost kelayotganidan o'zim ham hayratlanib.

- Valloh, farishtalar omin deb turgan bo'lsun. - U mijjalariga qalqib chiqqan yoshlarni artib, boyagidek minnatdor tikildi. - O'sha-o'shasuz-a, qaynujonum, kichikoyumlarning, kattabogb'liklarning hidinu tuydum, rahmat.

- Shoshmay turing, yana o'shoqlarga opchiqib ketaman. Axir Siz qangb'ilibsiz, - dedim men.

- Qaniydu, Kattabogb'nu qaytub bir ko'rsam, Sizlarnukuga chiqsam. Anuv Olmazorimiznu bir aylan-sam - armonim yo'q edu.

Padaribuzrukvorimiznu, validai mukarrama onamiznu ko'rgandek bo'lar edum. Ular yetisholmagan joyga men yetar edum, - dedi to'liqib va yana ko'zlari qayta namlanib kela boshladi.

- Ulguramiz-ulguramiz. Hali hammasini buzib, qo'porib bitirishganicha yo'q. Olmazor shunday turibdi, egasiz bogb'iday, - dedim.

- Qanday? Hali u tomonlarnu ham buzishyaptimu? Shaharga qo'shib yuborishyaptimu? - dedi u tashvishlanib.

- Qo'shib bo'lishdi hisob. Hech vaqo qolmadi Kattabogb'himizdan.

- Sizlarnukuni hammu? O'shal qo'rgb'bon, o'shal uylarnu-ya? Bir nishon qoldurmayin-a? - dedi u sarosimaga tushib. O'zi azza-bazza turishga unnaldi-yu, ammo turolmadi. Men uning ustida girgitton bo'lib, tasalli berishga urinardim:

- Yo'q-yo'q, bogb'imiz turibdi. Faqat tomni ochib, ko'chib ketdik, xolos. Surib yuborishganicha yo'q hali.

U ko'zlarini yumib, bir muddat jim qoldi, so'ng "O'zingga shukr, Alloh, sharmisor etmabsan", deya shivirladi...

Nihoyat, xasrat to'la ko'zlarini ochib:

- Ishqilib... o'shal biz turgan paxsalu uy... omonmu? - dedi allaqanday termulib.

Shu topda bir ogb'iz bemavrid so'z bilan uning ko'nglini chil-chil qilib qo'yishim mumkin edi: tilim zo'rgb'ba aylandi:

- Omonligi shuki, tomi ochuq, yolgb'iz devorlari qolgan...

Kennoyim yengil tin oldi:

- Shunisigayam shukr. Surib tashlashsa nima qilardum?! - dedi u. Keyin menga termulib, o'tina ket- di: - Yaxshiyam kelubsiz. Endi sizdan iltimos, qaynujonum. Tez borgaysiz, surib yubormaslaridan borgaysiz. O'shal uyda - bilasiz-ku, men turgan uyni - o'sha katta uyda bir narsa qoldurib edum. Akangizga atalgan narsalar... Tushunyapsizmu, omonat edu. Qachondan beri ich-etimnu yeyar edum. O'shanu olmoq lozum.

U nima o'zi, qanday omonat? Turibdimi, yo'qmi hali? Qaerida edi? So'ragim kelib ketyapti-yu, qani tilim aylansa! Aylanmayapti, tanglayimga yopishib qolgan. O'zidan ko'z uzolmay yutoqaman nuqul: nima u, ayta qolsa-chi?!

- O'rtadagi tokchanu bilasiz-a?.. O'sha yerda edu.

- Tokchadami? - dedim hech nimaga aqlim yetmay: tokchada narsa qoptimi? Ship-shiydonini chiqarib ko'chganmiz-ku?..

- Yo'q, tushunmaduz: taginu urib ko'ring, po'killaydu. O'sha yeruda. Ochsanguz olasiz u bitiklarnu.

- Bitiklar? - dedim hayratga tushib. Ammo daftarmi, nima, deb so'rolmasdim. Ichim toshib bormoqdaydi.

- Ha, qaynujonum, - dedi u. - Odamlar nima deb o'ylasalar-o'yilasunlar, lekin men Alloh shohid, akangiz oldularida pokman.

Uyatlu emasman hech. Jilla qursa, mana shu bitiklar - bizning qissamiz guvoh bo'lsun! Jon qaynum, mumkin bo'lsa, olib qo'ying.

Shu qogb'oz, shu daftarlarnu! U kishini qaytub ko'rish... nasib etmasa... - U ichi to'lib kelib, azza-bazza yuzini burib oldi,- berarsiz bir kun.- Ammo ko'rib turibman: ko'zlaridan duvillab oqqan yoshlar... yuzlarini yuvishdan uyalgan kabi pastga chopqillab yostiqa oshiqar va unga singib yo'qolar edilar.

U qancha, necha daftar - so'ragim-bilgim bor-u, so'ray olmasdim. Darvoqe, ularning ayriliq qissalari qanchalar uzun - nimadan boshlanib, nima bilan tugaydi, men qaerdan ham bilardim...

Kimlar Kirar Mushfiqaning Tushiga?..

Nihoyat, men turar bo'ldim. Oqshom cho'kib, qaytar mahalim yaqinlashgani sayin ichim gb'urmishlab bormoqda edi: Nima

qilsam ekan? Avval qayoqqa o'tsam? Eski hovlimizgami yo anavi "Opovsi" opa aytgan joyga? Qay biriga ulguraman? Opa aytgan, Mahfuz kennoyimning tushlariga kirib, belgi berayotgan tabibni desam, eski uyimiz qolyapti, uni desam bunisi. Biri-biridan zarur - muhim. Ayniqsa, anavi bitiklarga ichim tushib boryapti. (Hozir o'tsam, hozir topib oladigandekman, u "mahfuz" xatlarni! Ammo keyinga qoldirsam... bir umrga yo'qotib, ajrab qolsam-chi? Axir xaroba joyni kim tutib turardi?! Bugun bor, ertaga surib tashlamaliklariga kim kafolat bera oladi?! Keyin qaysi tuproq ostidan izlaysan?!)

Men eski uyimizga o'tib, maktubni izlab yursam-u, bu yoqda jarrohlarni kennoyimning oyogʻini kesishga qaror qilib qo'ysalar-chi? Yo'q, shuncha yotgan qogʻinlar yota turadi, tabib zarurroq! "Tushlarimga Hizrdek oppoq bir qariya, nurludan nurlu bir mo'ysafid kirib yuribdu" deydi. Bejizmas shekilli. Nimadan belgi berayotibdi ekan u?..

Kun ketib borar, ammo o'zim qay biriga ulguramni bilmasdim. Axiyri qo'zga b'oldim.

- Xo'p kennoyijon, men endi boraqolay, - dedim ruxsat so'rab. Ammo o'zim hech ketgim yo'q. Hatto turishga ko'nglim bo'lmay... imillagandan imillayap- man. - O'sha belgi berayotgan tabibni... surishtirib ko'rayin-chi?

Bechora kennoyiginam!.. Men uning ko'ngliga qarab tepasidan jilolmayotganimdan bir mutaassirlansa (ko'rib turibman: qora oludek ko'zlari yoshlanib-yoshlanib kelmoqda, lekin mijjalaridan oqib tushishiga hayosimi - nimasidir qo'ymayapti), tushlariga kirguchi tabibdan ogʻibiz ochib meni tashvishga qo'rganidan ming xijolatda...

- O'zingizga qarang, tushga nimalar kirmaydu, axir...

- Anavi Opa ham aytayaptilar: "joy"dan bo'lsa, armon bo'lib qolmasin deb. U kishi qaerda turishini biladiklar. Boraveray, zora nafi tegsa.

Kennoyim ich-ichidan rozi-yu, o'zi o'sha tabibga umid tutib yotibdi-ku... sezdirgisi, meni tashvishga qo'ygisi kelmasdi.

Chalga bitibmi, hadeb bo'lak narsalardan ogʻibiz ochardi:

- Darvoqe, u yoqda kichigoyum qalaylar? Kelinposhsha-chi? Duolarini olub o'tiribdularmu? Salom aytub, so'rab qo'yasiz. Biz uyatlularni... kechirolsalar kechirsunlar, kichigoyim. Xudoyumning xohlashu ekan, shunaqa ishlar bo'lub kettu.

Men o'zim turib olganman-u, yana taskin-tasalli beraman:

- Hechqisi yo'q. Mana, daraklariz chiqib, o'zini topdik-ku. Hali eshitib, bir yerga yetadilar. Balki qistab qo'ymasalar, olib ham kelarman.

Kennoyim yotgan yerida bir gʻalati - iltijoli tikildi.

- Unda... unda aytmay tura qolung, jon Maqsudxo'jam... Menu bu ahvolda ko'rub, kuymasunlar. Sal o'zumga kelub olay, xo'p?

- Mayli-mayli, - dedim ich-ichimdan bosib kelayotgan xo'rliklarni yutib. Unga biron narsa deyay deyman-u, bo'lgʻinimdan hech so'z chiqmayotir. Ammo o'zim tepasiga kelib, yonginasiga tiz cho'kib olganman. Mijjalarining chetidan duvillab oqib borayotgan, nori ustidan chopqillab o'tib, quloq yumshogʻini tagiga, undan yostiqa singib ketayotgan yoshlarni kaftim ila sidirib to'xtatib qolmoqchi, artmoqchi bo'laman-u, qani eplay olsam, jur'at etolsam. Yigʻinlamang, kennoyijon, u kishiga aytish qochmaydi, avval tuzalib oling demoqchiman-u, aytolmayapman. Bo'lgʻinimdagi o'sha narsa, o'sha xo'rliklar bir bo'lib, qo'ymayapti. Boyaqish, kennoyiginam. Akamni deb kelib, shuncha tashvishlarga qolgan ekanmi?

Alammi - nima, shuncha xo'rliklarni qult etib yutib yuborishga qo'ymas, imkon bermas edi, nihoyat bir yutunib - yengil tortdimu:

- Xo'p, kennoyijon, xo'p, - dedim. - Siz aytgan narsa bo'lsin. Ammo ishoning, sizni bu ahvolda tashlab qo'ymaymiz. Albatta, tuzatib olib chiqib ketamiz. Qarab turing, o'z oyoqlariz bilan yurib chiqib ketasiz. Opchiqib, yangi joylarimizga olib boraman. Yana o'zimiz bilan turasiz. Xuddi ilgari vaqtlardagidek. Bu yoqdan Yodgortoyini opchiqamiz. Odamlar ko'rib qo'yishsin, bularning qanday jujugʻini borakan deb...

Voh!.. Shu yerga kelganda tilimni tishlab qoldim: men ovsar, men haftafahm, nimalar deb valdirayapman, o'zim bilmay qayoqlarga o'tlab ketyapman?! Koshki bir nimani bilaqolsam!..

Haytovur, kennoyim anglamay qoldi. Fahmlab qolsami, bilmadim, qay alpozza tushar edim.

U bo'lsa, mijjalariyu ko'z yoshlarini artib, jilmayishga urinar, mutaassir bir holatda:

- Inshaalloh deng, Maqsudxo'ja, farishtalar ham omin desunlar... - deb shivirlaru o'ziga kelolmasdi.

- Inshaalloh, inshaalloh, - derdim men qayta va qayta, - yo'q yerdan daragingizni chiqargan Oллоhim bu yogʻinini ham o'nglaydi.

Qo'llaydi. Siz mahkam bo'lavering faqat, - deb daldalar berardim.

So'ng xayrlasha boshladik. Qaytish taraddudiga tushganimni ko'rib, u birdan o'zgarib qoldi. Ko'zlari javdirab, bir nimalar demoqchi bo'ladi-yu, aytolmaydi. Istiholaga tushib, dardini ichiga yutyapti. Qaytdim. Kelib, jur'at etib-etmaygina yostiqlarini to'gʻinlashga tutindim. Ammo o'zimning ich-ichimdan ham bir turlik xo'rlikmi - nima bosib kelyaptiki, qo'llarim, barmoqlarim titrab boryaptilar.

- Yana biron gapingiz bo'lsa, tortinmang, - dedim zo'rgʻin, - ertaga kelishimda...

Uning mijjalariga ikki tomchi yosh qalqib chiqdi.

- Ertaga menu... menu topolmay qolasizmu deb... qo'rqamen.

Men shoshib qoldim. Ichimdan o't chiqib ketdi!

- Nega unaqa deyaqsiz, kennoyijon? Axir, kelishdik-ku, men tabib topib keladigan bo'ldim-ku. - Men yana uning yoniga cho'kib olgan edim: - Unaqa xayollarni... boshingizdan chiqarib tashlang...

Kennoyim sochlarimni silab, mahzun yutindi:

- Sarson bo'lib qolmang deb... aytayotirman.

- Sarsoniz nimasi?

- Gap shundaki... Ertaga ko'chirishmoqchu... boshqa bir yoqqa.

- Nega, bu yer-chi?

U boyagidek to'liqib yutindi:

- Kesmasalar bo'lmas emush... Biron boshqa kasalxonada.

- Siz... Siz rozilik berdingizmi? - dedim titrab. - Axir tushingizga kirgan, kirib yurgan odam-chi? Bekorga belgi berayotirmiy?

Kennoyim mungligina mungʻin haydi:

- Rozilik bermaganumda... u kishinu topishnu ayting. Kim so'roqlaydi-yu, kim topib keladu?

- Mana, men-chi? - dedim sidqidildan, - sizni topib kelganda, uni topolmaymanmi?

Uning ko'zlari yonib, yuzlari yorishib keldi:

- Siz... Siz nimaga ishonub, bunday deyaqsiz?

Men darvozadagi xushro'y ayol - "Opovsi" opani eslatdim.

- O'sha ayol ham kasalingizni "joy"idan deydiki. Siz bir-ikki kun rozilik bermay turing.

- Voy, u kishi aytadilarmi? Taniyman-taniy- man, - dedi kennoyim jonlanib. - Kun ora kirib, so'rab-surishtirub, tansuq-tansuq narsalar ko'tarib kelub, odamni bir hijolatlariga qo'yadular.

- Xo'p desangiz, o'sha opa aytayotgan tabibni izlab ko'ramiz. Yo oyimlarga aytaymi?

- Qaydam... yana Sizni tashvishga qo'yib-a? Tushga nimalar kirmaydu, axir.

Endi men unamadim:

- Bu yogv'ini menga qo'yib bering. Topib kelaman dedimmi, topaman!

Nazarimda men izlasamoq, bas edi, Xudoyim o'zi qo'llaydigandek, o'sha tabibni yo'liqtiradigandek edi. Nimadan bu - o'zim bilmayman. Balki kelinoyimga azbaroyi bir yaxshilik qilgim kelib ketayotganidandir, u yogv'ini o'zim bilmasdim.

- Xo'p, men qaytdim, - dedim axiyri eshik tomon yurib, - Siz duo qilib yoting.

- Maylu, yaxshu boring. Yaxshu daraklar ila qaytung, ilohum, - dedi u.

Kennoyim men ketayotganimni ko'rib, jilla qur-sa, tirsagiga tiralib turmoqqa, turib xayrlashmoq-qa chogv'landi-yu... shu chogv' nimadir bo'lib, daf'atan ingrab yubordi. Va "ix" degancha lablarini tishlab qoldi.

Yugurib bordim:

- Sizga nima bo'ldi, nima qildi, kennoyijon? Aytaqoling, - deb o'tinardim. Qo'rqib ketganim shunchalik!

U sal uzanib ingrandi, o'shal alpazda tizzasini silashgami, uqalashga tutindi. Men nima qilardimni, ustini ochib tashlab, oyoqlariga qarashni ham, yordamlashib yuborishni ham bilmasdim. O'zlaridanmi, kimdan izn kutib javdirardim. Kennoyim esa, rangi qum o'chib, mijjalarning tagidan tirqirab yosh chiqqancha qolgan edi. Nihoyat, qimtilgan lablariga jon bitib:

- Ayting, qarab yuborishsin... - dedi.

Shundagina hamshira chaqirish xayolimga kepti. O'pkamni qo'ltiqib, yo'lakka chopdim:

- Hoy, qizlar, qaerdasiz?..

Mening shovqinimga o'rtadagi xonadan oq xalatlil qizlar yugurib chiqishdi:

- Nima gap, nima bo'ldi?

- Qaray qolinglar, iltimos. - Ular kirishdiyami, men o'zimga kelolmasdim, hatto kirib borolmasdim: Bechora, shunday dard chekib yotgan ekanmi hali? Boshiga tushgan shuncha ko'rgiliklar kam ekanmi?

Qizlardan biri qaytib chiqib, jonsaraklik ila jomu bint ko'tarib hatto kirib ketdi. Nimaga ekan, hech aqlim yetmasdi. O'zim ostonadan o'tolmay turibman. Kirib borishga yuzim chidamayapti. Ustilarini ochib qo'yishgan bo'lsa, nima deb ham kirdim?

Qolaversa, vujudim quloqqa aylangan. Ichkarida tiq etgan tovushga ilhaq turibman. Faqat kennoyijonim sal yengil tortsalar, bas, o'zlariga kelganlarini bilsam, bas.

Hamshira qizlar qanaqa epaqasiz ekanlar, hamon kalovlanib bir-birlarini shoshirishar, "bo'l, opke, ko'tar"dan nari o'tisholmasdi.

Axiyri bir nima jo'mrakdan oqqandek jomga shovullab tusha boshladiyu kennoyim ingrab yubordi.

Hamshiralalar esa ustida aylanib-o'rgilib, taskin berardilar:

- Hozir, opajon, oqib bitadiyu orom olasiz, qutilasiz. Hammasi shu patosniki, shuning ogv'irigv'ini...

Men esam hech vaqoga aqlim yetmay, bir yaradan shuncha patos chiqarkanmi deb, tasavvur eta olmay ichim sidirilib boryapti:

jo'mrakdan oqqandek patos - qanday zardob ekanki, bir yara tagiga shunchasi yigv'ilaqolsa? Do'xtirlar uni kesamiz deb vahima qilishgancha bor shekilli?.. Bu orada sochini ikkita qilib o'rib, orqasiga tashlab olgan boyagi hamshira yugurgilab chiqib, menga urilib ketay dedi. Norozilanib qaradiyu yana ayadi:

- Iltimos, chetroq turing.

Men uzr aytib, ortidan ergashdim.

- O'zlari yaxshimilar, yaxshi bo'p qoladilarmi?..

U oynavand javonni ochib bintu malham izlarkan, tavba, qanaqa haftafahm odamsiz, degandek qaradiyu, o'z ishidan qolmasdi.

Meni battar vahm bosib:

- Har kuni shu ahvolmi? Qaytmayaptimi? U kishiga nima bo'lgan? Ayta qoling, jon singlim, - deb yalinishga tushgan edim.

U endi aftimga qaramayin ham oshigv'ich qayta boshladi. Men unga bogv'lanib qolganday ergashib borardim. Palataga yetmasdan yana o'tindim:

- Jon singlim...

U ichkariga kirib borayotgan joyida - ostonada to'xtadiyu insof qilib qaytdi. Kelib qulogv'imga shivirladi:

- Jarrohlar kesishmoqchi, o'sha oyoqlarini, bildiz?! - U mengami, kennoyimgami achingan kabi aftimga tikilib turib, burilib palataga kirib ketdi.

Oyoqlarini kesishadi? G'alati-ku! Men ahmoq, men pandavaqi yaralarini kesishadi, ochib tozalashadi, deb o'tiribman! Bular ana nima qarorga kelib qo'yishibdi! Yo'q-yo'q! Hecham rozilik berib bo'lmaydi! Boshqa ilojini topsinlar! Zo'r bo'lsalar kesmay tuzatsinlar! Nega kesarkanlar? Axir shuncha sarson-sargardonliklari yetmay, oyogv'idan ham ajraydimi? Biror yaqinidan rizolik olmay turib, qanday kesishadi? Bunga kim rozilik berarkan? Hatto Chaman akaning ham haqqi yo'qdir. Yoki u akamning rizoligini olgani... qidirib ketganmi? Yo alhazar, yonginamizda shuncha voqealar kechib, biz bexabar qolsak. Kennoyim bu ahvolda yotib,

akam u ahvolda - bu diyorlarga qadam bosolmay yursayu, biz yordam qo'limizni cho'zolmasak. Qay kunlarga qolganmiz? Yo dunyo o'zi shunday qurilganmi? Sarsonlik-sargardonliklarning nihoyasi, cheki yo'q etib tuzilganmi?..

- Sizga ruxsat ekan, erta bilan vaqtlroq kelarkansiz.

O'zimga kelib qaragam - boyagi hamshira. Go'yo u najot farishtasidek:

- Iltimos, aytib qo'ysangiz: kesishga rozilik bermay tursinlar! - dedim titrab-qaqshab.

- Yaxshi, - dedi u ham menga xayrixohlik bilan. So'ng burilib keta turib yana to'xtadi. - Aytmoqchi, tabibni axtarib ko'rarkansiz. Tushundizmi?..

Ichimdan bir quyosh chiqqandek bo'lib ketdim: hayriyat, umid tutayotgan joylari bor ekan-ku! Oshigv'ich tashqariga qarab yurdim. Bu xabardan ichim yorishib, qushdek yengil tortgan, hovli sutdek oydin bo'lsa-da, ko'z oldimdan kennoyimning bo'zdek oqargan yuzi, hamshiralarning chopib yurishlari ketmas, qaroqlarim ostida qaynoq yosh aylanar edi.

Ajab dunyo: odamlar yo'qotgan aziz kishilarini topganda qandoq quvonadilar! Men esam, yosh boladek bo'zlab qaytar edim.

"Hasbiyallohu Va Ne'mal Vakil"

Eski Jo'vada shuncha turib, Taxtapul tomonlarga o'tib qo'ymagan ekanman, esiz.

Opa jon kuydirib tushuntirar edilar:

- Taxtapulning suvidan shundoq o'tasizu tushasiz! Tushasiz-da, pastga qarab boravurasiz-boravurasiz. Yarim chaqirim yurmasizdan kichkina jin ko'cha keladi. Buriliboq Tangritogʻ Blik tabibni so'raysiz, vassalom.

Men esam, qani tasavvur qila olsam, o'sha joylarni. Bittasiniyam ko'z oldimga keltirolmayapman. Buni ko'rib, Opa (o'sha "opovsi" opa-da, qorovulxona be-kasi):

- Unda Sevizordan chiqib kelaqoling. Sevizorni bilasizmi? - deb qoldilar.

- Bilganda qandoq! - Men ichim yorishib sakrab ketayozdim. - Boyadan beri shundoq demaysizmi!

Darvoqe, holamgilarnikida turib o'qigan kezlarim orasi ikki qadam Sevizordan (biz toshkentliklar suyib shunday ataymiz, asli Sevizor) beri kelmasdim. Jangobda tanishgan do'stlarim bilan qo'shilib hali Labzakka, hali Beshogʻ Boch ko'lidagi shaxmatxonaga tentiranimiz-tentiragan edi. Yutib qaytgan kunlarimiz o'sha tanti-chapani do'stlarim qo'yarda-qo'ymay (borasan-da o'sha xolanglarnikiga deb!) uylariga olib ketishgani-ketishgan edi...

Aytgan joylari - Sevizorning shundoq biqinida ekan. Tangritogʻ Bdan kelgan tabib o'sha yerga qo'nganmish. To'gʻ Bhirogʻ Bi, hukumat unga o'sha yerdagi Boqchada turishga ruxsat etibdi. Azbaroyi siylaganidan. Men shunday deb tushundim. Ammo bu gap gʻ Bhalati ham sirliroq edi. Shu hukumat bo'ladi-yu, bir tabibga shunchalik izzat-ikrom ko'rsatadimi? Yana kelgindi-muhojir bo'lsa? Tushunish qiyin. Ammo "Opovsi" opa u togʻ Bliq musofirni bir yerga yetib ta'riflar edilar:

- Voy, u kishini ko'rmabsiz, suhbatlariga yetmabsiz - so'zlaridan bol tomib, yuzlaridan nur yogʻ Btiladi! Bunaqa halim odamni uchratmagansiz. Nafaslari bir o'tkir, shunaqa o'qib, dam soladilarki... kennoyingizni ko'rsatsangiz bilasiz. Albatta, boring, shu bogʻ Bni aytasangiz - yo'q demaydilar. Tuz-nasiba ekan, qancha vaqt turganlar bu yerda.

"Opovsi" opa azbaroyi kennoyim uchun qayishib meni qistashini qo'ymasdi:

- Borasiz-a, albatta, o'tasiz-a?..

... Mana, ketyapman, o'sha (onalarimiz ko'pam ixlos qo'yib, bir yerga yetishadigan) azayimxon tabibni izlab...

So'rab-so'rab Makkani topganlaridek, men ham uchragan qoradan o'sha tabibni so'roqlab borar edim.

Axiyri qayrilishdagi do'kon qorovuli - yuzi kepchikday, bujur odam (u qorovulxonasidan darcha ochib, qurut, pista sotib o'tirar edi) qozoqning to'qqiz pulidek qilib, tushuntirib berdi:

- Ho'v anov jin ko'chaga burilasiz. Kirib boravurasiz-boravurasiz, bir oq binoga yetasiz. O'sha - Boqcha. O'shatten so'raysiz, tabib to'ramni. Ha, aytmoqchi, bugun ehson ham bor, chamamda. Odamlar chiqishayotib edi, to'p-to'p bo'lib... tortinmay boravuring.

Qadamim yengil tortib, jadalladim: ishqilib, unasin-da ko'rib qo'yishga.

Aytilgan ko'chaga burilib ham edimki, oldinda po'rim kiyingan bir odam ko'rindi. U qo'ltigʻ Bdidagi bozorchiqni avaylagandan avaylab, u qo'lidan bunisiga olib-erinmas edi. Negadir unga yetib olgim kelib, (nazarimda u ham o'sha tabibni yo'qlab borayotgandek), yana jadalladim.

Borsam, Sultonmurod akamlar tengi bir yigit, lekin do'kondorlardek oxorli kiyingan. Boshida Toshkanni ko'k do'ppisi. (Ko'riboq sezdim: yo puldor, yo savdogar, ikkisidan biri, axir, hamma ham chin-mochinda tikilgan bunaqangi qora kostyum-shimga yetishavuribdimi!) Ammo o'zi ochiqqina ekan, salomimga takalluf-la alik oldi:

- Vaalaykum assalom, okovsi, keling.

Manzirati ham bir samimiy edi. Iyib ketib, yukini ko'tarishib olgim keldi:

- Menga bera qoling.

- Yo'gʻ B-e, ogʻ Birmas, okovsi, odamni hijolatga qo'ymang.

- Beravering, - dedim yaqin olib.

- Unday bo'lsa, maylin. - U yap-yangi, shiqirlab turgan qogʻ Bhoz qopchiqni avaylab uzatdi. - Faqat ehtiyot bo'lasiz, nozuvroq narsa edi.

- Nozuvroq joygami? - dedim tasmollab.

- Topdiz, aytuvli bir odamning ziyoratiga. Ko'pdan otlanardim-u, mavridini topib kelolmasdim. Bugun bozor tushsam deng, otliqqa ham topilmaydigan bir nok turibdi! Shu... bu dunyonikimas-da! Jonivor oltinday sargʻ Bhayib, bol tortib ketibdi. Hidini aytmayisizmi! Gurkiraydi! Shuni ilina qoluvdim to'ramga.

Bitta-bitta yurib gaplashib borayotib edik, kechagi bozorimni eslab, yalt etib yuziga qaradim:

- Shu o'zimizning Eski Jo'vadan-a?

- Ha-da. Bor-yo'gʻ Bdi to'rt kilogina ekan. Nasib-da, nasib, - dedi u ogʻ Bzining tanobi qochib.

Men bosh silkidim: taxminim to'gʻ Btri chiqmoqda edi.

- Demak, har kuni bir xalta-bir xalta optushadi. Ro'zgb Borgia yaragulik qilib...

- Kim? - deb hayratlandi hamrohim.

- Kim bo'lardi, o'sha kampirsho-da, - dedim jilmayib.

- Ha-a, - u tushunib qolib, xandon tashlab kul-di, - demak, siz ham nokiga xaridor bo'lgansiz-da, shundaymi?

- Men besh ketib, kasal ko'rgani olib edim, - dedim rostiga ko'chib.

- Chakki emas, didingiz, - dedi u boshdan-oyogʻ Bimga razm solib.

- Siznikiyam... - dedim men ham bunaqa nokning qadriga hamma ham yetavuribdimi degan kabi.

- O'ziyam jannatning isi kep turibdi-da, - dedi u tushunib. - Hidlab boqing-a. Mening kaftlarimdan gurkirab kelyapganday haligacha, - deb qo'lini iskab qo'ydi.

Men uning ko'ngli uchungina emas, allaqanday sogʻ Bbinib, bozorchiqni dimogʻ Bimga yaqinlashtirdim. Yo qudratingdan! Qopchiq ichidan bol hididan ham o'tkirroq bir hid gurkirab kelar edi. Faqat ertagi handalaklar shunday bo'y taratishi mumkin. Lekin bu qishi bilan dimlab qo'yilgan Toshkentning tosh noki edi! Kimga opkelayotgan ekan? Men esam, quruqdan quruq kelaveribman-da?..

Xijolat chekib qolganimni sezib, u jilmaydi:

- Aybga buyurmaysiz, didimiz bir desam, yo'limiz ham bitta shekilli? Kimnikiga borayotibsiz?

Bu gapdan ichim yorishib, menam lutf qilgim keldi:

- Kim tabib taqsimnikiga, kim - to'ram taqsimnikiga shekilli?

U o'ziga yarashadigan tarzda xandon tashlab kuldi:

- Kim ilm istab, kim shifo istab deyaqoling!

- Kim nazri bilan, kim benazir, - dedim men. - Qabul ham shunga yarasha bo'lmasaydi!

U hazilim yoqib, yelkamga qoqdi:

- G'am yemang, nazir endi o'rtada bo'la qoldi. Ko'tarishib ketyapsiz-ku, axir.

- Shuni ayting.

- Qolaversa, to'ram qo'lga qaramaskanlar. Bo'ladi-ku: nazari to'q odamlar - o'sha toifadan emishlar, - dedi u qosh uchirib.

Har qandayi ham avvaliga shunday bo'lib, keyin qiliq chiqaradi, demoqchi edim, tilim bormadi. Quruq tuhmat qilib qo'yishdan qo'rqdim. Balki chindan maqtashganicha bor, xudojo'ydir.

Bu orada gap bilan bo'lib ancha joyga borib qolibmiz. Hov oldinda bujur qorovul aytgandek, oq bi- no - Boqcha ko'zga tashlanar edi. Unga yopishib tushgan darvoza oldida esa, uch-to'rt odam ko'rinyapti. Ularning ham qulogʻi ichkarida.

- Bemahal kepmiz shekilli, jigar? - dedi sherigim ham ko'zi ularga tushib. U shu boyvachchaligiga menga o'xshab tortinchoq ekan, borish-bormaslikni o'ylab, taraddudlandi.

Bujur qorovuldan eshitganim yodinga tushib, uni qistadim. (Qolaversa, men tabibni ko'rmay qaytib ketolmayman!):

- Nasibamiz ulogʻi ekan, ehsonga ilinamiz shekilli, yuravering.

- To'ramniki tabarruk deb-a?

- Ha-da.

Shu tob darvoza oldidagilardan bittasining ko'zi tushib, bizni kechikkan mehmonlar fahmladi shekilli, peshvoz chiqib, mulozimatla egildi: marhamat, kelavursinlar, qadamlariga hasanot... Ilojsiz yurdik.

Lekin yaqin borib, ichkariga ko'zim tushdiyu allaqanday yengil tortib, qushday bo'lib qoldim: Bu nimadan, o'zim anglab yeta olmas edim. Hovlida mehmonlar uchun tuzalgan joylar allaqachon bo'shab qolgan, endi dasturxon yigʻib ishtirib olinmoqda edi.

Faqat kattakon tut tagidagi yogʻib och karavotda besh-to'rt qariya "suhbati chor - anda maza bor", qabilida ohista gurunglashib o'tirishibdi. Zab paytida kelibmiz!

Qo'limizdagi bozorchiqni ayvon chetiga qo'yib ham edikki, oyoqlari kalta, ammo nihoyatda serharakat bir kishi (u ajoyib tarzda yelka tashlab yurar edi) bizni karavotga yaqin joyga boshladi:

- Kelung, memonlar. Nasiba yetalab keptu. Ehsanimizning savobiga sheruk bo'luvsizlar.

Choy chaqirib, o'zi bir chinni laganda osh keltirdi. Biz yengil ta'zim ila karavotdagi qariyalarga salom berib ulgurgan bo'lsak-da, ularning shirin suhbatlariga halal bermadikmi, deb xijolatda edik. Ammo ular hali-veri turadiganmas, gaplari gaplariga qovushib bir shirin suhbat qurishyapti. edi. Aftidan bu dunyoni ham unutib, o'sha to'rdagi odamning nuroniy yuzidan (yo qudratingdan, o'qish kitoblarimizda rasmini ko'raverib, singishib ketgan o'sha odam - sal bodomqovoq, muloyim kulcha yuzli xazrat tirilib kelib, qarshimizda o'tirganday edilar) ko'z uzmasdilar. U zot ham o'shanday oq sallada, sariq yo'l-yo'l - zar-gʻib haldoq to'nda o'tiribdilar.

Oq oralagan mosh-birinch soqollari xuddi o'shanday kuzalgan, ko'zlari ham jindek bodomqovoq edi. Tavba, odam odamga shunchalar o'xshar ekanmi? Tabib buva shu kishimikanlar yo bosh-qa birovlari?

Men oshga qo'l uzata turib, sekin zingil tashlayotganimni ko'rib, hamrohim qulogʻimimga shipshidi:

- Siz tinglang. To'ram taqsir shu odam.

Men qaytarib so'radim:

- Tabib to'rammi yo To'ram taqsirmilar?..

U bosh silkidi:

- Har ikkisi ham.

Men yengil tin oldim: hayriyat, o'zlari ekan!

So'ng ularga quloq osdim. To'ram taqsir bilan jindek choy ichib, suhbatlarini olishga qolgan mo'ysafidlar bir narsani qistar edilar:

- O'sha voqeani ayting, taqsir, o'sha voqeani. Rost-dan ro'baro' kelganmisiz? O'sha tomonlarda haliyam bor ekanmi?

Men qo'lim oshdayu qulogʻimimga ding edi. Aksiga olib teskariroq o'tirib qopman. O'girilib qarashga bo'lmayapti.

Alohal taqsir qimtinib tin oldilar:

- Ha, endi bir yo'liqqan-da, - dedilar negadir u voqeani eslagilari kelmay.

Qariyalar har chekkadan yana qistashdi:

- O'zizdan eshitgan boshqa-da, taqsir.

- Alloh qanday asraganini ayting, jilla qursa.

O'girilib, to'ram deb atashayotgan tabibga qaradim: qiziq edi aytisi kelinqiramayotgani.

U kishi tizzalarini silab, bu gapga jilmayib qo'yidilar: aftidan, unga qo'shilmagan edilar.

- Bejiz-behikmat ro'baro' etmagandir deng, - dedilar sekin.

Qariyalar hayratlanib bir-birlariga qarashdi:

- Subhanalloh! - dedi ro'baro'laridagi kishi.

- Yo'gʻib-e! - dedi boshqasi.- O'zi ro'baro' etib, O'zi asraydimu?

- Hamma gap shunda-da, - dedilar u kishi.

- Moshaalloh! Shunaqasi ham bo'ladi ekanmi?

- Bo'ladikan, - dedilar to'ram.

Ular bir muddat jim qolib, yana qistamoqqa boshladilar.

- Shuning uchun ham... o'zingizdan eshitayluk, taqsirim.

Hatto biz ham ogʻibimizdagini chaynashdan to'xtagan edik, o'sha narsa bizni-da some etib, qiziqtirib qo'ygan edi. Axiyri u kishi ming istihola ila boshladilar (balki menga shunday tuyulgandir.)

- Tangritoqqa yo'l boshlovchisiz - yolgʻib borishim edi. Dovonga ko'tarilguncha bir-biriga o'xshagan so'qmoqlaru daralarga kirib-chiqaverib, adashib ketdimmi, bilmayman, vallohi a'lam. Sharqiroq soy bo'yiga chiqqanimda birdan shom tusha boshlaganini payqab qoldim. Otni har qancha qistaganimda ham ko'rinish turgan dovonga yeta olmasdim. Bir yoqda shom qazo bo'lyapti, bir yoqda ko'zlagan manzilimga yetolmaydiganman. Alohal otdan tushib, tahorat tadorigini ko'ra boshladim. So'ng ot tizginini bir butaga ilib, xarsang toshlar orasidan joynamoz sigʻib gudek bir joy topib, namozga berildim. - Tabib hikoyasining shu yeriga kelganda tin olib, jim qoldi. U barcha-barchasini aytishga hamon istihola etarmidi yo eslab ketganmi- di, bilib bo'lmasdi. O'girilib qarashga esa botina olmasdim. Kimdir yo'talib, kimdir betoqatlik ila qo'z gʻib olib qo'ydi. Tabib endi allaqanday o'kinchli ovozdagi:

- Yaxshiyam to'xtaganim, - dedi. - Shomning farziniyu sunnatini o'qigunimcha daraga qorongʻibulik cho'kib bo'pti. Besh qadam narini ilgʻib bo'lmasdi. Nega shunday kechdi, yarim yo'lda qolib ketdim, mendan qanday xatolik o'tdiki, deb joynamozdan turmayoq "Asta'firulloh, allazi-mallazi, la ilaha illa huval hayyul qayyumu va atuvbi ilayhi", deb o'ziga istigʻib for aytib, sajdaga

bosh qo'ydimu tavallo eta ketdim: "Ya Rob-bim - Alloh, hammasidan o'zing voqifsan, O'zing ko'rib-bilib turibsan: zimmamga qanday yumushlar yuklanmish. Rozilik berib to'g'ib qildimi, adashdimmi, hikmatini bilguvchi yolg'ib O'zingsan. Agar yaxshilikka yo'ysang - yo'limni och, mushkulimni oson et. Agar nafsimning so'zlariga kirib adashgan bo'lsam, bandaman, O'zing kechir. Kechir-da, balo-qazolardan, yomonliklardan O'zing asra. Hidoyatingni darig'ib tutma, ojiz bandangman. Ne qilay qaytar yo'llarim berkilgan. O'zing najot ber", deb yig'ib lab-tavallolar qilayotsam... birdan orqadagi ot hurkib ketgan kishnab yubordiyu tizginni uzib qochmoqqami, nimaga tushdi. Etimu vujudim vijirlablar ketdi.

Sajdadan bosh ko'tarsam, qay ko'z ila ko'rayki, qarshimda gungursdek bo'lib, bir maxluq turibdi. Olov ko'zlarini uzmay. Bo'ynida yolimi - nima xurpaygan: ayiq bo'lib ayiqmas, it bo'lib it. Ammo avvaliga tanimay turgan ekanman, tanib qolib, etlarim tikka bo'lib ketdi. Butun jonim oyog'ibimdan yerga o'tib ketgandek edi. Beixtiyor payg'ib hambarimiz sallallohu alayhi vassalamni, kuyovlari u kishini haqorat etganda: "Ya Allohim, bunga itlaringni yubor, o'sha bas kelsin", deb duo qilganlarini eslabman. (Keyin uni Shomda arslon yeb ketgan edi.) Yaxshiyam, qo'zga bo'lmaganim, qo'zga bo'lganida tilka-pora qilib tashlarmidi. Yaxshiyam, Allohga tavbalar qilib, istig'ib forlar aytib turgan paytim ekan. Yaxshiyam, namozda ekanman.

Orqayu oldimizdan himoyalab turadigan farishtalar tufaylidanmi, u to'xtab qolgandi, daf eta olmay turardi.

Shu xayoldan o'zimga keliboq Tangri taolaga yolvora ketdim:

- Uni to'xtatgan ham, omonsiz hujumidan asrab turgan ham bir bo'lsa, O'zingsan, ya Alloh, uni daf etguvchi ham, yo'limni ochib berguvchi ham O'zingsan. O'zingga sig'ib inaman, O'zingdan so'rayman. Qutqar bu itingdan. Umrin bo'yi aytganingdan chiqmayin, - derdim. - La ilaha illalloh, hasbiyallohu va ne'mal vakil - O'zingni vakil qildim, - derdim.

Sizlarga yolg'ib on, menga chin. Shu duoni o'qishim-la maxluq bir narsadan hayiqqan kabi irillab tisa-rilaverdiyu so'ng o'girilib, dumini qisganча pastga tushib keta boshladi. Pastda esa soy sharqiragandan sharqirab yotar, ora-chira namxush epkini o'ynoqlab kelib qolar edi, xolos...

O'sha voqeaning ta'siridami, hammalari bir muddat jimib qoldilar. Axiyri bir qariya shu jimlikni buzishga jur'at etib:

- Hikmati ne edi, taqsir? Endi ayta olarsiz? - dedi.

Tabib hov boyagidek, istiholali jilmaydi: savol no'rinligini shundan-da payqash mumkin edi. Ammo tabib qariyani xijolatda qoldirgisi kelmadi:

- Alloh bilguchiroq, qori aka, biz nimaniyam bilardik, - dedi yumshoq tabassum ila.

Bu gapga hamma qo'shilgan edi. Shu tariqa gap o'zani poyoniga yetib, ular dasturxonga fotiha o'qib, o'rnilaridan tura boshladilar. Biz shuncha shoshganimiz bilan qo'l artib, laganni berib ulgurdik, xolos. Qariyalar hovli sahniga tushib ham uzoq xo'shlasha boshladilar. Ularning bu xayr-xo'shlari ham o'zlariga yarashiqli edi. Ayniqsa, bir-birlariga mulozamatu manzirlari, ertaga ko'rishmay qoladigan odamdek (dunyo axir omonat, bilib bo'ladimi, bugun bor odam ertaga yo'q) omonlik tilashlari, quchoqlashib xayrlashuvlari - ham g'iblati, ham ta'sirli edi. Bir so'z bilan ular bir-birlaridan ajrasholmay xayrlashar, shu bahona ham bir-birlariga biron shirin so'z aytib qolishga, bag'ibirlariga tortib, bo'ylariga to'yib olishga tirishar ekanlar, shu so'rashib-istashuvlarini ham g'ibanimat bilib, ketishga shoshilmas edilar. Qolaversa, bu hech kimga erish tuyulmas, qaytaga biz bir chekkada qo'l qovushtirib, havasla kuzatib turar edik. Faqat men bir narsadan taajjubdaman: bu xorijdan kelgan firishtaday odam asli kim? Tabibmi yo avliyo? Qachon shuncha yor-birodar, murid orttirib ulguribdi? Musofir odam shuncha tez singishib ketuvi mumkin ekanmi?

Bu orada mo'ysafidlar darvozaxonadan xo'shlashib chiqib ulgurishdi. Biz kuzatishib chiqishimizni ham, joyimizda turaverishimizni ham bilmas edik. Ammo shu payt boyagi oqsoq tanishimiz qayoqdandir paydo bo'lib:

- Qanu memonlar, marhamat qilusizlar, - deb ichkari qistab qoldi.

Shundagina men xayrlashuvchilar bilan bo'lib, tabibni ko'zdan qochirganimizni angladim. U tahorat yangilagani o'tganmi, hech yerda ko'rinmas edi. Bizni yolg'ib derazali chog'ibroq bir uyga boshlab kirishdi. U hujra bo'lib hujra emas, yarmichasini kovshandoz egallagan, tepada esa sandal ham bor edi. Tanchaga vaqt-bemahal olov solib turilsa kerakki, ustiga yalangqavat bir narsa tashlab qo'yilibdi. Eshikbon mulozim biz kirguncha qizil yo'l-yo'l dasturxon yozib, kattakon girdim patnis qo'ydi.

Ko'rpachalar yig'ib ulgurilmagan ekan, cho'kib fotiha qildik. Devorning bir yog'ibini to'q jigarrang gilam egallagan, bir yog'ibidagi somon suvoqli tokchalarda qalin muqovali, jildli kitoblaru sopol ko'zachalar va ham og'ibni tanobli jajji xaltachalar, zarqog'ibozga o'ralgan bir narsalar ko'rinardi. Choy kirib:

- Ichishup o'tiruvsizlar-da, memonlar, - deya oqsoq tanishimiz chiqdi.

Mening ichim qurishib boryapti. Yana o'zimga taskin beraman: "Men ignani ustida o'tirganimni bular qayoqdan bilsin!" Hamrohim buni sezibmi, jilmaydi:

- Siqilmang, keldikmi, kutamiz. To'ramning shunaqa odatlari bor: tahorat yangilamay bemor ko'rmaydilar.

- Shunaqami?

- Qolaversa, Siz bilan men nima maqsadda kelganimizni kirganimizdayoq bilganlar, shunaqa odam, - dedi u kamiga.

- Yo'g'ib-e?!

- Xo'p deyavering. Har soqqanda bir paqirdan sut beradigan sigirimiz bo'lardi. Bir kun adam uni yetaklab chiqib ketib, shularga tashlab keptilar. Ular musofir, sog'ib ichib turishsa, savob bo'ladi, dedilar. Keyin, - u boyagidek beg'ibubor jilmaydi, - keyin bir kun ajabtovur gap topib keldilar. "Hoy, To'xtaboy, bizga qanaqa sigir berdingiz? Sutini eplab bo'lmayapti. Har soqqanda ikki chelakdan sut beryapti", dermishlar. Ana, taqsirning karomatlari, - deb turib, tirsagimga turtib qo'ydi. - Bu yog'ibini eshiting. Bir kun borsalar, to'ram "Hoy, To'xtaboy, siz sinchi odam, bizga bir sigir obermasangiz bo'lmaydi, sutga o'rganib qolgan ekanmiz", dermishlar. U sigir-chi, debdilar adam. "Ey, uni Usmon devona opketib qoldi: yoqtirib qopti. Mayli, jo'jabirday jon. Bizga boshqasiyam bo'lavuradi", dermishlar. Adam hay, deb bo-zorga tushib ketiptilar. Borsalar bir shopmo'ylov odam gijinglagan otda yo'llarini to'sib turganmish. "Hov, boyvachcha, shu otni qanchaga olasiz?" der emish nuqul sag'ibrisiga shappalab. "Yo'q, men sigirga tushgan odamman, otni nima qilaman", desalar, "Hay, unda bahosini chiqaring" der emish. Keyin dallol chaqirib baholatibdi-da, o'sha yerdayoq birovga sotib, qo'llariga otning pulini tutqazibdi. "Mang, boyvachcha, bu pul sigiringizning sutidan ham halol" der emish. Adam o'sha pulga bozorning oldi sigirini olib chiqibdilar. Uning bitta aybi uch emchakli ekan. Keyin to'ram taqsirnikiga borsalar, "Hoy, To'xtaboy, bizga qanday hosiyatli sigir olib chiqqansiz? Sog'ib sak nuqul qaymoq beryapti... Oling, tatib ko'ring-a", dermishlar.

- Yo'g'ib-e, - dedim men hayratlanib.

Va shu mahal ostonada oyoq tovshi eshitilib, zar-g'ibaldoq to'nning bari1 ko'rindiyu biz shosha-pisha u kishining istiqbollariga turib, qo'l qovushtirdik.

- O'tiringiz-o'tiringiz, o'g'bonlarim. Sizni ham kutdiriyu qo'ydik, uzr. Bugun shunaqa kun ekan: uzoq-yaqindan birodarlar yig'ibilishib, kulbamizni ko'p munavvar etishdi, - deb ma'zurlandilar.

Biz chetlanib, yo'l bo'shatdik. Ammo o'rtadan past bo'yli, salobatleri o'zlariga yetarli kishi to'g'ibri to'rga o'tib keta qolmay (ajab, to'nlaridanmi, o'zlaridanmi, bir ajib mushk-anbar hidlar taralyaptiki) qarshimizda to'xtadilar-da, hamrohimga ochiq yuzla yuzlanib, mayin jilmaydilar:

- Men Sizni qaerda ko'rgan ekanman: yuzingiz buncha issiq? - dedilar.

- Balkim-balkim, - hamrohim qizarinqirab o'zini tanitdi, - men To'xtaboyvachcha akaning o'rtanchalari.

- Ey-y, Sinchiboyni-ya?! - deb qo'lini qo'yib, yana ham yaqin keldilar-da, ikki betidan kaftlari ila tutib, peshonasidan o'pib qo'ydilar. - U kishi olib bergan sigirlarni, bizlarga qilgan yaxshiliklarni unutib bo'ladi-kanmi?! O'zlari omonmilar, uy ichilari bilan? .. Bilmasakanman, Alloh shunday kelishgan-kelishgan farzandlar ila siylab-quvvatlantirib qo'ygan ekan Sinchiboy oshnamizni...

Bugun ko'rinmadilarmi, baxay?

- Sayramga ketishib edi ikki-uch oshnalari bilan, - deb javob qildi hamrohim.

- Unda uzrli, uzrli. Sinchiboy oshnam aytilmay qolibdilar, deb bolalarni tergap bir yerga yetib turib edim: yaxshi, nasiba qo'shgan ekan, mana, Xudo sizni yetkazibdi. Eson qaytishsin, - deb bir qadam tashlab, mening kaftimdan tutdilar. Kaftlari bir yumshoq, bir mayin edi, tavba. - Siz bo'tam, xush kepsiz dargohimizga, qiynalmay topib keldingizmu?

Ichimdan bir olov chiqib, peshonamga dovur jimirlab ketdi: "Qayoqdan bila qoldi, bu odam?" deya hayrat-la boqdim.

U kishi bizga o'tirishga izn berib, o'zlari deraza tagiga - to'rga cho'kkaladilar-da, fohiga qo'l ochdilar:

- Iloho omin, dardmandlarga o'zing davo berib, ilm toliblariga o'zing ilmu rabboniyingdan yetkazgil...

Men-ku, men, hamrohimga qarash, hayratdan taxta bo'lib o'tiribdi. Tabibning tasbeh tutgan qo'llaridan ko'z uzolmaydi.

- Xo'sh, boyvachcha, yoki adangiz biron yumush buyuribmi edilar, bizga tegishli?- dedilar nihoyat zangori duxoba yostiqqa suyalibgina va ma'noli jil- mayib.

Boyvachcha javobga oshiqib, odobli mullavachchalardek cho'kkaladi:

- Yo'q-yo'q, to'ra pochcha, buyurmab edilar. Men o'zim... Sizni bir ziyorat etgim kelib... - deya yamlanib yerga qaradiyu behojat tizzalarini silashga tutindi.

To'ra pochcha (boyvachcha kalovlab qolgani bilan topib aytgan edi: bu nom u kishiga yarashib tushgandi) miyig'iblarining tagida jilmayib, tutanga kelib-kelmaydigan, bir chiroyli kuzalgan mosh-birinchdan oqroq soqollarini (u quloqlarining yumshog'ib tagiga qa- dar cho'zilib borgandi) yengil tutamlab-silab qo'ydilar. Bu jilmayishdan yuzlari yana ham nurlanib ketgan edi.

- Ziyorat talabindami va yo ilm talabinda? Tortinmay aytavering, boyvachcha?

Hamrohim bu gapdan cho'chib tushib, duv qizargan edi. Xijolatga botib, dedi:

- To'g'ibrisi, ko'pdan huzuringizga kelmoqni ixtiyor etardim. Bugun yurak yutib...

- Yurak yutganingiz yaxshi bo'пти, boyvachcha. Biz ham Sizni ko'pdan orzilab kutardik.

Boyvachcha u kishiga yalt etib qaradi:

- Kutardingiz?

- Alloh shohid, - dedilar to'ra pochcha bosh silkib, - tashna qalblar o'zi ayon bergay.

- Demak, hujrangiz eshigi...

- Ochiq. Kelguvsi haftadan kelaverishingiz mumkin.

- Rahmat, to'ra pochcha, - Boyvachcha yukungudek bo'lib engashdi va u zotning to'nleri etagini oshig'ibich yuzlariga surtdi.

Ammo to'ra pochchaning yuzlariga bir nima soya tashlab, yukinguvchining yelkalariga ohista qo'l yubordilar:

- Turing, bo'tam, shusiz ham olgayman Sizni. Qolaversa, banda bandaga emas, Allohga yukungay. Shu yarashadi bizga...

- Uzr, azbaroyi men mutaassirlanib... - boyvachcha qaddini ko'tarib, qo'llarini ko'ksiga bosdi. U xijolatdan kichkina tortib, yerga singib ketishga ham tayyor edi. Men esam...

Men esa, bir chekkasi hayrat barmog'ibimni tishlab, bir chekkasi qaeraga kelib qoldim deb hayronu lol o'tiribman. Tabib deyishgan edi, kim bo'lib chiqyapti?

Bu orada u kishi mening holatimni sezgan kabi bir qur nazar tashlab, tashqariga ovoz berdilar:

- Ro'zioxun?..

- Labbay, taqsirim, - ostonada yelkasiga chorsi tashlagan boyagi oqsoq odam ko'rindi.

- Ertaminangi... tayinlu joydami?

- Tayinlu joyda, taqsur. Olayinmu?

- Oling.

Ro'zioxun kovshandozga yechinib, maxsichan ikki yonga yelka tashlagancha tokchaga yaqinlashib, uning o'rta qavatiga uzandi-da, qiynalibgina ko'za ichidan bir nima ola boshladi. Unga yordamlashgani turgan joyimda u zar qog'ibozga o'ralgan bir nimani olib ulgurib, o'girildi.

- Rahmat, jiyani, bezovta ettum siznuyam...

To'ra pochcha uni girdim patnis ustiga qo'yib, oxunga javob berdilar. Men joyimga cho'kdim. Shundan ke-yingina u kishi Ro'zioxunni uzoqlatib, menga ochiq, yuz-la qaradilar:

- Siz adashmasam, uzoqdan kelyapsiz?

- Ha, uzoqdan, Qang'ibli tarafdin, - dedim men gapning bu tarz ko'chishiga hayron qolib: hali, muxbirsiz, gazetda ishlaysiz deb qolmasaydi.

- Shu o'zimizning Katta Qang'iblidanmi? Cho'lpon otadan o'tib, Achchiga ketavurishdagi? - kutilmaganda u kishi hayratlanib, qo'z'g'ibolib qo'ydi. - Ko'p qadim mavze, tarixi uzun joylar-ku...

- Siz u tomonlarni bilasizmi? - deb yuboribman.

- Nega bilmay? Ota yurtlarning isini yodga tushirdiz. Atay orzilab borganman. Qang'ibli Bolasog'ibun, Tarozilardan qadim bo'lmasa ham o'shalarga yaqinlashib boradi, bo'tam. Tarixda o'tgan Qang'ibli davlatidan bir xotira bo'lib, yashab qopti. Shungada, shukr.

- To'g'ibrisi, men bundanam uzoqdan, o'sha Sizning diyorlardan kelib qolib, og'ibir dardga yo'liqqan bir mushtipar-musofirni deb... kelib o'tiribman. Sizdan najot istab kelganmiz, - dedim.

- Kimingiz bo'ladir u kishi? - dedilar yana ham sinchkovlik ila.

- Kennoyi bo'ladilar bizga.

- Hozir qaerda u mushfiqa? - U kishi yana ham mutaassirlana boshlagan edilar.

- O'sha o'zingiz bilgan bog'bdagi shifoxonada, - dedim men tomog'binga bir narsalar tiqilib kela boshlab, - tezroq bir ilojini qilmasangiz, oyoqlarini kesishmoqchi ekan.

To'ra pochcha (ajab, bu gapdan yengil tin olib) duxoba yostiqa suyaldilar:

- Xayriyat, - deya pichirlaganday tuyuldilar menga. Nega, hech aqlim yeta qolmasdi. Axiyri o'sha suyangan ko'yi, ko'zlari yumuq holda:

- O'sha, undan bo'lak emas, - deb shivirlar ekanlar, men yoqa ushladim: qaerdan tanimoqdalar? Ko'rmay-bilmay turib, tanimoq mumkinmi ekan?

Men o'zimga kelguncha u kishi qaddilarini rostdililar:

- Kecha xovfimda ayon berib edi, tizzasiga suv yig'ibilgan ayol. O'shami?

Men taxta bo'lib qolgan edim: bu qanday sinoat, bir vaqtning o'zida ham kennoyimnig xovfida, ham bu kishining xovfida belgi berib tursa?

Men javob berishga majolim kela qolmas, kelsayoq "topdingiz, o'sha!" - deb yuborishga tayyor bir holga tushgan edim. U kishi bo'lsa, boyagi girdim us-tidagi zarqog'bozga o'rog'ibliq narsani olib uzatgancha, bir nimalar deb tayinlayaptilar-u, qani qulog'binga kirsam, o'lsin agar eshimsam! Shunaqa merovlanib qopman.

Bir mahal qulog'binga shang'billab kelib, ochildi uning so'zlari oqib kira boshladi:

- ... Shuni qaynatib, har to'rt soatda bir piyoladan ichsinlar, uch kunda taqa-taq to'xtaydir va oyoq bosib ketadirlar. Kesishga zinhor-bazinhor ruxsat etmangiz... Bu qanday karomatgo'y ekan, demang, Xudo xohlasa, biz bir sababchimiz, xolos. U yog'binga "Has-biyallohu va ne'mal vakil" - Allohni vakil qilganmiz! O'zi o'nlagay, inshaalloh.

Men xursandlikdanmi, yo hozirgi ko'rgan-kechirganlarimdanmi o'zimga kelolmasdim. Vaholangki, kenno-yimning oldiga qanot chiqarib uchsam kam edi.

Sirli Tashrif (yoxud hikoyachiga qorong'bu, bizga ma'lum tashrif va tarixlar)

Ro'zioxun hali barg yozib ulgurmagan balx tut tagidagi yog'boch karavot zinasida ko'klamgi o'ftob xush yoqib mudrar, qo'shni boqcha hovlisidan kelayotgan bola-baqralarning ovozlari ham go'yo tushdagidek allalab borardi. Shu o'tirishida qay bir yoqandir bodroq isini olib kelayotgan g'bir-g'bir epkinlar ipak ro'molda-yin yuzini siypab o'tib, o'zi tug'bilib o'sgan tomonlarning tinmag'bur shabbodalariga o'xshab ketar edi. Bu yaqin-atrofdan ham o'shanaqa tog'bu yoxud soy bormikan deb, eslamog'ga tirishar-u, hech eslay olmasdi. Ammo tepadagi tutda bir gala chmchuqlar uchib-qo'nib, toza bozor qilishyapti. Hali tut endi ko'kzirak taqdi, mevasi oq marvaridday oqarmay turib shunchalik, tut pishig'vida Xudo to'zim bersin ekan bu chirqildoqlardan. Shu mahal chumchuqlar gurra ko'tarilishib eshik taqilladi hammayoq suv quygandek jimidi-qoldi. Hatto bolalar boqchasidan miq etgan tovush chiqmas-di.

Sal o'tib, darvoza zulfini oshig'bhich shiqirladi:

- Hoy, kim var? Hozir to'ram shatta turuvmi- lar?

- Turuvlar-turuvlar.

"Bularning keluvi ko'p ekan, so'rovi ko'p ekan, jilla qursa, shu bugun tinchirman desam"... - U oq chorasisini izlay-izlay karavot panjarasidan topdi-da, yelkasiga tashlab, to'ng'billay-so'ng'billay darvoza tomon jildi. Yelkasi past-baland tushib, go'yo ikki tomonga salom berib borarkan, bu xizmat unga osonmasligi shundoq ham ayon bo'lib, chaqirgan odam ham xijolatda qolar edi. Ammo bu gal tamom boshqacha chiqdi.

Zanjir shiqirlab tushib, darvozaning bolacha eshigi lang ochildi shundoq uning qarshisida qo'llariyu oyoqlari uzun-uzun, o'zi naynovdan naynov, sap-sariq (hatto qosh-kipriklariga dovur oq-sariq, burniyu peshonasi, ikki yuzi qontalash-qizil) ayiqdek odam paydo bo'lib, lapanglab, quchoq ochib kirib kela boshladi:

- Ibi, axun, hay-hay, tapushgan jayumiz ko'rung. Haziq to'ramning astanasini qo'riqdar yatiyur ekansiz-da?..

Ro'zioxun bu tasqarani (chindan ham darvesh bo'lib darvesh emas, gado bo'lib gadoning bir g'baroyib kiyinib, bu tarz kelishi qay aqlga sig'ibadi? Esi bor odam shu ko'klamdan peshonasini tang'bib, oq yaktak ustidan ilgan jun shinelini beliga bar urib oladimi? ! Yana oyog'vida qizil etik!) daf'atan tanimadi. Qaerda bir ko'rgandek-ku, hech eslay olmayapti. Ammo osh-qatiq bo'lmagani aniq. Qo'lidan bir piyola choy ichganda ham... eslarmidi.

Bir ko'ngli peshvoz yuraverib, yo'lini to'smoqchi bo'ldi-yu (har bitta qalang'bi-qasang'binini ichkari qo'yaversa, tabibning tabibliqi, ichkarining ichkariligi qoladimi!), ammo ulguradi. Qaysi dashtdan tushgan ekan bu Davongir dev darvoza bolachasini enlab, beso'naqay oyog'binini ichkari tashlab ulgurgan edi. Darvoza esa lopillab borib-kelyapti.

- Hay-hay-hay, muncha qamalup olmasanguz, axun? Barakalda-barakalda!

Ro'zioxun noiloj chetlanib, qo'l qovushtirdi: keling demasa, qayoqqa borardi?!

Devning rapidaday kaftlari orasida uning qo'llari yo'q bo'lib ketdi. (Yaxshiyam quchoq'biga olmagani, ezib-netib qo'yuvi ham mumkin edi, bu beso'naqay. Isiriqchi chollarga o'xshab, egnidan isiriq hidi bir gurkiraydiki, tavba).

- Tanimutsiz-a, axun? Ammo man bir ko'ruvdayaqtanup-bildum. To'ram taqsurning xos xizmatchilarini ashunday tasvirlashup edu.

Ro'zioxun sergaklandi: g'bir begona ekan-ku, yana yaltoqlanishiga o'lasanmi! Manziratidan qo'rqqulik...

- Keling, Sizga tabub kerakmu? - dedi, ha desayoq qaytarishga og'biz juftlab.

- To'ram taqsur tangrutoqliklarning qiylasu- day gap. Hama qochgan-quvgan qaerga borsun, shu kishiga bash urup kelur-da, - dedi u niyatini aytib qo'ya qolmay.

- Qiylasu dep kim ayttu? - dedi Ro'zioxun qayoqdagi gapni aytasiz ma'nosida. - Taqsur bir tabub, xalas. Adamlar shufu izlap keladu.

Sariq devning tiliga tushov tushib, bir dam tek qotdi. O'q mo'ljalga tekkan edi. U so'z tanobini yo'qotib, zo'raki iljaydi:

- Pirni pir, avliyani avliya deymiz-da, o'tag'bbasi,- dedi ixlosi jo'sh urgan kabi, - qolavursa, u kishim o'shaqning imom Shomiliday adam.

Ro'zioxun bu yaltoqi shang'binini ichkari opkirmasa, opkirib miyasini joyiga tushirib qo'ymasa (har narsanu valdirayveradimu odam!) bo'lmasligini anglab, tut tagiga qarab yuraverdi. Karavotga opchiqmagani taqdirda ham o'shatdagi kursiga o'tqazib, o'shatdan nari jo'natadi. Jo'natganda ham ikkinchi kelmaydigan qilib, jo'natadi.

Lekin bu dev g'balati edi: anqov desang anqov emas, ichdan pishgan - quv desang, quv emas. O'zini go'llikka solib, nuqul bir

narsalarni ang-shanglaydi.

Ro'zioxun uni o'zi mo'ljallagan joyga omonatgina o'tqazib, qalpoq ostidagi choynakdan choy quydi. Gapni kalta qilish maqsadida boyagi mulozimatidan nari o'tmadi:

- Eshitung, memon? Agar taqsurimga kegan bo'sangiz, u kishim bu hafta bo'lmaylar, safar ketganlar,- dedi atay, ichida esa, yolgb'on so'zi uchun istigb'for aytar edi.

Mehmon ishonqiramay elt etib qaradi, so'ng iljayib (balki yaltoqlanib desa to'gb'ri bo'lar), buning ko'zlariga tikildi:

- Balkim, Siz bilan-da, ishumiz putaverar? Axur, keldi-ketdu, javap-muomalalar Sizens putmas? - u hovliga alanglab olib, ovozini pastlatdi, - qolavursa, u kishimga yukinup kelguvchilarnu kim ham sizcha bilsun?!

- Xo'sh? - dedi Ro'zioxun uning niyatini fahmlab. Bunga sari ichida bir gb'hashlik uygb'onib bo'lgan edi: "Aytuvdim-a, nega buning turqi xunuk dep?.. Ishqilup oson qutulay"!..

Mehmon qo'lidagi choyni bir ho'plashdayoq tugatib, yuzini kafti-la ishqaladi. Piyola tagila tizzasini ezgb'ilab, unga tikildi.

- Biz bir adamning ajizasun izlayurmiz...

- Tushunmadum, - dedi Ro'zioxun, buning bizga qanday daxli bor, degan kabi yelka uchirib. Chindan ham qiziq-ku buning gapi!

- Bilasizmu, axun, o'sha qach-qach, chap-chap-da...

- Qaysu qach-qach?.. - deb anqovsiradi u baloday tushunib turgan bo'lsa-da...

- Qaysi bo'lurdu, inqilap to's-to'si-chu? Hama bash alip qayoqqa qachiptu! Baturdayn ajizasuni aytvaturman.

- Qaysu batur? Qanday baturni aytasuz?

- Taqsirum bilarkanlar. Yanlariga chaqirtirup ham almaqchi ekanlar-ku, axur.

- Men bilmasam... - Ro'zioxun bosh chayqadi, - Xuda shahid, biz kichkina adam, bu xil gaplardan bexabarmiz.

Shu gapi nasha qilib, sariq dev qo'llarini yozib, o'zi "huv-huv"lab kuldi.

- Oling-a! U tarixlarnu kim vilmaskan! U Baturlarnu kim tanumagay! Qaysi vo'lurdu. Shu yaqlardan-o'tup varganchi...

- Xo'sh? - dedi Ro'zioxun noiloj.

- O'shaning ahlu ayoluni izlayurlar. - Keyin azza-bazza qulogb'i ortiga engashib, shivirladi. - Tapganga cho'ng mukopat var, ha! Ro'zioxunning ko'ngli agb'bdarildi. Sariq dev umrida ogb'bzini chaymagan, betahorat odammidi - nafasidan dumogb'i yorilay dedi.

- Baturdayn ko'zi qayaqda ekan? Axir qancha yil kechtu! - dedi o'zini nari tortib.

- Kechtu-kechtu, lekin... u yagb'hini kim vilsun, endi izlap qolishi, - deb yelka qisdi.

- Kim? Baturmi yo?. - Ro'zioxun atay "do'stlarimi?" demadi, shunga urgbu berib. Ammo sirli tashrif bilan kelgan mehmonning yuz-ko'zlarida qilcha dovdirash yoki vahmni ko'rmay hayron qoldi.

- Izlashoptu-da ishqilup. Balki ayolning xeshlaridur, - dedi u. - Lekin suyunchisu... o'zingiz tugul ikki pushtungizga yetguli, axun, - dediyu otdek pish-qirib, aksirib berdi. Orqasidan "haqqas rast" deb qo'ydi. Ko'rinib turibdi, musulmonchilikdan chiqib, nafsining orqasiga tushib ketgan bir odam; na al-hamdulillohi bor, na shukri. Shunday ham bo'luvi mumkin. Lekin uni-o'zini merovlikka solib, o'smoqchilab yurgan tingchilarnas, deb kim ayta oladi? Qarindoshlari izlasa, shunchaki so'roqlatib qo'ya qolmasmidi, oraga allaqanday mukofotlar tiqmay? Bunda bir sir bor.

- Ular shu qadar siymu zarga bay ekanlarmu?

- Vilmasam-vilmasam, - deb bosh chayqadi Sariq dev uzundan-uzun qo'llarini yoyib. - Lekin suyunchisu tayun - ishanchluy, axun.

- Yaxshi, xavarlashib turuvimiz, - dedi Ro'zioxun yelkasiga tashlagan chorsuni olib, chir aylantirganicha beliga bogb'lashga tutinib.

Shu bilan u mehmonga qaytishga ijozat bergan kabi bir harakatga tushgan edi.

Sariq dev ham gap tugaganini anglab, haligacha kaftidan qo'ymagan piyolani karavot panjarasidan oshirib, samovar pantisga qo'yishga chogb'lanarkan, shu bahona hovli sahniga, undan tepa tomondagi uylarga razm soldi. Buni ko'rib, oxunning ichi shigb' etdi: "Nima bala, shu yerda panah tapgan deb o'ylaydu shekilli bu tasqara? Yaxshiyam to'ram var paytlari kelmadu". Va shu barobar tezroq dab bo'la qolsin deb, beodoblik bo'lsa-da, yuziga fotiha tortdi. Dev ham majbur qo'zgb'holdi.

Ular mulozamat-la xo'shlashib chiqisharkan, darvozaga yetganda Davongir dev mishillab beso'naqay qayrildi-da, Ro'zioxunning tirsagidan tutganicha kissasiga bir nima tiqishga urindi:

- Endi, axun, o'zungizdan qalur gap yo'q, xavarlashup turuvimiz. Meni Kallaxanadan so'riyursiz, go'sht vazardan. Dal saruq desangiz alam taniydu.

Dol sariqligini bilgani yaxshi bo'ldi, ammo bu tiqishtirayotgani nimasi ekan? Ro'zioxun kissasiga qo'l solub edi, barmogb'iga zirakmi-taqinchoqqa o'xshash bir imiq narsa ilinib, gb'balati bo'lib ketdi.

U silliq narsa barmoqlariga bir muddat xush yoqib turib, esi ogb'ib borayotganini o'zi ham sezdi-yu, cho'chib sergak tortdi: "nima bala, halutdan avrab satup aluttimu?!".

Shu barobar kissasidagi haligi silliq narsa - dumi gajak bir nimarsaga aylana borib, jon holatda uni changallab oldiyu egasining rapidaday kaftlariga tiqishtirishga urindi.

- Viradar, ittimos, shusiz gaplashayluk, - dedi titrab-qaqshab.

Dol Sariq bir oyogb'ini tashqarida, bir oyogb'ini ichkaridi ekan, unga tushuniksiz tikildi:

- Vunisi fiysabillah, hamur uchudan patur, axun.

Ammo Ro'zioxun (qanday banda ekan!) bosh to'lgb'aganicha uni yelkalaridan itarib, chiqishga qistar, birrov yuz-ko'ziga qarab qo'ymas edi.

Duванaning Qilgan Ishi (yoxud yo'qolgan sigb'indi)

Haligina boshim osmonda, mendan xursand, mendan ommadli odam yo'q edi olamda. Agar o'sha tobda ko'k yuzini tutib, magb'ribdan mashriqqa ko'chib yurgan devdek-devdek bulutlar ayqashib-uyqashib, togb' dara- laridek guldirab, chaqinlar chaqib, olatasir jala quyib bersalar, parvoyimga ilmasdim, qochib qo'ymasdim. Ignadek quruq joyim qolmasa-da, xuddi yangi bo'lgan jinnidek, yalangoyoq-yalangbosh ko'cha o'rtasidan suv kechib, dimogb'imda bir ajoyib kuylar kuylab kelaverishim mumkin edi.

Ammo ko'klamning huvillab-izgb'igan shamollari o'sha devdek-devdek qora bulutlarni ham Tangritogb' tomonlargami - qayga quvib, tashlab keldilar. Na qaldirab-guldiradi, na ayqashib-uyqashib, ko'zyosh to'kdi: qaytaga shishadek bir tiniq, lojuvard osmon yuz ochdi. Quyosh charaqlab, zarrin nurlarini sochib, yangi nish urgan maysalardan kurtaklarga qadar - barchasidan o'pich ola

ketdi. Zarhal o'pichlar... bu o'pichlardan har bittasi yayrab-yashnar, quvvat olardi. Hatto qushlar ham shahar moshinalarining gʻbʻuv-gʻbʻuvlariyu odamlarning kezinishlariga parvo qilmay, chah-chahlar, o'z tillarida bijirlab-chuldirashdan charchamasdilar. Shahar ko'chalari demay (balki dalaga yaqinligidandir...) yo'lkalarda Sulaymon paygʻbʻambar elchilari - xudxud qushlar ko'rinar, osmoni falakdami - juda tepada to'rgʻbʻʻayqush xuddi qirlardagidek tinim bilmay chuldirar, ko'klam quyoshidan mast, uning nurlarida argʻbʻʻamchi uchardi.

Ba'zan quvalashib dumi eshkak olaqanotlar, qar-qunoqlar uchib o'tib qolishadi. Ularni ko'rib, Kattabogʻbʻʻni sogʻbʻʻinib ketdim. O'tmaganimga qancha bo'ldi, hammasini surib bitirishmagandir, toptalib ketmagandir-ku hammasi? U yerga ham qushlar tavofga kelishgandir? Turnalar bo'zlab-bo'zlab, gir aylanib uchishmoqdadir? Taniy olmay u soylarni, ovloqlarni?..

Hammasidan burun men eski hovlimizga o'tishim, uylarimizni surib tashlamaslaridan anuv narsani topib qo'yishim kerak. "Nasib etsa, bir kun qaytararsiz, etmasa..." deb ko'zlari gʻbʻiltillab, iltijo qilishidan... akamdan umidini uzmagani. Axir bir kun topib kelishiga yo oldirib ketishiga ishonadi. Ammo men bir narsaga hayronman: shunchalik ekan, nega biznikidan bosh olib ketdi? Akamni kutmadi? Axir, bir chiroyli o'tiruvdi-ku? Nima ro'y bera qoldi? Nima uni majbur etdi bu sarson-sargardonliklarga? Nomusmi yo or? Yozgandir-ku, axir. Qolaversa, tomlari ochib tashlangan u vayronadagi xatlar o'zi turibdimikan? Haligacha tasavvur eta olmayapman: o'rta tokcha takkinasidagi u paxsa devor ichiga qachon ari in qo'yib ulgurgan ekan? Qishi bilan qor-yomgʻbʻʻhirlarda nima bo'ldikan? Ivib-bitmadimikan? Yolgʻbʻʻiz najot Oллоhdan! Ko'ngli yarimta bir musofirning ohu zori bitilgan xatlarni u asramasa, kim asraydi? Umid O'zidan. Qolaversa, bugun omadim chopib, hamma ishlarim o'ngidan kelib turibdi: Sevzor tomonga o'tib, O'povsi opa aytgan tangritogʻbʻʻlik tabibni (kennoyimning tushlariga kirib yurgan o'sha Hizr nazar qilgan qariyani) topdim. Bergan dorusini yetkazib borib, bir choynakka damlab, ichirib ham keldim.

Kennoyimdan burun O'povsi opaning alqab bir yerga yetganini ko'rsangiz. "Baraka toping. Savobga qoldiz. Oллоhim, yaxshilik qilsang, bir mazlumga qil, bir musofirga qil, bir bemor-mushfiqqa qil, degan. Siz bir yo'la hammasining savobini oldingiz", der edi. Men esam, xijolatlariga botib ketyapman. Qilsam, kinga qilibman? Jondan aziz kennoyijonim-ku.

O'povsi opa shunaqa tinmagur girgiton ayol ekan. Bo'lmasa, kennoyim kim unga? Ustida shunday o'lib-qutilyaptiki...

- Voy, men nima devdim, Mahfuzaxon? Mana shu Xudoning yorlaqashi! Namozlarni qo'ymay o'qiganingiz sharofati! Xudo xohlarsa, hali hech narsa ko'rmaganday bo'lib ketasiz. Jujugʻbʻʻingizning to'ylarini ko'rasiz. Kelinlar tushirasiz. Qaynona bo'li-ib o'tirasiz. Xo'b deng...

Uning niyati, tilaklari o'ziga o'xshab bir ajoyib edi: yorishmagan ko'ngilni ham yorishtirib yuborar edi.

- Aytganlariz kela qolsun, ilohum, - deb shivirlardi kennoyim, yana kamiga jilmayib, kishi bilmas mijjalarini kafti ila artib qo'yardi.

So'ng menga javob berishdi:

- Endi boraqolung, qaynujonum. Manu deb, shuncha qolub ketdingiz, Kichikoyum xavotir qilub o'tirgandurlar, - dedi u.

- Oyim o'rganib qolganlar, ishim shunaqa-ku... - dedim.

- Shunday bo'lsa ham... - dedi u ko'p xursand bo'lib. - Mana, opa borlar, dorungiz bor. Inshaalloh, ichub tursam, oyoqqa turub ketgayman. Dorumas, malham ichkanday bo'ldum. Yoqdu, ishoning...

- Em bo'lsin, - dedim.

- Agar malol olmasanguz, bu yoqqa bir kirib o'tsanguz. Ikki kundurki, uydin tinch emasman. Yodgorim ko'z oldumdan ketmaydu, - dedi O'povsi opa chiqqanidan foydalanib.

- O'taman. O'tmay qayoqqa boraman! Qolaversa, unga va'dam bor.

- Va'dangiz?..

- Ha-da. Men uni dalamizga opketmoqchi, varraklar yasab berib, o'ynatib kelmoqchi edim.

- Voy, shunaqamu? - deb u tirsagiga tiralib turib o'tirarkan, ogʻbʻʻriqlarini ham unutilib, bir gʻbʻʻhalati tikilgan edi. - Halu... aka-uka tutinub olduk, deng?

- Bo'lmasa-chi!

- Unda maylu... Surib tashlamaslarudan olib chiqing, ko'rib qo'ysun, bilub qo'ysun u yoqlarni! Ko'rib olsun buvalarinu yurtinu.

Olmazorlarnu... Sultonmurod akangizning tillaridan tushmas o'sha Yakkabogʻbʻʻu Murjumonlarnu, qaroqlariga joylab olsun.

Ajab, bu xabarni eshitib, u quvonib ketadi, desam... tovshi ham, o'zi ham bir gʻbʻʻhalati o'zgarib bormoqda edi: qaltiraydi nuqul.

Ko'zlarida esa, jiqqa yosh aylana boshlagan. Aylana boshlagan-u, sezdirgisi yo'q. Ammo kipriklari qilt etsayoq, so'lgʻbʻʻin shaftoli guliday yuzlaridan duvillab chopqillay ketadigandek edi.

- Istasangiz... hoziroq o'tib ola ketaman! Buvining roziliklarini ham olib qo'rganman, - dedim bir qadam yaqin borib. - Shuni istaysizmi?..

- Anuv ulamasoch to'qoldan har narsanu kutgu- luk... - kennoyim birovning gʻbʻʻbiyatiga tili aylanganidan xijolatlariga botib qaradi.

Asal uni sigʻbʻʻdirmay qandoq kutkilaganlarini tasavvur etib, ichim achidi.

- Ko'rdim-ko'rdim, o'sha... qoqshoqni, - dedim shoshib. - Ammo xotirjam bo'ling, Yodgormurodni unga tashlab qo'ymaymiz.

- Xudo xayringiznu bersun. Yodgorumni Sizga, Sizni Xudoga topshurdum, - deb alqadi u.

- Xayr, yaxshi qoling, - dedim hech ketgim kelmay.

- Yaxshi boring, - dedi u shirin im qoqib...

Men shifoxonadan ana shunday yengil tortib chiqqan, endi ularning Kalkovuz bo'yidagi o'sha panoh topgan joylariga oshiqib borar edim. Kun peshindan ogʻbʻʻib qolibdi. Hali bu yerdan Yodgorni olib, Kattabogʻbʻʻga o'tib borishim, eski hovlimizga kirishim kerak. Qolaversa, tokcha tagidagi anuv omonatni topishimiz, so'ng Yodgortoyga Kattabogʻbʻʻniyu Olmazorlarni - buvalarining yurtini ko'rsatishim kerak. Kennoyim shuni orzulagan ekanlar - bemor odamning rijosini yerga tashlab bo'ladimi?

Ostonasining tagiga xarsangtosh yotqizilgan o'sha yakka tavaqali eshikni mo'l borayotsam, vo'jab, ko'cha adogʻbʻʻidagi anuv daraxt bir gʻbʻʻhalati so'ppayib turibdi. Qanday desam ekan: qaytaga ko'klay boshlagan boshqa daraxtlar oldida allaqanday ayrilib, moxov tortib qolgandek edi. Xuddi boshqa olamdan kelib o'tqazib ketiishgan-u, bir qora voqealarning shohi-di - alomatidek bo'lib turibdi, tavba. Uni ko'rgandayoq ichim xunuk shuv etdi. O'zim esa to'xtab qolayozdim. Nega, hech tushuna olmasdim. nima ro'y bera qolib-diki?..

Ichimga oralab ulgurgan gʻbʻʻulugʻbʻʻulani zo'r bilan bosib, eshikka qarab yuraverdim. Tosh zinaga ko'tarilib, itarsam... hamisha ochiq turadigan eshik berk. Yuragim battar toshdi: nega berkitib olishibdi ekan?!

Endi chaqirishni ayting! Qanday eshitishadiyu kim chiqadi?! Yana o'sha Zaqqumoy - chimirilgan qoqshoq ochadimi?!...

Men uni ko'rish tugul, ro'baro' kelishni istamasdim. Yuragim allaqanday bezillardi, tavba. Nima qilarimni bilmay alanglab tursam, eshikning tepa beldamchasiga qistirig'v'liq bir narsa turibdi. Birov ko'rib-ko'rmaydigan joyda. Olsam, eski botinka ipiga bog'v'liq cho'p. Demak, zulfing yaqinida kishi bilmas tirqishchasi ham bo'lishi kerak.

Aqlimdan aylanay! Zulfnig mixi qayrilgan joyda cho'p sig'v'adigan xuddi shunday teshik bor edi. Quvonib ketganimdan shoshib qolibman. Tiqqan zahotim zanjir shaldirab tushib, eshik ochilib bersa, bir qadam tisarilib ketibman. Men birovning eshigini so'roqsiz-istoqsiz ochib qo'ygan odamga o'xshab qolgan edim. Endi ostonaga hatlash tugul chaqirishga majolim yetmas edi.

Baxtingma shu tob tepa hovlida Yodgormi, kim ko'rindiyu menga ko'zi tushib, bir zum tosh qotdi. So'ng to'g'v'ri menga qarab bolalarcha parparon chopib kela boshladi. Men uni avvaliga Kemshiktoyga o'xshatib edim. Ishkomning yarmiga yetganida ko'rsam - Yodgor ekan, bir qarich bo'lib, kalishchasi oyog'v'bidan uchib ketganiga-da qaramay... bir g'v'ballati chopib kelmoqda edi. Uning keluvini ko'rib, ko'nglim buzilib ketdi. (Shunchalar sog'v'binibdimi, a?!) Boyagi xijolatda turishlarim qayoqqa ketdi, o'zim bilmayman. Beixtiyor ostonaga hatlab bolakayga quchog'v'binmi ochdimu o'sha yerning o'ziga cho'ka qoldim.

- Qani, qani, toy bola, - deganimni bilaman, u o'sha yugurib kelishida o'zini quchog'v'binga otib, bo'ynimdan quchib oldiyu shu chirmashganча qoldi.

U yuzchasini yuzimga bosganча qolgan, qilt etmas, faqat yurakchasi qo'lga tushgan qo'zichoq yuragidek dukurlab tinmas edi. Nima bo'пти, o'zimdan ayirib, ko'zlariga qaray olmasdim.

- Ha, toychoq, mana, va'damga ko'ra keldim-ku, - dedim axiyri.

U bunga javoban bo'ynimga qattiqroq chirmashib, allaqanday hiqilladi. Men uning nima deganini anglab-anglamay shoshib qolgan edim. Yuragimda bir qo'rquv turib ulgurgan, nimadir sodir bo'lgani tayin edi.

- Nima bo'ldi, kim hafa qildi sizlarni? - dedim uning kuraklarini silab.

Ammo men yupatganim sari u mahkamroq chirmashib, qattiqroq hiqillar, azbaroyi nima deyayotganiyu nima demoqchiligini ilg'v'bab bo'lmas edi.

- Kim o'zi, aytaver. Men uni bir ko'ray, - dedim rostdan ham jahlim chiqa boshlab.

U meni qo'yib yuborib, bosh to'lg'v'badi. (Ammo qani ochiq-yorug'v'v' bir nima aytolsa, o'ksig'v'v' bosgani shunchalik!)

- Yo anuv... Zahar opoqimu? - dedim yanib. Negadir hamon o'sha fikrdan qaytolmasdim.

U boyagidek bosh to'lg'v'badi. Ammo ko'zlari jiqqa yosh, o'zi to'lib turardi.

- Bilmadiz, - dedi hiqillab. - Akbar akamnu... yo'qotub qo'yduk.

- Yo'qotib?! Qanday? - Mening ichim sidirilib tushgan, esim esa og'v'bib bormoqda edi. Akbar ekan-ku, nimani ijikilab yotibman!

- Qachon, qaerda? - dedim axiyri o'zimga kelib va uni rosmana ko'tarib olib.

- Yo'q, lo'lular o'g'v'v'irlab ketishdu, - dedi u ko'zini ko'zlarimdan uzmay.

- Lo'lilar? Qanaqa lo'lilar? - Men bu xabardan dong qotgan edim.

- Bir duvona aldab opketub...

- Devona?

Yodgormurod endi qo'limdan tushishga intildi, so'ng tushib, azza-bazza qo'llarini yoyib tushuntirishga urindi:

- Ko'chamuzga mana munday gadoy kelub edu.

- Gadoyim, devonami?

- "Haq do'st, yo Oллоh"ni aytib keldu. Tilanchu desak, odamlar duvona deyishoptu. Tomday keladu, - u endi ancha o'ziga kelib qolgan, o'ksug'v'blari ham ancha arigan edi.

- Bo'yimi? - dedim tushunolmay.

- Ha-da. Opoqbuvim aytub beradugan devlaruday... uzu-un, sap-saruq... Balki bolalarnu tutib yer...

- Tutib yer?... Qaerdan olding bu gapni? - Men uning gapidan kulib-kulolmas, yig'v'v'blab-yig'v'v'blolmas edim.

- Opoqum topmay qaytdular-ku... Biz qo'rquv, eshiklarnu zanjurlab o'turupmiz, - dedi u bo'ynini ichiga tortib, jimitdek bo'lib.

- Iya, yomon bo'пти-ku, - dedim ich-ichimdan zil ketib. - Endi buving javob ham bermaslar?

- Nega? - dedi u hayron qolib.

- Akang yo'q bo'lsa, seni opketsam... kim bilan qolishadi?...

- E, yo'q,- deb sakrab-o'ynoqladi u.- Amaqung kela qolmadu, senu opketaqolmadu, deb o'tiribdilar-ku. Yuring - kiring,- deb qistashga, qo'llarimdan tortqilashga tushdi. Ketgisi kelgani, kutgani shunchalik!

Unga ergashib ichkari yurdim. Ishkom tagidagi yo'l bilan tepa hovliga chiqib bordik.

Oyto'ra buvi o'sha-o'sha oq-oppoq bo'lib, mushtdek bo'lib, karavotlarida qiblagaga qarab tasbeh o'girib o'tirar edilar. Shu o'tirgan ko'ylari namoz o'qiyaptilarmi, deb... ostonada taraddudlanib to'xtagan edim, u kishi tasbehlarini shildiratib, yuzlariga fotiha tortdilar-da:

- Keling, kiravering, o'g'v'v'blim, - deb izn berdilar.

Men salom berib, ichkari kirib bordim. Yodgor endi yonimdan bir qadam ham jilmasdi.

- Vaalaykum, mirzo o'g'v'v'blim. Keldingizmi, o'ting, o'ta qoling, - deb manziratlar qilgan, duolar o'qigan bo'ldilar. So'ng kennoyimni so'ray ketdilar. - Toychoq'v'binning ayajonisi qalay? Xudoyim shifogina bera qolibdimi?

- Inshaalloh-inshaalloh, - dedim tinchlantirib.- Tabib topib, dorularini eltib berib kelyapman. Sizlarga duoi salomlar aytdilar.

- Oллоh salomat qilsin. Yaxshiyam Xudo Sizni yetkazdi. Chamanim kelguncha ko'nglimiz halak edi. Bir xonadonga bir erkak lozimligi shu-da. Oллоhim ham o'shaning sharofatidan balo-qazolardan asraydi. Ayol kishining qo'li qaergacha ham yetardi.

Mening o'tirishim manavinday bo'lsa...

Yodgorning gapi yodimda edi, hol-ahvol so'rash nav-bati menga yetib, sekin so'radim:

- Yodgor bir nimalar deb chug'v'v'rlaydi, tinchlikmi? - Men ustiga yengil yakandoz tashlangan sandal chetiga cho'ka qoldim.

- Anuv duvananu aytutman, opoqbuvim... Aqamnu opketub qolgan tilanchu-chi? - deb chug'v'v'rlab Yodgor karavotga yopishib bordi. U buving oyoqlariga osilib, bir narsalarni tushuntirishga urinardi.

- Duvana dema, bolam, gunoh bo'ladi. Tilanchi akang-ni nima qiladi. Qo'y, qayoqdagi gapni gapirma. Gumon imonni ketkazadi, - deb Oyto'ra buvi uning boshini silab, menga o'girildilar. - Bolalarga ergashib ketgan ekan, haligacha daragi yo'q. Boshi og'v'v'bib

Eski Jo'vanning bozorida adashganmi, Jangobda qolganmi, Asal ikki qidirib keldi...

- Bolalar bilishar, axir? - dedim ichim hapriqib.

- Bironyasi tayinli gap aytsa, qani! Yurak-bag'v'v'rimiz ezilib bitdi, - dedilar endi haq-rostiga ko'chib. - Zora shuning qadami

qutlug'v'v' kelib, Oллоhim bunga ham tirmoq bera qolsa, turmushi tinchib ketsa, deb asrab oluvdik, - deb tushuntirdilar. - Qayoqda?!

Asalimni bilasiz, turish-turmushi shu, zahar. Hoziram uyiga kirib qamalib yotibdi. Qidirib oyogʻi bida oyoq qolmaganmish. Qayoqda! Xasti Imomdan nari o'tmagan. Bo Xudo, o'sha sigʻ bini degan. Qaydan yopishdi bu balo - bola isi yoqmaslik unga? Aqlim yetmaydi hech. Na ota urugʻ bida bor, na ona urugʻ bida. Shu asrandisi bilan andarmon bo'la qolsa, bemalol oyoq-qo'limni uzatib ketarmidim... - Oyto'ra buvi ovozlari o'zgarib, mijjalariga yenglarini bosdilar. - Xudoyimdan aylanay, shunday sinarkan-da bandasini... Ishqilib, ko'rsatadiganini shu dunyodayoq ko'rsatsin-u, u dunyoga qoldirmasin... qiynogʻ bini jazolarini... Tavba, nima bo'lyapti? Tashvish ustiga tashvish. Biridan qutulmay, boshqasi oyoq ostidan chiqib kelyapti. Endi yo'qolgan bolakay topilmay turib men buni qanday olib ketarkanman?! Qolaversa, qanday ogʻ bini ochib bo'ladi? To'gʻ bini dalaga survormaymanmi boya, bu yoqqa burilib yurmay. Endi omonat nima bo'ldi-yu, bunga bergan va'dam nima bo'ldi?

Bir yoqda yo'qolgan sepkiltoygʻa (o'sha kelganimda birpasda elakishib keta qoluvdi) achinib turibman. Balki anuv zahar-zaqqunning terqashlari, turtkilashlaridan to'yib shunday qildimikan? Ammo yetim boshi bilan qayoqqa ham borardi? - Jangobga tushib, surishtirib chiqaymi? Milisaxonalarga kir, desangiz, kirib boqay, - dedim astoydil o'tlanib. Men yuzlari yorishib, alqay ketadilar, o'zlari bir yerlarga yetadilar, deb o'ylab edim. Qaytaga Oyto'ra buvi o'tinch ila boqdilar: - Undan ko'ra, mana bu jujugʻ bini o'la keting. Necha kundan beri ichikib, bir yerga yetdi. Borsa borsin: biron hafta turib kelar. Ungacha Chamanim ham qaytib qolsa, zora. - Darvoqe, ayasi ham aytib edi. - Nimani? - Buvalarining yurtini ko'rib qo'ysin, deb... Buni eshitgan Yodgormurodni ko'rsangiz! U namatning changini chiqarib, sakrab o'ynoqlar, uy ichida gir aylanib chopardi! - Bo'ldu-bo'ldu, boramuz. Opketasuz endu, opketasuz. Ayam rozular, opoqbuvum rozular. - Gir aylanib kelib, yopishadi, ustilarimga tarmashadi: - Boramuz, talalarga boramuz. Qo'ziqorinlar teramuz. - Ana, ko'rdiz, - dedilar u kishi ham. - Mayli, olaket, desangiz - olib ketaveraman. Shu tob u quvonchini ichiga sigʻ bini dirolmay o'zini shartta ustimga otdiyu bo'ynimdan quchib ola qoldi. U hali-beri qo'yib yuboradigan emas edi va men ham bagʻ bini rmdan qo'ymay buvigga dedim: - Bo'lmasa, duo qiling.

Oyto'ra buvi halim tortib duo qilyaptilar, u kishining ovozlari, ovozlaridan ham burun duolari menga moydek yoqyapti, ammo ko'nglimning bir chekkasi xijilga o'xshab, hech yorishmaydi, gʻ bini hash. Akbarga achinyapman. U qayda qoldi ekan? Rostdanam o'zi tilanchiga ergashib ketdimikan yo lo'lilar o'gʻ bini rlab, birovlariga oshirib yuborishdi? Olam to'la yetim bo'lsa-yu, u kimga kerak bo'lib qolibdi? Hech tushuna olmayapman, aqlim bovar qilmaydi: hali ham bola o'gʻ bini rilar bor ekanmi?.. Yodimga esa, bolaligimizda kattalardan eshitganlarim - opqochib ketilgan bolakaylarning ayanchli taqdirleri tushib-tushib ketyapti. Ular bizni qo'rqitishgani-qo'rqitishgan edi: - Avrasa laqqa tushma. Shaharga obboraman, shahar unday, shahar bunday, kinolar bor, kataysa-konkilari bor, "chaynamayshim"lari bor desa, ishonma,- deb terqashgani-terqashgan edi. - Opketib oldimi, yerto'lasiga qamab qo'yadi-da, bir kun kechasi supra yozib, sani ustiga qo'yib yuboradi. O'zlari qo'llarida bigiz, gir aylana qurib, o'tirib olishadi. Oyimga ketaman, deb yigʻ bini rlab, qaysi tomonga yursang, o'sha tomondan eting-ga bigiz sanchishadi. Sen qochib, o'zingni boshqa tomonga urasan. U yoqdan ular bigiz sanchadilar. Shunaqqib seni ham, supradagi unni ham qora qoningga belab, keyin non yopib yeydilar. Ular shunaqa qavm - ularga ro'para bo'la ko'rma, - deb qo'rqitardilar. Shu-shu xurjun ko'targan tilanchiyu devonani ko'rdik, deguncha oyoqni qo'lga olib qochaverardik. Akbarga aytib qo'yishmagan ekanmi, yerto'lasini bor - bola o'gʻ bini rilarini? Hali u tushlarimga kirib chiqishi aniq. Yana nechanchidir marta yerto'lama-erto'la qilichimni ko'tarib, izgʻ bini sam kerak. Har gal bola o'gʻ bini rilarining adablarini berib, yo'qolgan bolakaylarni qutqarmoqchi bo'laman-u, yerto'laga bostirib kirgan joyimda uygʻ bini rlab ketaman. Nega shunday - hech tushuna olmayman. Bu gal-chi, Akbarni qutqara olarmikanman?

Xarobada Tushib Qolgan Ohanrabo

Bizning tomonlarga Beshogʻ bini rlabdan yolgʻ bini rlab bittagina avtobus qatnar edi. Ilingan ilinardi, ilinmagan piyoda - yayov ketardi. Omadimizni qarang, tiqilishib bo'lsa-da, o'sha kichkinagina "xaptobus"ga chiqib oldik. Ketyapmiz, ketyapmiz, qani biron jon tushib, sal yengillashsak. Men-ku, chidayapman, lekin Yodgormurodni ezib qo'yishmasa edi, deb jonim xalak. Axiyri uni deraza tomonda o'tirgan sutchi opoqining tizzasiga joylashtirib tinchidim. Ammo o'zim tiqilinchdan hech narsani ko'rolayotganim yo'q. Qaerga yetganimizni taxminlabam bilib bo'lmayotir. Alohal,Cho'lponotaning gulariga qayrilishda yarim odam tushib, sal yengillashdik. Bu yogʻ bini rlab avtobus Bogʻ bini rlabning pasti bilan Bo'zsuv yoqalab, aylanma yo'lga tushib oldiyu yuzga tanish Bo'zsuv nasimlari urilib, etikib ketdim. Havoning tozaligini ayting! Bu tomonlarda hali-hozirgina yomgʻ bini rlab shivalab o'tgan-u, ana endi bodroq hidi anqib yotar edi. Keyin unga qo'shilib deng, shu tepayu jarlar oralab oqib yotgan Bo'zsuvning nimtatir hidi, yovvoyi yalpizu botqogʻ bini rlab buloq suvlarining bo'ylari qo'shilib omuxta bo'lib ketgan bir ajoyib hid kelyaptiki, iskab-iskalanib to'yimaysan, kishi. Yana allaqaerda (balki shu ko'cha yoqasidagi polkovniklar bogʻ bini rlabdir) shaftolilar qiygʻ bini rlab gullab yuborgan-u, o'sha nasimlar shaftoli guli bo'ylarini "o'gʻ bini rlab" olib kelayotgandek!.. Polkovniklarning ham bilgani-bilgan! Bo'zsuv yoqasidan yigirma sotixlab joy olib, bogʻ bini rlab qilib, ostidan suvlar oqadigan jannatdek soya-salqin joylarda yashashyapti. Olloh ularga bu dunyosini bergan. Hammayoq itirqini chiqib, buzilib bo'ldi, lekin ularning bitta chivigʻ bini rlab ham tegishgani yo'q. Hamma qochgan bulbullar shu yerda chax-chaxlab yotipti!

Bu orada biz Bogʻ bini rlabdan o'tib, Qaynamaga chiqib bordigu ho'v oldinda Bo'zsuv Qo'shilishdan o'tib, Achchi qirlariga qarab oqib ketadigan tomonda (naq Achchi qirlari ustida) yalt-yalt nur sochib, o'sha yoqni nur seliga ko'mib tashlagan oftob ko'rindiyu yuragim qinidan chiqqudek hapriqib ketdi. Yopiray! Hech o'zgormabdi-ku! O'sha-o'sha-ku! Bir vaqtlar shiyponda - Kattabogʻ bini rlabning ustida turib ko'rganimdan a'lo-ku!

Men engashib Yodgorning qulogʻ bini rlabga sekin shipshidim:

- Tushdik, toy bola. Yetib kepmiz.

Yodgormurod gangib, kalovlanib qolgan, hali atrofga, hali aftimga alanglab boqar edi:

- Nima, shu yermu? Keldukmu?

- Kelduk, kelduk, - deya oldinga intildim. - Ho'v, birodar, bizni sho'tta tashlab keting. Qaynamada qoldiring.

- Qayoqqa borasiz o'zi? Bu yerda biron tirik jon qolmagan-ku, - dedi kimdir orqadan. - Ko'rmayapsizmi, hammayoqning itirqinini chiqarib yotishibdi.

Men parvoimga ilmay, ukachamni yetaklab, oldinga o'taverdim:

- Biz shu yerda tushamiz, shunaqasi piyoda ketamiz.

Shofyor kepchikday yuzida moshdek-moshdek chechak izlari qolgan yagʻʻirindor odam ekan.

- O'zingiz bilasiz, - deb mashinasini chetroqqa burdi.

- Chakki qildiz-da, opovsi, - derdi halitdan ku-yinib sutchi ayol, - bola bilan urinib qolasiz-ku.

- Urinish nimasi, o'zimizning joylar, o'ynab ketamiz, - dedim tushayotgan joyimda. - Ko'rib qolsin-da, buyam... bu yoqlarni...

- Voy, shunaqami? Bugun bor, ertaga yo'q tabarruk joylarimizni-ya? - dedi u orqamdan. Ovozi ham allaqanday yayrab-tovlanib chiqqan, u ichimning chuqur bir ingichka yerlariga tegib, etlarim jimirlashib ketgan edilar.

Men javob berarga ham holim kelmay Yodgorni qo'ltiqlab oldimu pastga tusha boshladim. Yaxshiyam u bor ekan, unga alahsidim. Hech qancha o'tmay mashina jilib, biz ko'cha yoqasida yolgʻʻiz qolgan edik. Ukacham birpasgina begonasirab, atrofga alanglab turdi-yu, keyin bolaligiga borib, birdan oldinga chopa ketdi. Nima ko'ra qolibdi, desam, qaynama do'ngiga chiqib borib, qo'rqa-pisa ichiga mo'ralamoqqa boshladi.

- Qoch, ajinaning inidan! - deb baqirib edim, qaynamaning ichidan bir nima otilib chiqadigandek u ortiga o'girila qochdi.

- Nima u, amayu? Rostan inimu? - dedi kela solib oyogʻʻimiga yopishib.

- Yo'q, qaynama, - dedim uni qo'rqitib yuborganimdan o'zim uyalib.

- Nima qaynamaydu? - dedi ko'zlarimga javdirab u.

- Qaynamaydumas, qaynaydu, - dedim kulib.

- Xo'p, nima qaynaydu? - dedi u hech tasavvur eta olmay. Men uning boshini siladim:

- Oddiy suv, ko'rmadingmi?

U bosh chayqadi:

- I-im... Hech nima qaynamo'pti-ku.

Men yana uning boshini silab, ko'chaning narigi betidagi do'ngga ishora qildim:

- Huv anavi hovuzchani ko'ryapsanmi?

- Qanaqa xovuchcha? Do'ng-ku, - dedi u.

- Ana o'sha do'ngni ichida hovuzchasi bor. Suv o'sha yerdan tushib, bu yoqdan qaynab chiqadi, bilding.

U ko'zlarimga qadalib turib, chapak chalib yubordi:

- Zo'r-ku! O'sha yerdan sho'ngʻʻib... bu yerdan chiqadimu?

- Ha, barakalla, topding! Shuni qaynama deydilar.

- Har yoqlarga toshibam yotmaydu? - dedi u ta'sirlanib.

- Yotmaydu, - dedim men ham suyib.

- Sizibam ketmaydu!.. - dedi u.

- Ketmaydu, - dedim men.

- Qanday yaxshi! - Yodgor boyagiday bir o'ynoqlab qo'yib, bilagimga yopishdi. - Zo'r ekan siznu tomonlar...

- Sen mana bu yoqni ko'r, oftobning yotogʻʻini ko'r,- dedim Bo'zsuv tepalari osha Achchi qirlarini ko'rsatib. U oftobning ming-milliard qiyama nurlari seliga botib atlaslanib yotardi. Yodgormurod qaradiyu ko'zlari qamashib ketib, pinjimiga yuzini yashirdi. So'ng oyoqlarimni panalab havaslanib tikildi.

- Vu-uy, muncha chiroylu?!

- Shunaqa: oftob botolmay-botolmay botadi bizni tomonlarda, - dedim o'zim ham o'sha yoqlardan ko'z uzolmay. - Sen uni bu yoqdan chiqayotganda ko'rsangmu, oh, - dedim kamiga.

- Ko'rsatasizmu? Opkelasizmu? - dedi u o'ynoqlab, qo'llarimdan tortqilab.

- Opkel, desang opkelavuraman.

- Bogʻʻlariznu-chi, qachon ko'rsatasuz?...

- Ko'rsating desang, hoziram ko'rsatavuraman, - dedim-u, ichimda esa ishqilib surib tashlashmagan bo'lsin-da, deb turibman. U bo'lsa, sakrab-quvnaydi, o'ynoqlab tinmaydi:

- Ko'ramuz-ko'ramuz. Varrak uchuradugon tomlariznuyam ko'ramuzmu?

- Yo'q, - dedim ovozim o'zgarib kelib. (Men uni qanday alday olaman!) - Tomlarimizni buzib ketganmiz. Allaqachon.

- Uylariznu-ya? - deb hayratlanib tikildi u.

- Ha-ha, - dedim zo'rgʻʻib yutinib. Tomogʻʻimiga bir narsalar tiqilib kelmoqda, u gʻʻippa bo'gʻʻilib, gapirolmay qoladigandek edim.

- Unda... unda biz qayoqqa boraturmuz? - dedi javdirab. Ko'zlari toliqib ketmagani uning. Pastdan tikilaverib, javdirayverib! Kipriklari xuddi qiz bolanikiday uzun-uzun, bir chiroyli edi, hech qilt etmasdi, tavba.

- Biznikiga, - dedim qult yutinib, - tomlari ochiq, eshik-derazalari - valongor, o'zi qor-yomgʻʻirlarda ivib tushgan... bo'lsayam boravurasan... ko'ravurasanmi? - dedim negadir.

- Boravuramuz-boravuramuz, - deb tortqilardi u, qistardi u.

Ishqilib omon turgan bo'lsin-da: taxmonlarimiz tokchalarimiz. O'sha madfun xatlar... Men ularni bunga, manavi jujuqtoyga - kennoyimning toychoqqinasiga qanday aytay? Qanday tushuntiray? Aslida nima uchun, ne niyatda kelayotganimizni qani, aytib bo'lsa! Ogʻʻib ochib bo'lsa!

Men uni qo'lchasidan yetaklab olganman. U chim bosib ketgan tashlama ariqqa tushib ketay-ketay deb, qurib-qovjirab, qor-yomgʻʻirlarda qolib ham ado bo'lmagan o'tlarga, yovvoyi yalpizlarga turtunib-surtunib kelyapti-yu, atrofga alanglab charchamaydi. Ba'zan u yer-bu yerda omon qolgan azim yongʻʻoqlaru o'riklarga hayratlanib to'xtab qoladi. Ular hali qip-yalangʻʻib och: haligina shivalab o'tgan yomgʻʻirdanmi, o'rik shoxlari ivib-qorayib qolgan bo'lsa, yongʻʻoq tanasi tamomi shoxlarigacha kumushday yaltiraydi. Lekin kundakov qilib ulgurilmagan bogʻʻlar, ishkomlar bir gʻʻalati mungʻʻib hayib ko'rinadilar. Dalaning ham dalaligi qolmapti. Hammayoq kavlab tashlangan, har yoqda chala imoratlar: bir yerda endi poydevor quyila boshlagan bo'lsa, boshqasining havozalari ko'tarilib, gʻʻisht terishga tushilgan. Undan naridagisida osmoni-haftimga bo'y cho'zgan (xuddi bir oyoqda turgan ulkan turnaday) yolgʻʻib kran qaqqayib turadi. Qilt etgan jon ko'rinmaydi. Yaxshiyam bugun dam, bo'lmasa, anuv turgan joyida qolgan surgich traktor moshinlarning (kuchanib-chirangan) ovozlari, quruvchilarning turfa

tilda so'kinib, baqirib-chaqirishlaridan quloqlar qomatga kelar-midi?

Hammadan burun manavi Yodgor qaerga kelib qoldik, deb o'takasi yorilgan bo'lardi. Hozir ham anavi bahaybat temir turnalardan cho'chib, miq etmay kelyapti. Goh-goh ustimizga agʻʻanab tushmayaptimi, degandek, qo'rqa-pusa tepaga qarab-qarab qo'yadi. Qarab qo'yapti-yu, boya Achchi qirlariga ko'zi tushib, vuylab yuborgan bolakay endi jimib qolgan, dami ichiga tushib ketgan kabi edi. Qo'lchasi ila ikki barmogʻʻimni (boshmaldogʻʻimiga qo'shib) mahkam ushlab olgan-u, o'zi yetib yurolmay, galdirab qolyapti.

- Charchadingmi, toychoq? - dedim qayrilib-to'x-tab. - Ko'tarib ola qolay?

- I-im! - U shirin bosh to'lgʻʻab, odatdagidek dimogʻʻida javob qildi-yu, kutilmaganda oldimga tushib choqqillab ketdi. - Yetub olingchu! Yetolmuysiz!

Iymaganni ham iydirib oladi, deganlari shu bo'lsa kerak! Uning ovozi kimsasiz dalamizda qo'ngʻʻihiroqdek jaranglar, o'zi esa tashlama ariq yoqalab, orqasiga alanglay-alanglay qiqirlab chopib borardi.

Beixtiyor, mening ham bolaligim tutib, quvalashib-hazillashgim kelib ketdi.

- Shoshma-chi, sen - toychoq, - deb orqasidan chopdim. U esa tutqich bermay qochib borarkan, hozir men tutib oladigandek, qiqir-qiqir kular, yana kamiga yelkasi osha xavotirlanib qarab-qarab qo'yardi. Qo'llarimni yoyib alpong-talpong qadam tashlashimdan, yetay deganda "munkib ketishimdan" bir yayrardiki... Ammo o'zi qochib-kulaverib galdirab qopti, chimgami, nimaga qoqilib umbaloq oshib ketay, yiqilib tushay deyapti. Chopib borib ikki qo'ltigʻʻidan dast ko'tarib oldimu qiyqiratib... yelkamga mindirib qo'ydim.

- Ha-a, tutqazmas ekansan-a! Xo'sh, qalaysan endi?

Hozirgina hansirab-qiqirlab turgan bolakay... yurakchasi qo'lga tushgan qushchani yuragiday potirlab yotipti-yu, o'zi miq etmaydi. Qoshim osha qaragam, Usmon togʻʻamning tashlab ketilgan bogʻʻlari boqqanicha... qotib qopti!

- Ha, toychoq? Nima ekan, nima ko'ra qolding? - dedim sekin silkib.

- Amaqu, unu qarang! Amaqu!.. Qarang Siz uni, - yelkamga olvolgan ukacham birdan qo'shqo'llab boshimga shappalay ketsa, kapalagim uchib ketibdi.

- Nima-nima? Nima ekan? - Men boqqa alanglab yotibman, ammo o'lay agar, hayratga arzirli biron narsa ko'rsam! Itirqini chiqib, ishkamlari ogʻʻib, shox devorlari qulab yotgan bogʻʻida bolakay nima ko'ra qolib-di - hech aqlim yetmas, o'sha narsaga ko'zim tusha qolmasdi.

U esa hamon boshimga shappalaydi:

- U yoqqamas, bu yoqqa qarang Siz!..

Shundagina ilgʻʻab, qotib qopman:

- Iya, voy, umi?! Zo'r-ku! - dedim tan berib. U shuncha narsa ichidan o'shani ko'rgan edi! Gap shundaki, togʻʻamning bogʻʻlari pastiga tusha boshlagan katta imoratning hov bir chekkasida... betondan qo'nqayib chiqqan ulkan chakich-armaturalar ortida yolgʻʻib tup shaftoli... naparmon gullab yuborgan, u kechki oftob nurlarida zarhalga belanib yarqirar, gulbarglarining tozaligi, nozik ado pushti gullarining ko'pligidan yurak hapriqib ketar edi!

- Qoyil! Ko'zing o'tkur ekan-ku, sening, - deb yubordim.

- Chiroylu-a? - dedi u ham.

- Chiroylilik ham gapmi! Go'zal! Sendan zo'r rassom chiqadi, - dedim maqtab-erkalab. U esa parvo ham qilmay atrofga yutaqib alanglar, yuring, yuravering, shunday zo'r ekan, tomosha qilishlu ekan, deb qistar edi. Men jildim. Ammo hech qancha o'tmay u yana boyagidek boshimga shappalashga tushdi:

- Qarang, uni qarang! - derdi nimalargadir achinib.

- Yana nima? Nima topa qolding? - dedim to'xtab. U bo'lsa:

- Shunday narsanu... shunday narsanu...- deydi-yu, u yogʻʻini aytolmaydi.

- Nima bo'libdi, nima qilishibdi?

- Sindirishibdu qarang...

- Qani, nimani?

- O'sha zardoluni-da...

Shundagina ko'zim tushibdi: boyagi shaftolini.. kranmi, nima bosib-yanchib o'tganu... bir shoxi tanasidan ayrilib tushib, loyga qorishib yotar va o'sha yotishida ham chaman bo'lib gullab bergan edi! Ajab hol: shaftolining bir shohi shamollarga bagʻʻini ochib, go'yo ko'klam oftobiga shoda-shoda gul tutar, yal-yal pushti nur sochar edi. Yerdagisi esa uning suvdagi aksiga o'xshab u ham ko'zni o'ynatardi. Valloh, shunaqasi ham bo'larkanmi?.. Ko'rib ko'nglim buzilib ketgan, o'zimga kelolmasdim. Nahot bir tirik jon topilmabdi uni ko'tarib qo'yishga? Sherigiga matab, bogʻʻlab qo'yishga?.. Shunday barq urib gullagan narsa... nahot ertaga yana oyoq ostida qolib ketavuradi?

- Zardolumas u - shaftolu, - dedim yelkamdagi toychoqqa. Bilmadim, o'zimni ogʻʻib, mungli xayollardan chalgʻʻitarmidim yo bolakaynimi? Ishqilib, hech o'zimga kelolmasdim. Ammo Yodgor boshqa narsaga chalgʻʻib ulgurgan ekan, birdan jonlanib, qarda o'tirganini ham unutib, likonglay ketdi:

- Vu-uy, amaqu, anuvlarni ham ko'runq...

- Yana nimalarni ko'ra qolding?

- Ko'pliginu... vuy!..

- Shaftolilarmi yana?

- Ha-da, ko'chub ketishganuminan, tashlab ketishganuminan... gullayveribdu, gullayveribdu...

- Vaqti kelgach, shu-da, gullaydi-da, toychoq. Hech kim to'xtata olmaydi buni,- dedim u ko'rsatgan tomon-ga qayrilib. Va shu barobar chaldevorlar orqasidan, xarobayu vayronalar ichidan kelinchakday mo'ralab turgan go'zal xilqatlarga ko'zim tushib, to'xtab qopman!..

Vo darigʻʻib, bu qanaqasi? Men bunaqasini hov, ilgariyam, o'smirlik chogʻʻlarim - Sultonmurod akam biz tomonlarga kelmasdan burun ham ko'rganman-ku! Ularning tashlab ketilgan xaroba qo'rgʻʻbonlari chekkasida har bahor bir tup shaftoli ana shunday qiygʻʻbos gullab chiqqasmidi? Biz uni boshiga zarro'mol tashlagan kelinchakkami - nimaga o'xshatmasmidik?!

Ha-ha, biz uni hojasini kutgan kelinchakka o'xshatganimiz-o'xshatgan edi. Endi-chi, endi? Mana bular-chi, qaerdan paydo bo'lib, tashlab ketilgan qo'rgʻʻbonlaru bogʻʻlar etagidan yuz ochmoqda? Qayoqqa qaragam, o'sha yoqdan ko'rinyapti? Nima bu, sarobmi yo haqiqat?. Shunaqqib biz qo'rgʻʻbonlarimizni bitta-bitta boy bera-yotirmizmi? Shunaqqib Yakkabogʻʻdan, so'ng

Kattabogʻdan ayrilib qoldikmi? Shunaqqib Izzayu Olmazorlarimizni tortib olishayotirmi?

Qachon qaytarkanmiz bu qo'rgʻbon, bu bogʻblarga, anavi "kelinchak"lar oldiga? Umuman, salomlariga alik olguvchilar, qaytguvchilar topilarmikan? Sultonmu- rod akamga o'xshab ularning himoyasiga chiqa olarmikan?

Shunaqa, ko'nglimning ko'chasiga nimalar kelmasdi!

Nihoyat, tashlama ariq (ha-ha, o'sha chim bosgan, Bo'zsuvga qadar tushib borguvchi tashlama ariq) Usmon togʻbomning shohdevorlari yoni bilan chiqib, tutzor tagidagi yo'lga tutashdi. Bu yogʻbi oson: dala o'rtasidan tushib kelayotgan katta yo'ldan o'tsagoq yetamiz. (U yo'l opamning uylari tagiga kelib to'xtagan, uni buzishsayoq, gal biznikiga edi.) Uyimizning orqa devoriyu qator jiydalarimizga (ular bo'rtib qolganga o'x- shar-u, quv yalangʻboch edi) ko'zim tushib quvonib ketdim. Ichimga bir iliq, umid yugurdi.

Hayriyat. Xudo asrabdi. Tegib ulgurishmabdi. Zora, kennoyijonim aytgan, tayinlagan narsalar ham jo-yida bo'lsa! Turgan bo'lsa! Men o'sha joyni topsamoq, bas...

Yuragim... qinidan chiqib ketgudek, ko'ksimni yorvorgudek dukirlab, bo'gʻbimzimga bir nimalar tiqilib-tiqilib keladir. Va, nihoyat, biladigan bo'ldim! Akam bilan o'rtalaridagi tarixni!.. Qanday topishib, qanday ayrilganlariniyu nima bo'lib, judolikda qolganlarini! Nimaga shuncha turib, shuncha kutib, biznikidan chiqib ketdi, bosh olib ketdi ekan? Yozgandir axir? Uzru iltijolarini? Tavalloyu nadomatlarini?

- Amaqu, amaqjon, nega yurmutmiz?- derdi ukacham qistab, quloqlarimdan tortqilab.- Yo keldukmi?..

- Kelduk, kelduk, - deya qo'ltiqlariga qo'l yuborib, boshimdan dast ko'tarib oldim. - Endi o'zing yur. Bizning bogʻbu uylarni ko'r, - dedim yerga qo'yib.

- Shu joylar... shu uylarmu? - dedi u ko'zlari pirpirab.

- Bizlar tashlab ketganda... buzilib yotganda ko'ryapsan-da, sen, - dedim men. - Ho'-o', ayang turganlarida ko'rsangmi edi!.. Jannat edi!

- Voy, ayam shatnu aytarmudilar? - dedi u sakrab-quv nab.

- Shatnu, - dedim men ham unga mengzab va boshini silab, - yana nimalar derdilar?

- Yana yigʻblardular, - dedi u birdan ma'yus tortib.

Men titrab ketdim. Qarshisiga cho'k tushib, tirsaklaridan tutib oldim:

- Menga qara, nima deb yigʻblardilar? Nega yigʻblardilar? Aytarmidilar hech?

U bosh silkidi:

- Hm... Tuzalub ketsam, olib boraman, yotub kelamuz, derdular.

- Yana-chi?..

- Yana, buvanglar yurtinu ko'rasan. Olmazorlarga o'tamuz, derdular. Opkelolmadular, - dedi o'ksib.

- Mana, kelyapmiz-ku, - deb uni quchib, mitti yuzlarini yuzimga suykadim, - hali u yoqlarga ham o'tamiz. Izzalarni, Foziltepalarni ko'rsataman.

- Shunaqamu? Bu yerdan keyin-a? - Uning ko'zlari chaq nab ketishiga ham, yoshlanib ma'yus tortib qolishiga ham taraf yo'q edi.

Hozir esa, bo'ynimga osilib olgan edi.

- Yo'limiz-ku, axir, nega ko'rsatmayin, - deya qistadim. - Yuraqol endi. Kiramizu ketamiz.

Yetaklashib, opamlarning hovlilaridan o'tib bordik. Hovliki, o'ralgan devorini aytmasa, hovli siyogʻbi yo'q. Kuzda mollar, qishda qarogʻbayu zagʻbhalar xo'b itirqinini chiqarishgan. Tomi ochiq - valongor uylar odamning xo'rqligini qo'zgbʻotadi. Necha uy buzib, ko'chib ko'rgan odam - men ham eski joylarimizni ko'rganda, o'zimni tutolmayapman. Har qarich, har qadami aziz bo'lib ketgan joylarni qaytib ko'rish, bu ahvolda ko'rish... shunchalar ogʻbʻir ekanmi?

Lekin Yodgor mendan ham sinchkov ekan. U oldimga tushib chopqillab ketdiyu jiydamiz tagidagi yo'lkadan o'tiboq taqqa to'xtab qoldi. Men nima bo'пти ekan, deb ikki hatlashda yetib borsam... irgʻbʻishlab - sakray ketdi:

- Voy, amaku, qarang bunu! Tanudum, tanudum!..

- Nimani taniding? - Men azbaroyi hayron qolgan edim.

- Hovlunu tanudum...

Yo tavba!.. U nima deydir? Qanday taniydir?... Men garangsib qolayozgan edim.

- Qanaqasiga... taniyan? Endi kelishing-ku?

U qayrilib tizzalarimni quchib oldi:

- Ko'zumnu yumub aytub beraymu? Xuddu ayam aytganlaruday ekan. Tanudum.

- Shunaqami? - dedim suyib-erkalab. Men endi o'zimga kela boshlagan edim. - Qani, bir boshdan esla-chi. Nimalar bor, deb edilar?

- Uzu-un uylar... - U ko'zlarini chirt yumib, kamiga kaftlari ila berkitgan edi.

- To'gʻbʻri. Uzu-un ko'chaga qaragan, kungay uylar, - dedim men. - Yana-chi?

- Yana, ka-attakon tol taguda supasu...

- Bor-bor. Undan keyin-chi?... - Men uni yana ham suyib, yaxshi ko'rib keta boshlagan edim. U esa o'sha hovliga orqa o'girib turganacha, buning ustiga ko'zini chirt yumib, kaftlari bilan berkitib olganacha... toshga o'yilgandek yodida qolgan ertak hovlini - bizning hovlimizni birma-bir tasvirlab berar edi.

- Undan keyun zina bor, daxluz bor, - dedi entikib.

- Daxlizda-chi? - dedim men u ko'rib turganday aytayotganidan, topayotganidan battar hayajonlanib.

- Dahlizdamu?.. Taxmon bor, baland tokcha, tokcha oruqasida o'shoqqa ochuladurgan darucha...

Ich-ichimdan bir to'lqin qo'zgbʻolib, sarosimaga tushib qoldim. Yopiray, nimalar deyapti bu? Chindan top-yapti-ku?! Beixtiyor, uni yana ham suyib, quchoqlab oldim.

- Yana nimani eslaysan? Nimalarni aytib berganlar?

- Esladum, esladum, - deb qo'lini ko'zlaridan olib o'ynoqladi u. - Yana tanuchanguz bor, tanucha! Topdimmu?

- Bor, bor, - deb yubordim o'zim sezmay. - O'ttan-chi, o'ttan qayoqqa o'tiladi?

- O'ttan, - Yodgor birpas jim qolib, bir qo'lchasi ila chakkasini qashlab ham oldi. - Esladum, esladum, katta uyga o'tiladu, ayamnu uylariga.

- Barakalla! Zo'r eslab qolgan ekansan, - deb qistay ketdim, - Ayt, jonim, bittalab ayt! Hech birini qoldirmay ayt! - deb o'tinmoqqa tushdim. - Eshigimizda, ko'chamizda-chi? Nimani eslayman, - derdim men bolakayni qiynab qo'yayotganimni ham unutib.

- U yerdamu? - dedi u eslashga tirishib, ham lablarini bir chiroyli qimtab. - Ko'cha bor, ko'chaning u yogʻ bida...

- Anhor-chi? Nokzor-chi? - dedim quvonchimni ichimga sigʻ bdirolmay.

- Bor-bor, anhoram bor, nokzorlar, bedapoyalaram...

Men uni boyagidan ham mahkamroq quchib olgan va o'zimni unutib takrorlar edim:

- Topding, toychoq. Barchasini bilarkansan. Eslab qolganakansan. Kechir, ishonmay o'tiribman. Umrída ko'rmagan, deb o'tiribman. Sen esa...

Keyin o'zimga kelib, ich-ichimdan bosib kelayotgan hayajonmi, o'sukmi - nimalarimni yutib, uning yelkasidan tutganicha yuzlariga bir alpoz termuldim:

- Rostingni ayt, shularning barini ayang aytib berganmilar? Uzun kechalarda?

- Hm, - dedi u yengil bosh irgʻ b. Tab.

- Keyin tushlarında?..

- Yo'q, - dedi u bosh chayqab. - O'ngimda ko'rgandayman xuddu.

Bolaga ishonmaslik mumkin emas edi. Lekin qanday ko'rdi, eslab qoldi ekan ko'rmagan joylarini? Shunisiga aqlim bovar qilmas edi. Boshim gir aylanib, o'rnimdan turdim-da, otxona burchagidagi shaftoliga suyangancha qoldim. Bolaga esa:

- Yana o'zing qarab boq-chi, sen taniydurgan nima qopti ekan, - dedim sekin.

U "yaxshu!" deya yuqoriga chopib ketdiyu men esam bu mo"jizaga - umrida bu yoqlarga qadam bosmagan bolakayning har bitta narsani - aniq-tiniq aytib berayotganiga hayronu lol qolib, qotib turardim. Bolada bir sir bor, derdim-u, nimaligiga aqlim yetaqolmasdi hech! Bu nima bo'lsa ekan? Yo u ham shu uyning farzandimi? Bilmasdim.

Bir vaqt nimaga kelganimiz yodimga tushib, shoshib qoldim. Darvoqe, kun botmagan, uning qizgʻ bish shu'lasi qolgan-qutgan daraxtlarning qir uchlariyu yangi tushgan imoratlarning teppalarida o'ynar, vaqt o'tayotib edi, shoshmoq lozim edi. Kennoyim aytgan omonatga xayolim qochib, ichkari yurdim.

Bu mahal uning Yodgorginasi, shirindan-shakar bolakay o'yinga berilib, o'zi bilan o'zi bo'lib ketgan, meni-da unutib, hovlimizda u yoqdan-bu yoqqa chopib, yugurgilab yurardi. Hali ishkomlarimiz ichiga kirib ketar, hali supamiz tomon, hali zinamiz tomon chopardi. Hali otxonamizga mo'ralab, hali dahlizimizga yugurib chiqadi. Ostonalarni ot qilib minib, deraza tokchalari ustiga, taxmonlarga chiqib, sakragani sakragan. Ba'zan shiftsiz devorlarga, osmonga anqayib qoladi-da, yana o'yinga berilib ketadi.

Men esam, ichkari uyda o'zim bilan o'zim ovoraman. Zo'r berib o'rtá tokchaning (paxsa ustidan terilgan) xom gʻ bishlarini ko'chirib yotibman. (Esimda bor, togʻ b am tovchasi past bo'pqopti, deb ikki-uch qator gʻ bish terdirgan, keyin suvab yuborilgan edi.) Ari qaeriga in qo'ya qolgan ekan? Orqasidan kirib kelib, joy topgandir-da?

Ko'chirgan joyimdanmi, xom gʻ bishlardanmi, achimsiq somon hidi aralash tuproq bo'yi anqirdi. Nihoyat gʻ bish tugab, paxsa ko'rindi. G'o'rasha tuproqlarni sidirib tushirib tashladim. Lekin na ari ini, na gʻ b ovak ko'rinar. Qaerda ekan? Yo men boshqa tokchani ko'chirib yotibmanmi? Yuragim gʻ b urmishlab, ichim qizib ketyapti. Kallam qotib, qovoqqa aylanib qolganek... Jo'yali bir fikr kela qolmaydi: qaerda bo'lishi mumkin? Bu yoqda kun ketyapti. Hali-zamon quyosh botvorishi mumkin.

Axiyri uning bir gapini esladim: "Tokchaning yoninu urib ko'rsangiz, bilasiz". Darvoqe, po'killaydi-ku. O'rtá barmogʻ b im orqasi-la asta-asta urib ko'r-sam - bir joylari po'killab, qolgani takirlyapti. Shoshib qolib, tizzalab opman. O'sha yerni sekin ezsam, suvogʻ b i ezilayotir, hovliqib qattiqroq bosib edim, qo'lim bilagimga qadar kirib ketdi.

O'takam yorilib tortib opman. Bilib bo'ladimi, nima kirib olgan. Suvoqlarini ko'chirib, sekin qaragam... ari ini quruqshab mushtdek bo'pqopti. Balki bu bir bo'lagidir. Qolganini kennoyim o'sha vaqtdayoq tozalab tashlagandir. Keyin bitiklarini yashirib, suvab tashlagan bo'lsa ham ehtimol. Lekin unda bitiklar nimaga ko'rinmaydi? Qaerda qolishi mumkin? Asta qo'limni tiqib, paypaslab ko'rsam... bir nima - quruqshagan narsa shildiraydir. Changallab tortvola qoldim. Qaragam, chang bosgan sariq daftarning muqovasi... G'ijimlanib chiqibdi! Demak, bir narsalar bor, qolgani ham bor. Yutoqib, suvoqni ko'chirishga, teshikni kattalashtirishga tushib ketdim.

Ari iniga yorugʻ b tushib, katak daftarning qolgani ham ko'rindi.

Olsam, tagida yana bittasi. Ochib hayronu lol qoldim. Xat bir ajab imloda... jimjimador arab yozuvida edi.

Bo'shashib, o'tirib qopman! Koshki uning zer-zabarlariga tishim o'tsa, hij-da o'qiy olsam. O'zimni shunday nochor-notavon his etdimki... Yana men o'z davrining ziyolisi, institutlarni bitirgan, eng katta gazetalarda ishlaydirgan, har kuni quloch-quloch maqolalari chiqib turgan muxbir emishman! Nihoyati otin oyida (o'sha ham o'zining oyisi ekan) o'qigan bir ayolchalik bo'lmasam. O'shalar bilgan narsani men bilmasam! Rosa boshqa tomonga o'tlab ketgan ekanmizmi?..

Kennoyimning akamga atalgan maktublariga yetishganimda unga tishim o'tmay o'tirishimni ko'ring! Ana sizga natija! Hatto uni birovga ko'rsatishga, ko'rsatish tugul aytishga haqqim yo'q. Bu sirdan kimni ham voqif eta olardim?! Izn berilmagan: kennoyim izn bermasalar, men uni kimga ham o'qita olardim?

Bir mahal qaragam, topgan bo'yracho'plaridan kemami, aravachami yasab, dahlizda o'tirgan bolakay, mening mehmonim - Yodgormurod shu tomonga tikilib qopti. Ko'z ko'zga tushib, u shirin jilmaydi va shu jilmayishida yuz-ko'zlariga bir tiniq nur yugurib, kimgadir juda-juda o'xshab ketdi; Esladim, u o'sha boloxonada ko'rganim - suvratdagi ko'hlik ayolga o'xshab, nim jilmayib turar, uzun-uzun kipriklari qora ko'zlariga bir yarashgan, tanimagan odam uni o'gʻ b il bola demasdi. Peshonasidami, yonogʻ b idami, o'sha Yusuf go'zalligidan bir chimdimgina bor edi. Bir chimdini bo'lsa ham olamga tatiguli edi, tavba.

U mening xayolim yorishganini ko'rib boyagidek shirin jilmaydi:

- Nima izlayopsuz, amaqu?

- Topdim, - dedim noiloj.

- Qaniy, qaniy?! - u tura chopqillab keldi-yu, yelkamga osildi, - bitta ko'rsatung.

- Mana, eski xatlar ekan. Ko'rganing bilan se-niyam, meniyam tishimiz o'tmaydi, - dedim yuziga tutib.

- Ha-ya, - dedi u bosh silkib. - ayam bo'lsalar o'qiy olardilar. Innaykeyin opoqbuvim ham o'qiy oladular, - dedi u maqtangisi kelib.

- Qanday yaxshi, - deyapman-u, ichim ezilib bor-yapti: koshki opoqbuviga aytib, birovlariga ko'rsatib bo'lsa bu narsani? Uni kimga ham o'qita olardim?... Yana pochchaga olib boramanmi? Voy, hoy, Savobar, bu yoqqa qara, kelinimizning daragi chiqibdi, deb qolsalar nima bo'ladi?.. Bu yoqda Chaman akam, u yoqda o'zi tayinlashgan: aytmay tur, deb...

Men o'z yogʻ b imga o'zim qovrulib yotibman-ku, Yodgor hali tizzamga, hali yelkamga shappalab, bir narsalar deydi.

- Amaqu, qarang, qaray qolung?

- Nima deysan?

Qaragam, qo'lida nosrang bir xaltacha. Bogʻ b ichidan tutib opti. Ko'k duxobadanmi-ey, lattadanmi-ey, chang bosib, tanib bo'lmay

ketipti.

- Nima u? I-i, tashla! - dedim biron narsa ilashgan bo'lsa, chaqib olmasin, deb.

- Vuy!..

U jonholatda itqitib yuborib edi, taxmonga shiqirlab borib tushdi va changi to'zib ketdi.

- Iy!- deb yubordim men ham.- Qattan topding?

- Mana, sho'ttan...

Hayron qoldim. Hozir manavi daftarlarni olganimda hech narsa yo'q edi-ku. Qay burchagida yotgan ekan?

- Ichidanmi?

- Ha-da. Qarang, yana bir narsalar ko'rinadur, - dedi hammadan oldin o'zi ari iniga mo'ralagudek bo'lib.

- Qaniy...

Qarasam, eski ari ini bo'laklari. Azbaroyi chang bosganidan kulrang narsa paxsa rangiga kirib ketipti. Arziri bir narsa topmay o'rnimdan turdim. Bo-lakayning xat berkitilgan joydan xaltacha topishi g'balati edi. Undan ham burun uning taxmonga shiqir-lab borib tushuvi g'baroyib edi. Ichidagi nima bo'lsa ekan?

Borib qo'limga olsam, rosmana duxoba xaltacha. Nozik qilib, og'v'zi sirib, bo'g'v'biladigan qilib tikilgan. Bir vaqtdagi tilla xaltachalarga mengzab ketadi.

Yuragim gurs-gurs urib ketyapti: ichidagi narsa qurib, g'v'hozi ham qolmagan ko'rinar edi.

Barmog'v'himni tiqib ocha boshlab edim, Yodgormurod yugurgilab keldi:

- Nimukan, amaqu?..

Yoruuqa solib qarasam, bir nimaning urug'v'bi. Gurunch bo'lib gurunch emas, bug'v'bdoy bo'lib bug'v'bdoy... Qo'qon jo'xoridan ham maydaroq bir narsa. Hidlab boqsam, bir ajoyib muattar hid, elas-elas kelyapti. Xuddi xaltacha bir vaqt mushk xalta bo'lganu... unga urib qolgandek. Hayratga tushmay ilojingiz yo'q. Bunga sari Yodgormurod "nimukan"lab etagimga osilyapti.

- Shoshma, hozir... - deb kaftimga ag'v'bdarsam... bir kaft (nima deng!!) ohanrabo! O'sha gurunchni terganda ichidan chiqadigan ohanrabo doni! Biz uni topganda yoruuqa solib atay tomosha qilar va hayratga tushar edik. Negaki, unga yaxshilab razm solsangiz, odamning afti - qoshu ko'zlari ko'rinish ketaveradi. Shunday aniq-taniqki, hayron qolasiz. Esladim! Kennoyim biznikida turganlarida gurunchni patnisimizga yoyib, ohanrabosini terib o'tirar edilar. Topsalar:

- Maqsudxo'ja, bunu qarang, - deb bir yerga yetar, topolmasalar bir hazin o'ylarga berilib ketar edilar. O'shalarni yig'v'hib yurgan ekanlarmi?

- Nimukan?

Men uni suyib, qo'ltig'v'himga tortdim:

- Zo'r narsa topibsani. Buni ohanrabo deyдилar. Iqbol bor odam topadu bunu.

- Berung-berung. Ko'ray?

- Ma, faqat yo'qotma. Ayangni ko'rgani borganimizda olib boramiz. Xo'p?

- Bo'ptu-bo'ptu!.. - deb irg'v'bishladi u. Shu tob tashqariga ko'zim tushib, boyagi daraxt uchlariyu bitmagan imoratlar tepasida yolqin ko'rmay shoshib qoldim. Osmon ham shom oldidan feruzadek bir tiniq tortib borar edi.

- Jur endi, qaytdik. Bo'lmasa kech qolamiz.

- Ayam aytgan joylariga o'tamizmu endu? Olmazorga o'tamizmu? - deb atrofimda gir aylanardi u.

- O'tamiz-o'tamiz. o'shanqasi ketamiz, - dedim-u, ichimdan qirindi o'tyapti, turolmayapman: buvalarining yurti-qo'rg'v'bonidan, Olmazorlaridan nima qoldikan? Bu yerda halitdan shunchalik, u yoqlarni tanib bo'larmikan? Ayasi nimaga qistadi? Ko'rib qolsin debmi yo - armon qilib yurmasin debmi?.. Maqsadi nima? Bir niyati bordeg-u, bekorga iltimos qilmagandeg-u, hech anglay olmayotirman. Kallamda esa, anuv gapi - "buvasining Olmazorlarinu, Sultonmurod akangizning Yakkabog'v'bu Kattabog'v'blarinu ko'rib qo'ysun" - deganlari. Buvasi - tushunarli, ammo akamga nima daxli bor bu shirintoyning?

- Endi nima qilamuz, ketamuzmi? - derdi u bo'ynimga osilib erkalanib.

- Ketamiz, - dedim erkalab. - Avval anhor bo'yiga chiqamiz. Binafshalar ochilgan bo'lsa, terasan. Ke-yin Olmazorga o'tamiz, o'shanaqasi...

- Ur-re, bunafshalar teramuz, Olmazorga o'tamuz!..- deb sakrab quvnagancha oldinga tushdi va ho- li-jonimga qo'ymay qistay boshladi. - Juring-da, endu...

- Hay, ketsak-ketdik, - deya turdim. ammo ko'nnglim bir tur - qo'limdagi manavi bitiklarni, kennoyimning xatlarini o'qishga shunday sust ketyaptiki...

Ularni qachon, kimga o'qitaman, o'zim bilmayman. Rosa qiziq bo'ldi-ku, bu yog'v'bi... Ularning tarixiga yetishdim deganda...

Xat go'yo qulf-kalitlanib qolgandek edi. Balki boshdayoq atay shunday afsunlab qo'yilgandir? Uning kalitini topmoq uchun qanday duolar o'qisam ekan? Bilsam edi!..

Oллоh izn bermasa, hech narsaga erishib bo'lmasligini esa, hali men bilmas edim...

Buvajonisini Sog'v'bingan Bolakay (yoxud ko'plarga qorong'v'bu yashirin bir safar)

O'rtada olov chirsillar edi. Uning qirmizi tillari goh bir-biri bilan achomlashib-o'pishib ketar, goh har yon shox tashlab, raqsga tushayotgan lolarang ko'ylakli uyg'v'bur qizlaridek jamlanib qolardi-da, yana olovrang qilich ko'tarib jihodga chiqqan otliqlardek "urho" solardi.

Gulxan shunaqa gurillab yonmoqda, archa shoxlari bir ajib bo'y taratmoqda edi. Qay bir ho'lroq shoxning bir chekkasi jizillar, hamma nam o'sha yerga tepchib qaynamoqda edi. Ba'zan alangga junbushga kelib, olov ichiga tiqib qo'yilgan qora qumg'v'bhonga yopishib, dastalarigacha quchmoqchi, orasidan o'tib, ichlariga dovur mo'ralamoqchi bo'ladi. Shunda qumg'v'bhon soyasi kichrayib, po'stinga o'ralib g'v'bhujanak bo'lib yotgan bolaning sepkil toshgan yuzlariyu do'ng peshonasi ko'rinish ketadi. U ikkala kaftini juftlab, ustiga yuzini qo'ygan pishillab uxlaydi. Uxlaydi-yu, shaytoni tezroqmi, tushida ham jim yotmay, bir g'v'balati jilmayib qo'yayotir. Xuddi birovni mazax qilgansimon... Yuzlari yoyilib, lablari qimtilgudek shu jilmayishida bexos qiqirlab kulib yuboradigandek...

Uning yonginasida, gulxanga yaqin joyda ulkan yong'v'boq to'nkasidek bo'lib, yelkasiga po'stinini tashlagan bir odam, qarshisida esa eski qora choponli, naynov, ustiga-ustak uzun sapcha bosh kimsa qo'lidagi cho'p ila olov titkilab o'tiripti.

Unisining qop-qora soyasi xarobaning yarim tosh devoriyu shiftiga dovur egallagan bo'lsa, bunisidan teraknikiday uzun soya tushib, devorga yetganda bir, shiftda bir sinib, so'ng cho'rt uzilgan.

Ular qo'ngan yer eski karvonsaroy shekilli, tepa shifti gumbazsimon ko'rinadi. O'sha yoqdan ba'zan ko'rshapalaklarning sharpasimi - nimasi kelganday bo'ladi. Boshqa tiq etgan tovush yo'q. Hali chirildoqlar uygʻonishmagan: kirib ketgan kovaklarida to'ng qotib yotishi.

Lekin tun qaroqchisi boyo'gʻbʻli sergak ekan, gulxan yoqilgandayoq uchib ketib edi. Shundan beri xaroba atrofida aylanib halak. Hali u yonidan, hali bu yonidan uchib o'tib, bir yerlarga qo'nadi-da, xunukdan-xunuk, sovuqdan-sovuq sayrab qo'yadi.

Hozir ham o'pirilib tushgan eshikka yaqin joyda sayrab yubordiyu kiraverishdagi otlar hurkib ketib, qay biri o'zini orqaga tashlab, qay biri pishqirib, tizginni uzgudek bo'ldi. Ikkalasi ham quloqlarini ding qilib, yem xaltalarini boshlariga ilib, qochgudek holga tushgan edilar.

- Dr-r, jonivorlar, o'takangiz yorilmasin, - deb o'rnidan turdi daroz odam. - Uning soyasi o'zidan uzun, shift o'rtasiga yetgudek edi. - Bir kechalik mehmonmiz, denglar - tinchiydi, - deb ularni tinchlan-tirishga urindi. Sal o'tmay ular yemto'rvalariga andamon bo'lib, yana kusur-kusur don chaynashga tushdilar.

- Ha, bu boshqa gap. Bir kechaga shuncha ayyuhannosmi? - deb qaytardi u.

Bu orada qumgʻbʻon shaqirlab chiqib, o'z ashulasini boshladi. To'kilgan suv jizilladi.

- Kiyik o'tingdan bormi? - dedi "ulkan to'nka"ga ovozi bitib. U qumgʻbʻonni bandidan ushlab, olovdan chetga surmoqchi edi, qo'li kuyib, ilkis silkidi: - Ho'v, zangʻbar, chippa oldi-ya! - deb so'kindi. Po'stini yelkasidan sirgʻbalib tushib, orqasidagi bahaybat soya ham "quladi". Bolaning gʻbʻujanak oyoqlariga dovur ko'rindi. U hiyla bo'ychangina edi, rosa charchagan shekilli, qilt etmay pishillab uxlayapti. Qo'li kuygan kimsa po'stinsiz ham haybatli, yelkalari keng-keng, yagʻbʻrindor edi.

U jon achchigʻbʻida qo'lga tuf-tuflab edi:

- Ha, o'lmang, endi topdiz, aka pochcha, kuyganning davosi tufuk. Yaxshilab tufuklay bering, - dedi sherigi uning joniga ora kirmoqchi bo'lib.

- Ko'p mahmadanalik qilmay, aytganni bil! Choyni damlab, dasturxonni yozsang-chi, - dedi jerkib, aka pochcha deganlari. - Qorin piyozdi po'sti bo'p yotib- di-yu, boyo'gʻbʻlidek sayrashingni qara.

- Xo'p, dedik-ku, aka pochcha, bir ogʻbʻiz so'ziz. - Naynov chaqqon turib, xurjundan bir nimalar ola boshladi. So'ng belbogʻbʻi bilan qumgʻbʻonni ushlab, olovdan surdi. Hamon shaqirlashi tinmagan suvga bir chimdim kiyik o'ti tashlab:

- Ana, aka pochcha, choy ham gatop. Endi ochildasturxonni yozib yuborsak, qazi-qartalarni kesib tashlasak, Siz Xudoyorxon - biz Pusulmonqul-da, - deb xurjunni titkilamoqqa unaldi.

- Pusulmonqulingga balo bormi? Kim o'zi? - dedi haybatlulv kimsa kuygan qo'lini hali etigining qo'njiga, hali yengiga suykab.

- Iya, aka pochcha, Sizni kim o'ratepali deydi, Pusulmonqulni bilmasangiz. Kimni yurtidan o'tib boratrgan ekanmiz? U shu qipchoq elatidan-da. Xo'b tullagu bir dovyurak odam. Kuyovining nomidan qancha vaqt yurt so'ragan, - dedi daroz sherigi yorugʻbʻ yerga dasturxon yoza boshlab. - Qamchisidan qon tomib, qilichidan...

- Har qancha qilichi qonsiragan bo'lsin, bir qipchoqqa berib qo'yadimi taxtni? G'urur qani, xon degan nomi qani?! Kim ekan u qo'gʻbʻirchoq xon?

- Taxtni topshirib qo'ymagandir-u, lekin qaynota qaynota-da, aka pochcha.

- Xonga boshqa qiz qurigan ekanmi? Yurt to'la qizlar sochini tarab o'tirsayu bu kishim allaqanday qipchoqqa... - Kuygan qo'lning alami tarqamasdimi, hech hovridan tusholmasdi u.

- Voy, aka pochcha-ey, xo'b gʻbʻalati gaplarni aytasiz-da... Xudoyorxonni kim xon ko'taribdi?!. Bola yoshida o'zi ko'targan-ku.

Keyin qizini berib, qaynota ham bo'lib olgan-da, u makkor. Keyin esa haddidan oshib, adabchasini ham yegan.

- Ana, men nima dedim. Yebdi-ku, adabchasini! - dedi haybatlulv kimsa tushib ketgan po'stinni o'tirgan ko'yi qayta yelkasiga tortib.

- Xo'p, nima bo'p tumshugʻbʻidan ilinibdi? - Bu tarixga endi u qiziq boshlagan edi.

- O'ris bilan til topishib qo'ygʻan ekan, xon aytganiga yurmayvergach...

- Taxt o'lsin-a, shirin bo'lmay. Xudo urmasa, kofirga quchoq ochadimi? Adashtirsa shu-da. Xo'sh, ke-yin-chi?

- Keyin nima bo'lardi?! Xon ham sassiq choldan qutulolmay turgan ekan, tarafdorlar topib qipchoq-qirgʻbʻiz qirgʻbʻiniga fatvo bervorgan-da, tutganni so'yishgan, - dedi u bo'yniga qo'lini tortib ko'rsatib. - Oqibatda qancha begunoh...

- Pusulmonquling-chi, qochib yuborolmabdimi?

- Nega qochmaskan?! Sichqonni inini ming tangaga olib qochgan-u, bo'lmagan-da. Tutib kelib temir qafasga solib, o'rda oldiga osib qo'yibdilar. O'sha o'tirishida ham, - dedi u choyni shopirib-shopirib qaytarib, - tomoshaga kelgan xalq "Ha, xoling qalay, cho'loq?", desa, past tushmay "Alhamdulillah, hali ham sizlardan yuqori bir yerda o'ltiribman", deb kular emish.

- Xo'b ajab chapani ekan-ku? - dedi haybatlulv hayratga tushib. - Dor tagida turib-a? Yurakdanmi bergan ekan.

- Choyga qarang, - dedi sherigi choy uzatib. - Iloj qancha! Omon qo'ymasliklarini bilgach, kishi botir bo'lib ketsa kerak-da.

Ot pishqirdi, so'ng tezaklab, dumini silkib-silkib qo'ydi, o'sha yoqdan izgʻbʻirin esib, gulxan gurilladi va shu barobar yangi tezak hidini anqitib o'tdi.

- Jazosi ham gunohiga yarasha bo'lgandir? - dedi haybatlulv lochira nonni kusurlatib.

- O'sha til biriktirgan ogʻbʻiziga qo'rgʻbʻoshin quygan ekanlar.

- Hov-v, - dedi haybatlulv kimsa, - shunaqa jazolariyam bor ekanmi?

- O'sha paytda-da, aka pochcha.

Bola uyqusirab tamshandi. Sovuqsirab, oyogʻbʻini yigʻbʻib, gʻbʻujanak bo'lib oldi. Yelkasiga po'stin tashlagan haybatlulv kimsa unga o'girilib qarab qo'ydi.

- Hoziram... ayamasalar kerak?...

Daroz sherigi ilkis qarab, tek qotdi: damlayotganchoyi choyda, piyolasi qo'lida qoldi:

- Nimani... aytasiz?

- Bu tarz yurishlarimizni-da.

- Qanday? Tushunmadim.

- Xudo asrasin-u, qo'lga tushsak deymen-da. Qancha berisharkin, Xudoyberdi? - Haybatlulv kishi dasturxondan yana bir burda lochira ushatib olib, ogʻbʻiziga soldi. Lochira kusirlar edi.

Choypaz o'ziga kelib-kelolmay qo'lidagi choyni qumgʻbʻonga qaytardi.

- Nafasizzi yel olsin, aka pochcha. Bu o'sha tarz ishlardan ekanmi?..

- Farqi nima?

- Mahovat qildiz-da, toza.

- Shoshma sen. Bu ham til biriktiruvmi?

- Biriktiruv.

- Jindek ta'ma aralashgan joylari ham bor-a?

Daroz sherigi e'tiroz bildirmoqchi edi, haybatluy uni kesdi:

- Xo'p, deyaver!

- Hay, jindek shirikomayu va'dalar bor deylik. Daragi topilgan xeshlar uchun...

- Bu yurishimiz-chi, hufiya yo'llar izlab? Dovonu sarhad oshamiz deb?

U yelka uchirdi:

- Ha, shusiz u diyorga o'tib bo'lmasa, so'zni ustidan chiqib bo'lmasa...

- Yana nima deysan?

- Lekin niyat-chi, aka pochcha? Niyatga qaramaysizmi? Aytdim-ku: zamonni zayli bilan o'sha kishimning bir ishlari tushib qopti.

Tirnoqlarini izlashayotgan ekan... Yotardingiz-da, o'sha Jangobning choyxonasida chilimni quldiratib!

- Yotardim, gashtiga nima yetsin edi. Mana bunday majhul ishlarga aralashib yurmay.

- Ishshi bitirib, yana yotaverasiz, - deb kuldi yo'ldoshi. So'ng choy quyib uzatdi.

- Farqi nima? - to'ngʻʻilladi u.

- Farqi... har kuni osh, qazi-qarta, norin... Ko'ngil tusaganini buyurasiz. O'zingiz xon - ko'lankangiz maydon. Yana nima kerak Sizga? Qolaversa, so'zimni yerga tashlamay kelyapsiz.

- Ha, barakalla, bilarkansan-ku. Sendan bo'lakka o'lsam ko'nmasdim.

- Qadrdonlik shu-da, aka. U dunyo-bu dunyo unutmayman.

- Baxayr. Ishqilib, shu jinqarchani eson-omon buvasiga yetkazib borsak bo'lganimi? - Aka pochcha choyni bir chetga qo'yib,

qazidan totindi. - Ammo-lekin manaving bu dunyoning qazisi bo'lmapti! Im-m... chaynagan saring elitadi-ku, odamni!

- Toyniki-da, aka pochcha. Olavering, osh bo'lsin. Tagi ko'p, gʻʻamlaganman juda,- dedi u maqtovdan eshilib.

Bola qunishib qimirladi. Keyin gulxanga o'gi- rilib yotib oldi. Aka pochcha unga yelkasi osha qarab qo'ydi:

- Biron narsa... tamaddi qilib olsa bo'lardi buning?..

- Sal tiniqib olsin. Ochqasa, o'zi uygʻʻonadi, - dedi Xudoyberdi. - Yo'l qoqqan-da.

Qay bir ot oyogʻʻini kerib, voshillatib bo'shanib yubordi. Narigisi pishqirib, betoqatlandi. Uzoqda haqqu sayramoqqa boshladi.

Va yana tinchlik cho'kdi. Yolgʻʻiz gulxangina behol yonib, uning tillari ham mudrab-mudrab ketardi. Bola yana tamshandi.

- "Ochlikni yostiq ko'taradi"mas-da. Uygʻʻbotsang bo'lardi, - dedi ko'ngli bo'lmay haybatluy.

- Savol xaltasi ochilib ketsa, urishib yurmaysizmi? Ko'rdingiz-ku, kuni bilan, - dedi sherigi tamaddiga qo'shilib. - O'lay agar, "O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich"lardan qati kam?!

- Oxirzamonning zumrashalari-da, - deb ishshayib qo'ydi aka pochcha. - Ruhi qari bularning.

- Yo'q, zuvalasida bir nima bor. Buvasi bekorga qidirmaydi.

- Yuzida nur ko'rganday ko'pirasan-a, Xudoyberdi. Sal pastroq tush, sepkilini ko'r.

- Sepkil ko'tarilib ketadigan narsa, aka pochcha. Qolaversa, buning buvasi zo'r odam, unaqa himmatli kishini siz uchratmagansiz.

- Ko'rarmiz himmatini ham. Choydan quy, bu dunyoniki bo'lmapti.

- Qumgʻʻonda pishgan-da, aka pochcha. Har kuni ichib yuribsizmi?

- Qolsa, shu qoladi xotira bo'lib, bu yurishlar-dan.

- Gulxanni, mana bu o'tirishlarimiz, togʻʻu tosh oshib yurishlarimizni aytasiz-da!- dedi beshikchi uzun esnab. Yana haqqu uygʻʻondi, sherigini chorlab nola qildi. Soyning narigi betidami, togʻʻdami - boshqasi sado berdi. Ikkalasi galma-gal "quv-quv"lay boshladilar.

Bola yotgan joyida tamshanib turib, uyqusiragancha, aniq-taniq gapirib yubordi:

- Chaman togʻʻam kelsinla - ko'rasan!

- Ol-a! - dedi beshikchi, mudrab borayotgan joyi-da bir sakrab tushib.

- Eshitding-a? - deb qo'ydi aka pochcha ham u tomonga bosh irgʻʻab.

- Alahsirayapti-da, amakisi, - dedi u pinak buzmoqchimasdek. Lekin o'zi jumboq ichida qolgan edi: "Chaman degani kim ekan?.."

- Taniysanmi? - dedi aka pochcha huzurlanib choy ho'plab.

- Birinchi eshitishim, - dedi beshikchi.

Ot bosh to'lgʻʻay-to'lgʻʻay pishqirdi. Aka pochcha o'sha yoqqa xayoli qochib, dedi:

- Boshidan to'rvasini chiqarib qo'ysang bo'lardi. Kusar etibam da'vo qilaveradi.

Sherigi turib otlar tomon yurdi. Uning uzun soya-si xaroba devoriga qapishib borib, o'sha tomonning jivir-jiviriga qo'shilib ketdi.

"Tis-tis"lab so'kingani, so'ng otning sagʻʻbrisiga shapatilab, erkalagani eshitildi. Allaqancha vaqt otlar bilanmi, yana nimalar bilan andarmon bo'lib, yo'q bo'lib ketdi. Qaytib kelib, bir chekkada qo'lini chaydi-da, tik turgancha belbogʻʻiga artina boshladi.

- Shunaqqib, eshitmaganman, degin?

U tilini "toqillatib" edi, tungi jimjitlikda jangillab ketdi. Bola boshini o'nglab yotib oldi-yu, uygʻʻonmadi.

- Yo biz xato eshitdikmi?

Beshikchi boya o'zi o'tirgan tosh ustiga cho'kib, choy quya boshladi:

- Bola bir uyqusiradi-qo'ydi-da... Amakisi bo'l-ganda nima, bo'lmaganda nima?..

- Sen aytasan-da. Men bir mahal o'sha Jangobda eshitgandayman. Otasiniyam tanimaydigan bezorilar davrasida. Hech narsadan toymasdi ular. Keyin yo'q bo'p ketdi bir sira, qamalib ketdimi, otilib ketdimi - bilmadim.

Beshikchi choy ho'plab turib, qalqib ketdi. So'ng o'zini bazo'r bosib, kuldi:

- Xo'b, vahima qildizmi, aka pochcha?

Aka pochcha deganlari norozilanib qaradi. Gulxanga cho'p tashlab, dedi:

- Sen nimani bilasan! Bu mashru o'gʻʻirilarning qonuni yomon! Hazillashib bo'lmaydi.

- Nima, biz ularga tegishli narsaga qo'l cho'zibmizmi, cho'chiymiz? Biz savob uchun boryapmiz. Mirzahoji buvani deb.

Bolapaqirni avrab opqochganlar javobini beravursin. Haqlarini qurutday sanab olishgan.

Aka pochcha "ot tish"larini ko'rsatib sassiz kuldi:

- U tomonlarga qaytib bormaydigandek gapirasana.

- Qayoqqa-qayoqqa?

- Eski Jo'vaga-da.
- Qaysak nima bo'пти? - anglamaganday qaradi beshikchi.
- Kosa kosaga to'gb'ri kelganda ham shu qo'shig'ingni aytarmikansan?
- Nafasingizni yel olsin. Ko'p sovuq nafas qildingiz-da, bugun, - deb u qo'zgb'olib qo'ydi.
Choyning tagini sepib tashlab, bunga qaradi, - qo'yaymi o'zlariga?
- Quy, juda yutimli bo'пти. Nima balo, ko'zni shamgb'alat qilib ko'knoridan zig'bircha tashlavorganmisan?
- Ko'knor otliqqa yo'q-ku, aka pochcha, kiyik o't shunaqa bo'ladi. Ichgan sari chanqatvuradi.
Hech kim kutmaganida bola boshini ko'tarib, turib o'tirdi. Yuz-ko'zlarini ishqab, esnadi-da, laxcha cho'gb'olib tushgan olovning holsiz-holsiz alanganib qo'yishiga esi og'ib tikildi. So'ng bir junjikib, tizzalarini quchib oldi. Qo'yib bersa, yana yotib uxlaydigan.
- Kalla pishdimi, - dedi aka pochcha o'girilib.
- Yotaqol bo'lmasa, Yodgortoy, - dedi beshikchi mehribonchiligi tutib, - birato'la tiniqib olasan.
- Qorni-chi, buning? Yo bolani nafi yo'qmi? G'alati ekansan-ku, sen!.. - Uni jerkib berib, bolaning boshini siladi aka pochcha deganlari. - Tura qol, toybola. Yuzingni chayib kelsang, tamaddi qilib olasan. Ochqab ketgandirsan, axir!
Bola javob o'rniga ham uzun esnadi.
- Ha, ana, quldirab-chuldirayotgan ichaklaringdan ma'lum. Dasturxonni ko'rib, nog'bh'ora chalyapti. Tur, bolaning qo'liga suv ber, - dedi u chap yelkasidan sirgb'olib tushib borayotgan po'stinni o'nglab.
- Suvmi? Yodgortoygami? U yuzini yuvaman deydoyu biz qarab turamizmi? - dedi beshikchi qoshdan qovoq qaytarmay.
Bola yuvib, uzun amakining belbog'iga artinib, joyiga qaytdi. Ungacha aka pochcha uning joyini olovga yaqin surib, gulxanga o'tin tashlagan bo'ldi. Kelgach, dasturxonni yaqin surdi.
- Ol, manavi qazilardan. Nonga qo'shib olaver.
Unisi choy quyib tiqishtirdi:
- Ichib boqing-chi, toy bola, sovub qolmabdimi? Yo'q desangiz, qaytadan olovga qo'yvoramiz.
Bola hamon yarim uyqusirab kavshanar, aka pochcha unga rahmi kelib tikilardi. Nimalar xayolidan kechadi, o'ziga ayon, lekin sherigiga yanibroq qarab qo'yardi.
- Bolapaqirni yo'l qoqib qo'yibdi. Senga aytuvdim-a, egarga bir nima to'shatib ol, deb.
- Devdingiz-devdingiz. Shoshganda salomga alik topilmay... survoribmiz-da.
- Qazini unutmabsan-ku? Yana "Yodgortoy"laganing-ga o'laymi!
- UZR, bizdan o'tibdi, aka pochcha. - U qo'lini ko'ksiga qo'ydi.
- Mendanmas, bundan so'ra...
- So'rayman ham... - dedi u o'sha-o'sha ta'zimda, - ukam kechiradi.
- Kechirasanmi? - dedi aka pochcha azza-bazza kuraklarini silab.
Bola kavshanishdan to'xtab, beshikchining betiga ijirgb'hanibroq tikildi. So'ng qo'lini choyga uzatdi:
- Bu kishi avval rostuni aytsinla...
- Nimaning rostini? Men nimani yashiribman? Voy, huvarining bolasi-ey, odamni toza xijolatga qo'yding-ku. - Beshikchi chindan o'zini qo'yarga joy topolmay qolgandi.
- Bo'masa, qayoqqa opketayotibsila? - choyni ichmay ham, arazlagandek qarab qo'ydi u. - Sotganimi?
Tomdan tarasha tushgandek bu gapdan hamrohlar bir-birovlariga qarab olishdi.
- Sen qattan olding bu gapni? - dedi beshikchi, axiyri tiliga zabon bitib.
- Duvana ham silaminan sherikmi, axir? - dedi bola hamon arazidan tushmay.
- Qanaqa duvana, Xudoyberdi? Kimni aytopti bu? - dedi "aka pochcha" deganlari ang-tang qolib.
Beshikchi tushuntirishga o'ngb'haysizlanib, o'mnashibroq o'tirishga urindi.
- Hali mendan yashirgan gaplaring ham bormidi?- dedi "aka pochcha" azza-bazza xafa bo'lib. U jahl ustida piyola tagida qolgan choyni sepib edi, u gulxan chetiga yumalagan cho'gb'nga tushib, voshilladi, undan pista ko'mir hidi anqib ketdi. Beshikchi xokisor termuldi:
- O'libman-da, aka pochcha, namozxon odam...
- Unda bu gap qaerda chiqopti? Duvanasi kim?
Beshikchi - sodda-to'pori odam, bolaning oldida ming xijolatlarga botib, (ochmasa bo'lmaydi, ochsa - bola bor) o'ngb'haysizlana-o'ngb'haysizlana sirni ochishga majbur bo'ldi:
- Taniysiz Siz ham... Anuv Kallaxonaga tanda qo'ygan sariq moshak bor-ku, Davangir devona?..
- Tilanchimi?.. Uning bu ishga nima daxli bor? G'irt savdoyi-ku, - dedi ensasi qotib u.
- Shunaqa, bir qarasangiz savdoyi, bir qarasangiz duogo'y. Tingchimi, to'gb'ri odammi - birov bilsa o'lsin agar, - dedi beshikchi, - biz taniganimizdan beri shu yurishi.
- Bilarkansan, nima qilib osh-qatiq bo'lib yuribsan?
- Qaydagi gaplarni gapirasiz, aka pochcha? Men uni keyin bildim-ku, - dedi beshikchi ham o'z navbatida ginaxonlikka tushib.
- Sherik deb turibdi-ku, bu? - Aka pochcha o'z ginasidan qolmasdi.
- Men Turob maxsumni bilaman. Bu o'sha kishimni iltimoslari. Siz Mirzahojimdan ko'p yaxshilik ko'rgan odamsiz, Xudoyberdi, shu xatminan manavi omonatni u kishimga yetkazsangiz, dedilar. Men Sizga ishonchim, endi yo'l biladigan odam toping, dedilar. Men Sizga uchradim. Bu yoqlarga kishi bilmas qatnaganingizni eshitib, aka pochcha.
- Davangir-chi? O'rtada u nima qilib yuripti? - Aka pochcha deganlari hamon bo'shshmasdi.
Beshikchi yelka qisdi:
- U bolani qaydan topgan, qaydan ergashtirgan, qanchaga kelishgan - o'zi biladi. O'gb'irlab-mo'gb'irlagan bo'lsa, gunohi o'ziga. Men fiysabilloh, azbaroyi Mirzahojim uchun, rozi bo'lganman. Meni bilasiz-ku, aka pochcha, bir umr harom luqmadan hazar qilib yurgan odam, nahot shu ishga ko'nsam? Uchini sezsam, aytmasmidim.
Aka pochcha tagidagi egarga o'mnashibroq o'tirib, tizzalarini uqaladi. Yapasqi yuzidan jahl soyasi ariganday edi.
- Eshitting? - dedi bolaga qiygb'boch ham erkalagannamo qarab. - Biz devona bilan oftobda qatiq yalashgan joyimiz yo'q. Biz piysabillo buvangni yurtiga ketayotirmiz. Shirinkoma uchun hammas. Shunchaki, man manavi beshikchi to'gb'hangga qayishib, u buvangni tanigani hurmatidan. Qolaversa, buvang zamonnini zayli bilan bu yoqlarga ko'chib kelib qolgan. Asli tagi o'sha o'zimizni

tomondan, ha. Cho'lpon otadanmi, qerdan edi, Xudoyberdi?

- Yo'q, aka pochcha, Qangv Bli degan joydan. Yaqin-yaqingacha ham u kishidan qolgan Olmazor bogv B dala shiyponi qilib qo'yilib edi. Jannatning bir bo'la-gi edi, bamisoli. Agar manavi yer qimirlashdan ke-yin buzilib ketmagan bo'lsa... - dedi beshikchi shirin xotiraga berilib. - Voy, uning gv B'ir-gv B'ir shabada- lari...

- Shunaqa, o'gv B'lim, sen bizni kim deb o'tiribsan. Qaroqchilarga mengzamay qo'yaqol. Ularga ro'parayam bo'lma, ishing ham tushmasin. Undan ko'ra, qorinni mixla. Qazidan ol. Och qorindan puch o'ylar chiqaveradi, ol.

- Bo'masa, kimsila? - deb to'ngv B'illadi bola choyni joyiga qo'yib. U ogv B'zidagini kavshangisi ham kelmay qolgan edi.

Ikki hamroh bu gapdan baravariga xaholab kulib yubordilar. Tarashadek ozgv B'in, ammo bo'ydan Xudo bergan beshikchi uning gapidan ta'sirlanib, tizzasiga shapatilardi:

- Avvalboshda nima dedim? Buvang sogv B'inibdilar. Senam sogv B'indingmi, dedimmi?

- Dediz...

- Borasanmi, dedimmi?

- Dediz...

- Yana nima deysan? Qayoqqa opketyapgan ekanmiz?- dedi kulib.

- Bekordan-bekorgami?.. - Bola o'qrayib qarab qo'ydi.

- U nima deganing? Sen bizni xafa qilyapsan. - U keragi bo'lmasa-da, oldidagi qumgv B'onni nari surdi.- Shunaqa gaplaring borakan, jo'namasimizdan ayt-maysanmi? Obborib tashlardik uyingga!

- Ja-de... - Bola yo yomon tush ko'rib turgan, yo chapaqay jahli chiqqan edi, hech ochila qolmasdi.

- Ha, xo'p. Buvang quruq qo'yimas. Necha yil bedarak ketgan qizining daragini eshitib, tirnogv B'ini ko'rib, eshilib ketar, bosh-oyoq sarupo-suruqlar qilar, shirinkomalar berar. Bu degani biz o'shaning dardida o'lib turibmiz, deganimasdir? O'ylama, biz ta'ma deb yurgan odamlarmasmiz. Xolis yaxshilik uchun chiqqanmiz yo'lga. Bunaqa qilaversang, hay deymizu orqaga qaytvora qolamiz. - Tik turgancha mudrayotgan ot xo'rsingan kabi pishqirib, bosh silkidi. Laxcha cho'gv B'ga aylanib bo'lgan gv B'o'lacha sinib tushib, chalasi tutay boshladi. Aka pochcha chalani ichkariorq surdi:

- Ko'nglim chopmovdi-ya, avvalboshda. Jangobda oshxo'r'ligimni qili-ib yotmiymanmi... - deb qo'ydi ularning betiga qaramay.

- Yo'q, rost, haliyam kech emas, - dedi beshikchi bolakayga. Kamiga xo'p desa hoziroq qaytadigandek qilib qarab qo'ydi.

- Sen endi jichcha sabr et. Shu dovondan oshvolsak yetdik hisob. Bovangnikida qolishni istamasang, qaytaverasan bizminan.

Shunga ham ota go'ri qozixonami?- dedi sherigi yumshab.

- Ha-da, aka pochcha bilmagan-ko'rmagan, oshmagan dovon yo'q. Bu yoqqa ham Xudo bilsin, necha qayta kelib-ketganlar.

- Necha qaytamas, ishqilib o'tganmiz-da, - de- di u.

- Shu-da. Shuning uchun Sizni qora tortib kelyappiz-da. Bilib qo'ysin bu ham, - dedi beshikchi taskin berib. - Biding-a,

Yodgortoy?

Yodgor deganlari beshikchiga qizarinqirab qarab qo'ydi:

- Yodgormas, Yodgormurod. Bo'lmasa, tanishmaydi, - dedi negadir ko'zlarini olib qochib.

- Iya, shunaqamidi hali?! Chiroyluvdan chiroyluv oting borakan-u, biz bilmay yuribmiz. Voy, saniyu. Aytmaysanmi shuni! Obbo, toy bola-ey. Opke piyo-langni, choyingni yangilab beray. Qaynoq-qaynoq ichsang, uyqung qochadi. Hademay, tong ham yorishadi, so'ng jo'naymiz. Olaqol, - dedi beshikchi kaftini kaftiga ishqab, uni erkalab.

- Ha, amaking tahorat olib, namoz o'qib bo'lishi-la jo'naymiz. Kun ko'ringuncha, sarhaddan o'tib olishimiz kerak, - deya ogv B'ir qo'zgv B'olib, "aka pochcha" deganlari tura boshladi.

- Ha, xo'p. Buvang quruq qo'yimas. Necha yil bedarak ketgan qizining daragini eshitib, tirnogv B'ini ko'rib, eshilib ketar, bosh-oyoq sarupo-suruqlar qilar, shirinkomalar berar. Bu degani biz o'shaning dardida o'lib turibmiz, deganimasdir? O'ylama, biz ta'ma deb yurgan odamlarmasmiz. Xolis yaxshilik uchun chiqqanmiz yo'lga. Bunaqa qilaversang, hay deymizu orqaga qaytvora qolamiz. - Tik turgancha mudrayotgan ot xo'rsingan kabi pishqirib, bosh silkidi. Laxcha cho'gv B'ga aylanib bo'lgan gv B'o'lacha sinib tushib, chalasi tutay boshladi. Aka pochcha chalani ichkariorq surdi:

- Ko'nglim chopmovdi-ya, avvalboshda. Jangobda oshxo'r'ligimni qili-ib yotmiymanmi... - deb qo'ydi ularning betiga qaramay.

- Yo'q, rost, haliyam kech emas, - dedi beshikchi bolakayga. Kamiga xo'p desa hoziroq qaytadigandek qilib qarab qo'ydi.

- Sen endi jichcha sabr et. Shu dovondan oshvolsak yetdik hisob. Bovangnikida qolishni istamasang, qaytaverasan bizminan.

Shunga ham ota go'ri qozixonami?- dedi sherigi yumshab.

- Ha-da, aka pochcha bilmagan-ko'rmagan, oshmagan dovon yo'q. Bu yoqqa ham Xudo bilsin, necha qayta kelib-ketganlar.

- Necha qaytamas, ishqilib o'tganmiz-da, - de- di u.

- Shu-da. Shuning uchun Sizni qora tortib kelyappiz-da. Bilib qo'ysin bu ham, - dedi beshikchi taskin berib. - Biding-a,

Yodgortoy?

Yodgor deganlari beshikchiga qizarinqirab qarab qo'ydi:

- Yodgormas, Yodgormurod. Bo'lmasa, tanishmaydi, - dedi negadir ko'zlarini olib qochib.

- Iya, shunaqamidi hali?! Chiroyluvdan chiroyluv oting borakan-u, biz bilmay yuribmiz. Voy, saniyu. Aytmaysanmi shuni! Obbo, toy bola-ey. Opke piyo-langni, choyingni yangilab beray. Qaynoq-qaynoq ichsang, uyqung qochadi. Hademay, tong ham yorishadi, so'ng jo'naymiz. Olaqol, - dedi beshikchi kaftini kaftiga ishqab, uni erkalab.

- Ha, amaking tahorat olib, namoz o'qib bo'lishi-la jo'naymiz. Kun ko'ringuncha, sarhaddan o'tib olishimiz kerak, - deya ogv B'ir qo'zgv B'olib, "aka pochcha" deganlari tura boshladi.

U shunaqa davangirday edimi yoki yelkasidagi be-so'naqay po'stin shunaqa ko'rsatyaptimidi, ishqilib soya-siga qo'shilib, u juda haybatlulv ko'rinar edi.

Gulxan esa bir togv B'ora laxcha cho'gv B'ga aylanib alanganalar, alanga berolmaganlari bir chetdan boshiga kul tortib, pinakka ketmoqda edilar. Tun o'z ishini qilgan, gulxan atrofidagilarni qora chodiriga o'rab bo'l-gan, o'sha chodir tobora kichkina tortib, endi unga uch kishining o'zi ham sigv B'may qola boshlagan edi.

Haqu ham, otlar ham mizgv B'ir edilar, chamasi. Tiq etgan tovush eshitilmasdi, faqat goh-goh anuv o'pirilgan joydan kirgan izgv B'irin yel shu chodirdagilarga urilib, yana qochib qolar edi.

Xudoning Suygan Bandasi (yoxud hikoyachimizga noma'lum bir kalavaning uchi)

- Hov, tasqara, hov sariq moshak! Kimni gel qilmoqchisan? Kimni sariq ilondek avrayapsan?.. - U sekin turib belidagi qayish

kamarini bilagiga o'ray boshlab edi, elanib turgan devday odam... tuyquq o'zini yerga otib, oyoqlari ostiga gunohkor sherday emaklab kela boshlasa, Zokir demaganlarning jon-poni chiqib ketdi. Jon holatda tisarilib, ustoliga qisilib opti.

U esa:

- Jon bolam, sadagv'hang ketay bolam, urma paqat, tepma paqat, hammasini o'zim aytub berum... - deb o'tinar, titrar edi.

Vo darigv'v, titrayapgan kim-u, o'takasi yorilgan kim?!

- Tur-e, isqirt! Ayaganga rahmating shumi?! - Zokirning peshonasidan muzdek ter chiqib, tirnoqlariga dovur jimirlab ketgan edi. Xayriyat, "dev" chekildi.

O'lgan arslonning o'ligidan ham qo'rq, deb shuni aytarkanlar-da?..

Ular bugun shubhalanib tutib kelishgan odam - devday tilanchi chekilishga chekildi-yu, hech kutilmaganda o'sha zax yerga o'tirvolib, tizzalarini quchoqlab, bir gv'balati guvranib, ho'ng-ho'ng yigv'blamoqqa tushib berdi-ku.

Ajab odam ekan, bu Davongir devona deganlari. Nima balo, chini bilan begunohmi yo yolgv'bondakam yigv'bi bilan bularning ko'zini bogv'blayaptimi? Mumkin. Bu bozor odamlaridan, tilanchilardan har baloni kutsa bo'ladi.

U "dev" shu holiga qaysi askar yoki asirdan qolgan ro'dapo shinelining yengini yuz-ko'zlariga bosganacha ulkan jigarrang beshiktervatdek chayqalib:

- Shul sho'rishlar-da, var ekanmu, ey quday? - deya bosh to'lgv'hab-to'lgv'hab, mishigv'v-tupugiga belanib borar edi.

"Nima balo, adashibdilarmi? Bu emaskanmi?"

Zokir kamarini ustol ustiga namoyishkorona itqitib, tilanchiga kishi bilmas zingil tashladi. Uning nazarida devonaning qulogv'bi ding, ko'zi to'rt, buning alaxsishini kutayotgandek, kutib turib tashlanib qoladigandek (!) edi.

Tashlansa ham unaqa-bunaqa odamning kekirdagini uzib olsa ehtimol?.. Och devning o'zi-ku! Bu vahima qaydan ilashdi, Zokirning kallasidan hech nari ketmasdi. Sherigi ham qaytsa qayta qolmadi. Harna qora edi.

- Turing, zaxda nima bor, "eshak"ka o'tib o'tiring,- deb buyurib, murosaga ko'chganini bildirdi-da. o'zi ham joyiga cho'ka qoldi.

Zora yaxshi gapga ilon inidan chiqsa. Shunaqa ilinj ham yo'q emasdi unda.

Devona unga qarab ham qo'yamay, qo'lga tiralib turishga unaldi. Suyaklari shiqirlab (o'ziyam bir qop suyak ekan-ey!) bir amallab turdi-da, ketini qoqib, indamay borib, devor tagidagi taxtaga o'tirdi.

Boya ikki kishilashib urib, yerto'laga tiqqanlarida uzilib-uchib bitganmi, qo'sqi shinelining bittayam tugmasi qolmagan, surmarang yolgv'biz belbogv'bi demasa, ko'ksi valongor, o'zi bir alpozda edi.

- Xo'sh, rostiga ko'chamizmi yo yana kelgan joyidan davom ettiramizmi? - dedi Zokir qayish kamarni nari surib. O'zi urgisi yo'gv'v-u, qozoqi do'q ish beradimi, deb o'ylar edi.

- Huh-h, - dedi devona ichidan dudi chiqib: u chiqayotgan dud odam zotiniki emasdi, tavba.

- Xo'sh, aytasizmi? - dedi Zokir ko'ksini us-tolga berib. U Xudoning yaratilganacha qolgan bu bandasiga achina boshlagan, achinayotganiga o'zi ham hayron edi:

"Nimadan qo'rqdi? Devonaning qaragv'bishiga uchrab qolishdanmi? Balki".

Devona o'sha-o'sha, biron nojo'ya so'z aytib qo'yib, gv'bazabiga uchrab qolishdan qo'rqqandek, aftiga bezillab tikilar edi.

- Nenu istab, nenu qistayursiz - vilmasam, - dedi axiyri tiliga so'z bitib, - o'lumdan xavarim var, o'gv'bir luva - vilmasam, gunohlarimiz yetarlu...

Zokir qaddini biroz ko'tarib, oyoqlarini chalishtirdi. Bu bilan u devonani yana ham xotirjam etish niyatida edi.

O'zi ham hech kutmaganda so'roqni xotirjam boshlagisi keldi.

- Biz Sizni bugun ko'rayotganimiz yo'q. Esimizni tanibimizki, shu Kallaxonadasiz, to'gv'brimi?

Devona uning samimiyligiga ishonib-ishonmay qaradi.

- Tuvri, - dedi ko'zini olib qochib.

- Tilingizdan Ollohning nomi tushmaydi yo tushganmi hech?

- Yuv-yuv, - dedi battar hayratlanib devona.

- Ollohni o'rta qo'yib, kun ko'rib yurgan odamsiz.

- Shu-shu, - deya oldi u.

- Endi menga rostiz ayting. Ollohdan umidingiz bormi? - dedi Zokir boshdagi shapkasini bir chetga olib qo'yib. - Mo'minga o'xshab gaplashaylik bir...

- Var, balam, var, - dedi devona o'ngv'baysiz gv'vimirsib.

- Namoz ham o'qirsiz?

- O'quvmiz, balam, o'quvmiz. O'qumay bo'lami, - dedi u oq-qo'ngv'bir qoshlari tagidan qarab qo'yib, - avval so'raladugv'banu shu-yu.

- Demak, musulmonsiz, musulmonlikka da'vo qilasiz?

- Alhamdulillah-chu.

- Ollohdan ham qo'rqasiz, shundaymi?

Devona gap nimaga kelib taqalayotganini anglab qolib, qoqsuyak tizzalariga tikilib qoldi.

- Nega indamaysiz? Qo'rqmaysizmi yo? - Zokir uning jon joyidan ushlagandek, ustolga ko'kragini berdi. - Gapiring.

- Qo'rqmaydurgan jan... varmu? G'imirlagan jan quday deydu, - dedi u tamoman ruhi tushib.

Zokir qaddini ko'tardi:

- Qimirlagan jon Olloh desa, nechuk siz bu ishlarga aralashib yuribsiz? Oxiratiz kuyib keta- di-ku.

Devona ro'baro'sidagi odamga angrayib tikildi, shu boya o'zini bozordan tutib, surgab-netib kelgan, urib-surib yerto'laga tiqqanlardan bitasimi? U qizarib-netib ketgan shilpiq ko'zlarini yumib-ochdi. Yo'q, o'sha edi, o'shalardan bittasi edi. Qayish kamari ham ustol ustida yotardi.

Qara-ya, qayish kamarni ko'rgan zahoti o'ng yelkasi, boyagi to'qa izlari achisha boshladi. Shumi, boshqasimi, ishqilib urganlari aniq. Urmasalar bunaqa achishmas edi. Tavba, o'sha odam endi tamomi sipo tortib, Ollohni, oxiratni yodiga solyaptimi? Ammo jon joyidan ushladi. Kim Yaratganning gv'bazabidan qo'rqmas ekan?! Tongla mahsharda farishtalari uning amri-la peshona sochidan changallab, jahannamga sudrab ketishlaridan qo'rqmay bo'larkanmi? Hali o'zi bilib-bilmay gunoh ishlarga aralashib qolibdimi? Ko'zi qayoqda ekan?

- Xo'sh, gunohizga iqormisiz? - dedi tergovchi uning xayolidan kechib boraturgan narsalarni uqib olgandek. Nima balo, bularni shunaqa o'qishlarga o'qitadi ekanmi?

- Endi-i, nimu tuvri, shu tuvri, - dedi bo'shshib, - ittimas qilishub edu.
- Ha-a, ana bu boshqa gap, - dedi tergovchi jonlanib. U kaftlarini ishqab o'rnidan turib olgisi keldi-yu, yana o'zini bosdi. Bayram qilishga hali erta edi. - Kim ekan o'sha iltimoschilar? O'shalardan keling, - dedi devonani cho'chitib yuborishdan ancha ti-yilib. - Sizni xizmatiz nimadan iborat edi?
Davongir devona milisa zotidan bunday yumshoq muomalani kutmagan edi, javobga ikkilanib qoldi: hali siz-sizlab turib, hamma gapni sugʻʻurib olgach, qiligʻʻini ko'rsatmasa edi! Ishini sudga chiqarib yuborib? Ishonib bo'ladimi bularga!
- Xo'sh, nimani o'ylanib qodingiz? Bizga o'sha ish buyurganlar kerak. Sizga o'xshab aldanganlar emas, - dedi yotigʻʻi bilan.
- Ildangan? - dedi devona hayron qolib.
- Ha-da. Sizni chohga yuborishayotganini bilmagansiz-ku, to'gʻʻbrimi?
- Nima, men bikar varibmanmu? - dedi devona.
- Tushunmadim.
Javobdan javobga boshi tushib, tergovchining betiga qaray olmayotgan devona ko'z qirini tashlab qo'y-di:
- Nesiga chuchunmaysuz?! Narsa va'da qilishtu, vardim. Menu o'rnumda kim varmasdu!
Zokirning yuragi hapriqib, o'sha narsani bilishga o'pkasi tushayozdi. Ammo endi shu devonaning ko'z o'ngida tuban ketib bo'lmasdi. O'pkasini bosdi:
- Ma'lum gap. Avval bir narsa tikishadi, keyin odam yollashadi. Shunda Siz uchragansiz, to'gʻʻbrimi?
- Yuv, o'zlaru ittimas qilishtu. Shu-shu jaydan balanu irgashtirup versanguz, dep.
- Shoshmang-shoshmang, aniqroq qilib ayting. - Zokir o'rnidan turib, yaqin borib olganini bilmay qoldi-yu, devonani hurkitib yuborishdan cho'chib, yana joyiga qaytdi.
Devona xitlanib bo'lgan, lekin ochib qo'ygan gapini aytmay iloji ham yo'q edi:
- Vuzr, nafs hakalak atup ko'nippan-qo'yippan.
- Ot bilan tuya emasdir, axir? - dedi Zokir unga bo'lishib.
- Qayda?
- Xo'sh?!
- Bir havuch kelar-da.
- Nima? Tillami? - dedi Zokir quloqlariga ishonmay.
- He, yuv, marvarid edu. Shadasi vilan.
- Qiziq, - dedi tergovchi esi ogʻʻba boshlab, kallasidan esa devona ham anoyi emaskan-ku, degan xayol kechmoqda edi.- Xo'sh, va'daning ustidan chiqishdimi?
- Chiqishtu, - dedi devona endi devorga xotirjam suyanib.
- Demak, Siz bolani avrab olib kelib bergansiz, ular...
- Avrap imas, irgashtirup, - deb to'gʻʻbriladi u.
- Yaxshi, qaergacha ergashtirib keldingiz?
- Shu, Juvaning vazarugacha.
- Kelishuv shunday edimi?
- Shunday edu.
- Keyin-chi, nima bo'ldi?
- Nimu vo'lardu, bittasi manavu hamyanumga bir nimu tashlap kettu. Ushlap ko'rsam bir kaft vo'lup shigʻʻbriroptu.
- Bola-chi?
- Qaytub qaraganumda sepkiltay yuv edu.
- Sepkiloymu. Yodgortoymu? - dedi Zokirning yuragi gurs-gurs ura ketib.
Devona yelka qisib qaradi:
- Siz o'zi kimni izlayursiz? Men sepkilli balanu bilayurman.
- Qo'rqmang, - dedi o'rnidan turib yuringancha Zokir, - biz ham o'shani surishtirmoqdamiz. Faqat, yaxshi eslab ayting-chi, otini nima deb atab edilar?
- Nimu dep? Ayttingiz-ku, o'zingiz... - dedi devona gʻʻbhashi kelib.
Zokir negadir iltifotsiz qo'l silkidi:
- Hay, mayli, o'shanday ham bo'laqolsin. Le- kin bolani olib ketganlarni aytarsiz? Ko'ribsiz-ku, axir?
- Qanday? - Boyagidek yelka qisib, xum boshini ichiga tortdi devona. - Aytup turuppan-ku, qaytup qaraganumda u yuv edu.
Zokir to'xtab, uni taniy olmay tikildi:
- Boshqasi-chi? Cho'ntakkinangizga narsa tashlab ketgani-chi? Uniyam tanimassiz? - dedi kesatib.
- Tanumayman. Mendanam naynov, tarasha bir adam edu. O'lay agar qaytup ko'rgan vo'lsam.
Zokirning ensasi qotib, bir narsa duv toshgan kabi gardani qichishdi. O'zi asabiylashib:
- Marvarid yoqibdi-yu, o'zi esizdan chiqibdi-da?- dedi. - Va'dalashgan odam-chi? Uniyam yo'qoldiga chiqararsiz?
- O'luppan-da, - dedi devona azza-bazza hafa bo'lib.
- O'shandan keling, bo'lmasa, - deb Zokir qistalang qila boshlab edi, devona boyagidek to'rsayib oldi:
- Anoyuni topubsiz ja.
- Ha, nima bo'ldi? To'ningizni teskari kiyayapsiz?
- Javobu-chi? Shariat-chi?..
- Shariatni nima daxli bor bunga? - hayron qoldi tergovchi.
- Bizga kelganda nimu dahli varmu?
- Tushunmadim.
- Nimusini chuchunmaysuz? Pusulmonmusiz, axir?- Devona irshaydi.
- Alhamdulillah, - dedi tergovchi o'ngʻʻbaysizlanib, ham muddaosiga tushunib-tushunmay. - Nima edi?
Devona o'zinikidan qolmasdi:
- Qudaydanam qo'rquvsiz, bizga o'xshap?..
- Albatta. Kim qo'rqmaskan? - dedi tilidan tutila-tutula.
Devona ikkala tizzasiga shappalab irshaydi:

- Unda biz quludan nimunu talap etuvsiz? Sotup qiyamatga qoluvnimu?

Zokirning boshidan olov chiqib ketdi. Peshonasini mayda ter bosdi. Devona uni yomon tushirgan edi.

- Aytolmasayiz... aytmang, men qistamadum, - dedi gʻʻudranib. Davangir devona balo ekan, uni o'zining usuli bilan shariat arqogʻʻiga tortayotgan edi.

- Sizam biz quluni kechurup qo'yuvsiz. Sotolmaymuz va'dasida turgan birodarimizni. - Davangir devona xumdek boshini sarak-sarak qilib, xohlasangiz shu, degandek yelka uchirdi. - O'rtada so'z var, shirinkama var. Qudaynu nominu tilga olganmuz.

Zokirning tiliga kalima kelmay qolgan edi, ortiga qaytayotib:

- Halolidan bo'lsin, nima deymiz, - dedi bo'shshib, so'ng joyiga o'tirib, qo'shib qo'ydi. - Bizga qi-yin qipsiz-da.

Devona lab burdi:

- Nimu qiyun?

- Bolaning izini topganimizda... o'rtada qasam bor deb... ishni buzib o'tiribsiz-ku.

Devona nogoh sakrab turdi va o'zidan bir nimani daf etayotganday qo'llarini silkiy ketdi:

- Yuv-yuv, ovora bo'lusiz, qistamangam, so'ramangam qaytup. O'sha gap-gap.

- Yaxshi, - dedi tergovchi xotirjam etishga urinib, - o'sha gap bo'lsa, o'sha gap. Kelishdik-ku, axir. Faqat...

Devona taxta-eshakka qaytib cho'kayotib, engashgan ko'yi termuldi:

- Nimu paqat?

- O'tiring, o'tiring, shunchaki bir gap, - dedi tergovchi bir shumlikni o'ylamayotganini bildirmoqchi bo'lib. - Bilgim keldi-da.

Devona omonat cho'qdi, lekin xavotiri tarqamagan edi, so'radi:

- Nenu, deysuz?

- Shu... marvaridni-da. Siz nima qilasiz deyman-da. Uy-joyingiz, bola-chaqangiz bo'lmasa, - dedi Zokir uzoqdan aylantirib.

Devona yer ostidan qarab, ishshaydi:

- Bizam shunday o'tmasmiz, balam.

- Yo ko'z ostiga olib qo'yganz... bormi? - dedi u hazilga yo'yib.

- Bo'lsa-chu...

Zokir qarab turib hayron qoldi. Davangirday odam... uylantiradigan o'spirindek qizarib borardi.

- Demak, bironta bevani... topib qo'yibsiz. O'shanga atadingizmi?

Devona chetga qarab irshaydi. So'ng o'girilib:

- Atash nesu, asrab deng, - dedi.

- Tushunmadim, asrab nima qilasiz?

- Nikoh kunu-chi? Mahruga nimu verumiz?

- E, ha-a, - deb yubordi tergovchi. - Niyatiz zo'r-ku.

- He-he, - dedi devona uni mazax etib. - Nimu deb o'ylovdiz biznu.

Zokirning tegajogʻʻligi tutdi:

- To'yga aytasizmi? Kuyov oshidan bexabar qolmaylik.

Devona yelka uchirdi:

- Melisa udayiga varsa vo'lummu?

- Formada bormaymiz-da, aka.

- Odam qatori vo'lsa, aytmay nimu - aytamuz, aytamuz.

- Rahmat-e, iltifotingiz uchun. Faqat, - deb ensini qashladi u.

- Yana paqatiga bala varmu? - qutuldim deganda devona yana sapchib tushdi.

Zokirning qitmirligi tutib kelmoqda edi, atay yelka qisib, hayron qotdi-da:

- Ha, marvaridiz deloga tushib bo'ldi-ku uni qanday qilamiz? - dedi.

Devona garangsidi:

- Qanday tushadu, u mening qo'ynumda-ku, - deb azza-bazza shinelini ochib, belini paypasladi.

- Turibdi ekanmi? - dedi tergovchi sir bermay.

- Turganda-chu. O'gʻʻbri ballar o'n kun izlaganda kesolmaydu.

- Kesolmagani yaxshi. Lekin... delo ochsak, o'z qo'liz bilan garovga tashlab ketasiz-da.

- Qanday? Men-a? - Devona aqli butun ekan, sogʻʻb odamdek, ko'ksiga nuqib so'ramoqda edi. - Avara vo'lusiz.

U ham bo'sh kelmadi:

- Unda... egasini aytasiz-da. Yo marvaridni deng, yo egasini.

Devona boyagidek tizzasiga shappaladi:

- Hich-da. Marvaridnu urub-urub, tartub olusiz, maylu. Igasiga avara vo'lusiz. Uni aytadugan jinni yuv. Vassalam...

Zokir, e, balli, deyishini ham, hoy, Badir, opchiq buni, deb baqirishini ham bilmasdi.

O'sha Biravning Mahfuzasi bʻbʻTangritogʻʻlik Kelin

Achchi qirlariga bosh qo'ygan kun ham axiyri Kattabogʻʻb ila vidolashib, botib ketdi. Ufqar o'sma tortib, shom tusha boshladi.

Faqat qip-yalangʻʻboch bogʻʻblardagi yolgʻʻbiz shaftolilargina shom ivir-jiviriga ham bo'y bermay yashnab turardilar. Xuddi kun bo'yi emgan nurlari chamanday nafarmon gullariga ko'chgandek, qayta akslanib yotgandek. Bu ham kam. Mening nazarimda boshiga shaftoli gulli uzu-un simro'mol tashlagan kelinchaklar har yoqdan - goh u, goh bu tashlandiq (kimsasiz) bogʻʻblardan biz qaynijonlarini sogʻʻbinib chiqib kelayotgandek, chiqib kelaturib kelinsalomga hozirlanib to'xtagandek, qay birlari egilib ham ulgurgandek.. tuyulaveradi. Shunaqa ajib pallada, ajib hislarga to'lib bormoqdaman. Bugina emas: chor tarafimni to'ldirgan "temir yalmogʻʻbiz"larni ham unutganimcha yo'q. Ular joy-joylarida tosh qotganlar. Go'yo qiyomat-qoim oldidan paydo bo'lguvchi Dubbatul-arzilar misoli bir xunuk qorayib ko'rinadilar.

Oллоhga shukr. Shunisiga-da, shukr. Ulgurmasam nima qilardim? Uyimizni ostin-ustun qilib, surib tashlasalar qayga borardim? Bu bitiklarni qay tuproq ostidan izlar edim? Chindan-da Oллоh asrabdi! Bu "temir yalmogʻʻbizlar"ni to'xtatib, diyorimizning umrini bir kungina surib-uzaytirib qo'yibdi! Go'yo biz yetib kelib, omonatni topib ketguncha bu sur-surlarni, Kattabogʻʻb ustiga tushgan qiyomatni to'xtatib turgandek... Ertaga ertalabdan esa kun magʻʻbribdan qaytib chiqib, bu Dubbatul-arzlarga jon bitadigandek va bu diyorning bogʻʻbu soylari, tepayu qirlari ostin-ustun qila ketilib... Oллоhning "biz istasak, o'rningizga tamomila bo'lak qavmni

keltirib qo'yurmiz" oyati karimasi ro'yobga chiqajakdek...

Hozircha... yelkamda Yodgormurod (u qo'lchasi ila peshonamdan mahkam quchib olgan), allaqancha tepayu chimzorlari surib, buloqlari ko'mib yuborilgan Izzadan o'tib, "temir yalmogʻ Buz"lar hali yetib ulgurmagan o'sha qadim Olmazor yoqalab, Qangʻ Bliga chiqib bormoqdamiz. Bu yoqda dumi Izzaga qadar cho'zilib-tushib borgan ajdarteplar - Foziltepayu uning katta-kichik dum-tepachalari ko'rinadi. Ular hali omon, tigʻ B tegmagan, shom qorongʻ B usida yanayam mahobatli, afsonaviy ko'rinmoqdalar.

Qo'ynimda esa, u omonat bitiklar, ari inida qancha quruqshab yotgan qogʻ B oʻzlar - kennoyimning mahfuz xatlari mayin-mayin shildirab (xazonga o'xshaydi go'yo) xayolimni o'gʻ B irlaydi. Beixtiyor oyimlar bilan yetaklashib, Eski Jo'vaga - xolamgilarning shahar hovlilariga tushib borganimiz, u yerda birinchi daf'a shu xat egasi - Tangritogʻ B tomonlardan kelgan kelinchakni ko'rganim yodimga tushaveradi. Yelkamda Yodgormurod-u, men o'sha safarimizni eslab bormoqdaman.

O'shanda dalayu bogʻ B larni zagʻ B chalar bosib, izgʻ B irlinli kunlar boshlangan, ko'chadigan ko'chib, qoladigan qolib bo'lgan kezlar edi. Men shundan shu yoqqa - ovloqdan ovloq Kattabogʻ B imizdan shaharning Darxon degan mavzesiga qatnab o'qirdim. Birinchi darsga yetib borish uchun saharlab, hali so'fi azon aytmay turib yo'lga tushar, bozorчилardan ham avval Cho'lponota guzariga chiqib, eng oldingi avtobusda Beshogʻ B ochga yetib olar, undan tramvayga osilib, Darxonga ketar edim.

Shunaqqib o'qib yurgan kezlarim, bir dam olish kuni oyim:

- Otlar, Maqsudxo'ja, shaharga - xolanglarnikiga tushib chiqamiz, - deb qoldilar.

Shahar desa, jonim kiradi. Kichkinaligimda oyim bir marta Qoratosha optushganlar. Shu-shu shahar desalar uchib-qo'rib turaman. Oyim bekorga optushmaydilar. O'shanda Qoratoshdagi qarindoshlarnikiga olib borgan, Hojiakbar aka deganlarnikida yangi yil kutib o'tirib, undan G'ozixon amakinikiga chiqqan, ke-yin pastki Qoratoshdagi Huri ammanikiga tushgan edik.

O'shanda oyim: "Biz kim ekanmiz?! Hammamiz bir urugʻ B imiz: Ulugʻ B xo'jaboy avlodlari... Zamon mana bunaqa bo'lib, uzoqlashib ketdik-da. Bo'lmasa, bu ham o'z uyimiz: Ulugʻ B bobongdan qolgan uylar...", degan edilar. (Qarang-a, oyim ota-buvalarimiz o'tgan yerni ko'rsatib qo'ymoqchi ekanlar-ku! Men anqov qaerga kelib qoldik, deb yuribman.)

Bu gal-chi, bu gal? Nimani ilindilar ekan?..

Yo'lga chiqqanimizda rosa tuman edi. Go'yo olamning yetti qavatini tuman qoplab, tomlaru daraxtlarning uchlariga qadar ko'rinmay ketgan, uch qadam narini ilgʻ B ab bo'lmasdi. Buncha tuman qayoqdan qayoqqa ko'chib boryapti, qaerga ketib yo'qoladi, anglab bo'lmas, odamni vahm bosar edi. Yo'lovchilar ham daf'atan tuman ichidan chiqib qolishsa, birdan cho'chib tushar edik.

Yo'q, Tepamasjiddan o'tmasimizdan shuncha tuman birdan ko'tarilib tarqadi-ketdi, qayoqqa singib, qayoqqa yo'qoldi, bilmayin ham qoldik. So'ng kun bir kulganday bo'ldiyu yana tund bulutlar ostiga kirib yo'qoldi. Shaharga borgunimizcha ham biron marta mo'ralab qo'ymadi. Bu ham kamday izgʻ B irlin turib, kun botganiyam, qosh qorayganiyam bilinmay qoldi.

Eski shaharda nima ko'p - uzundan-uzun jin ko'chalari boshi berk - tuvak ko'chalari ko'p ekan. Biz shunday ko'chalardan biriga burilib ham edik, ichkaridan xayr-xo'shlashib chiqayotgan yasan-tusanli ikki ayolga duch keldik. (Ular mehmondan ham burun "sovchi xo-tin"larga ko'proq o'xshab ketishardi.) Harqalay, ulardan biri - suvsar yoqali palto kiygani tamannolanib kela turib, oyimning paranjilariga ijirgʻ B angannamo qarab edi... jonim xalqumimga tiqilib keldi. Ammo shu payt haligi kuzatib chiqqanlar orasidan birov:

- Voy, Salomxon, o'zingmisan? - deya bizni tanib, quchoq ochib kela boshladi-yu men yumshadim. - Voy, qayoqdan kun chiqdi desam, boyagi ko'ringan sizlarning oftobingiz edimi?

Qarasam, Oyposhsha xolam, o'sha mayin-muloyim, jilmaysalaroq yuzlari oftobday yorishib ketadigan xolam...

Oyim ham qo'llarini azot ko'tarib, boshlaridan paranjilarini oldilaru bilaklariga sola, tezlab borib, quchoqlasha ketdilar. Ular bir-birlarining kuraklarini silab-siydashib, bagʻ B irlariga singib ketgudek bo'lishib, hali u - hali bu yelkalariga bosh qo'yib, bo'ylarini iskashib "omon-esson"lashisharkan, ko'rsatganiga shukronalar aytishar edi.

- Voy, Salomxon-ey, nechuk? Uylaringni tashlabam kelavurdingmi, a? Voy, qara, kelganing qanday yarashib turipti.

- Bu yogʻ B i uzun qish kechalari, bir gaplashib yotib ketay dedim, opa, sogʻ B indim sizlarni... - dedilar oyim.

Xolam meni suyib, bagʻ B irlariga tortgancha, shirin alqay ketdilar:

- Voy, mani kichkina Mahmudxo'jam! Bizlarni yo'qlab keladigan bo'p qoptiyu... Ilo-oy, yetimlarni o'zing qo'llagin!

So'rashib-istashib, chor tarafi tuproq tomlu uylar bilan o'ralgan hovliga kirib bordik. Hovli uzun ketgan, bu boshida bir tup tutu narigi boshida bir tup nok qorayib ko'rinar edi. Chor tarafda bir-biriga tutashib ketgan uylar, derazasini sanabam adashib ketish mumkin edi. Ayniqsa, ayvonning qizgʻ B ish ustunu to'sinlari, toqilari vaqt o'tishi bilan qoramtir tusga kirib ketgan edilar. Tepadagi tokchali uyga kirishimiz-la kovshandozning yonidanoq tancha ochilgan, tepada dor ko'rinar, dorda shoda-shoda behiyu noklar osigʻ B hliq edi. Kelganimizni eshitib, qaysi bir hujradan pochcha chiqib keldilar.

- Ey Salomxon, qaysi shamolar uchirdi? Zab kebsizlar-da, zab kebsizlar. Mahmudxo'janing chirogʻ B ini xo'p obkebsiz-da, xo'b obkebsiz, - deb yelkamga qoqib, suyib ko'rishdilar. Nusrat pochcha hiyla qarib, hassaga o'tib qoptilar. Lekin shirinsuxanliklari - o'sha-o'sha, halimliklari, yuzlaridan nur yogʻ B ilishi o'sha-o'sha. U kishi jigarrang tusdagi silliq asolarini kovshandoz chetiga qo'yib, o'zlari tanchaning to'riga o'tdilar.

- Qani, Salomxon, siz bu yoqqa chiqing. Maqsudxo'jam mening yonimga keladi, - dedilar u kishi.

Biz mehmonga solinib, hali yigʻ B ishtirilmagan ko'rpachalarga o'tirib ulgurmasimizdan eshik ochilib, qo'lida oq dasturxon ko'tarib, yo asta'firulloh (biz allavaqtdan beri yo'qotib qo'ygan!) Margʻ B uba kennoyim kirib kela boshladi. Men turib ketay depman. Ammo u menga e'tibor ham qilmay, oyimlar bilan ko'rishgani yelka tutib bora boshladi. Oyim ham dabdurustdan shoshib qoldilar:

- Iya, Margʻ B ubaxon?! Voy, opogʻ B boyiz o'rgilsin. Esonmisiz-omonmisiz? - Oyim o'tirgan yerlaridan ko'tarilishga unnalib, qo'llarini cho'zdilar. - Hali Siz.. shu yoqlardamidiz?..

Kennoyim gʻ B alati xijolat ichida... duv qizardi-yu, yerga boqib, bosh egdi.

Xolam yuzlari yorishib, ko'zlari qisilib, kulindilar:

- Hoy, Salomxon, manam edim saningdek, sanam bo'lding maningdek: qaribmiz-qaribmiz...

- Yo'gʻ B e, opa, nega unday deysiz? - dedilar oyim alanglab.

- Ha, tanimading-ku, kelingni, - dedilar xolam o'sha-o'sha kulib.

- Nega tanimay? Margʻ B ubaxon kim ekan - o'sha o'zimizning oy desa oy, kun desa kun degudek kelinimiz-da! - dedilar oyim dasturxon yoza boshlagan kennoyimga qarab.

Oyimning bu gaplaridan hammalari kulishdi. Nusrat pochcha soqollarini tutamlab-silab, ta'sirlanib bosh to'lgʻ B adilar:

- Shunaqa-de, shunaqa! Shundan keyin ham Xu-doyimning qudratiga tahsin aytmaymizmi?!

Xolam sirni tushuntirishga chogʻiblandilar:

- To'gʻibri, Salomxon, buyam o'zimizning kelin. Lekin bunisi boshqa,

- Boshqa?! - Oyim ham, men ham gangib qoldik.- Qanaqasiga boshqa bo'lsin?! O'sha-ku?.. - Bir dasturxon tuzayotgan kennoyimga qaraymiz, bir atrofdagilarga alanglaymiz. Ammo hech narsa anglay olmayotirmiz.

O'shal kennoyim esa o'ngibaysizlanib, yuzlari loladek qizarib boryapti: qizargan sayin qizil guldek ko'hlik tortyapti. Balki o'sha nikoh kechasi yo'qolib qolganidan uyilib... bir narsa deya olmayotgandir?

U ana shu xijolatdan qutulish uchun choynak ko'tarib chiqa boshlarkan, kovshandozga tushgan joyida... yuragimni o'ynatib, menga bir qarab qo'ydi-yu, bat-tar qimtinib, burilib chiqa boshladi. Yo tavba, bosh-qa paytda "voy, eshon bola, bormisiz"lab, ustimda o'lib-qutuladigan odam... endi meni tanimayotgani gʻiblati edi.

Xolam uni uzoqlatib, javobga ogʻibiz juftladilar:

- Bu kelinimizning oti - Mahfuza. Tanib olgin, Salomxon. Adashma.

- Qanaqasiga... Maxfuza bo'lsin? - dedilar oyim.

- Ollohning qudrati ilohiyasiga sallamno, Salomxon, sallamno! - dedilar Nusrat pochcha bosh tebratib, tahsin aytib. - Ey-y, biz gumrohlar, nimaniyam bilamiz - nimaniyam? Sultonmurod qayoqqa gum bo'b ketdi, deb yuribmiz-da.

- Ha-ya, birovni xasmini opqochib ketdi deb yuribmiz, - dedilar Muhabbat kennoyim, - u yoqda Mar-gʻibubaga o'xshagan bir boshqasini pardai ismatida asrab qo'ygan ekan-ku, O'zi.

- Tushunmadim, Sultonmurod qaytdimi? Buni o'sha yoqdan ola kelibdimi? - dedilar oyim ro'mollarini tuzatib o'rashga tushib.

- Qayoqda! U tinchimagandan haligacha darak yo'q, - dedilar xolam buning tarixi uzun, koshki bir ogʻibiz so'z bilan tushuntirib bo'lsa, degan kabi.

Men hammadan burun haligi tarixni ocha qolishsa-chi, deymen. Margʻibuba kennoyim qayoqqa yo'qolgan ekan? Sultonmurod akam-chi? Nega o'zi kelmabdi? Shularni bilгим keladiki, u yogʻibni yo'q...

Bu orada (aytishga ham gʻiblati) yangi kennoyim (tavba, odam odamga shunchalar o'xsharkanmi!) qo'li ko'ksida, choy ko'tarib kirdi va:

- Xush kelupsizlar, - deya shirin takallum ila (chindan tili bir yoqlilarnikiga o'xshar edi!) o'zi past tomondagi yalangqavat ko'rpacha ustiga tiz bukdi. Oyim o'zlariga kelib-kelmay "Xushvaqt bo'ling", deb qo'yidilar-da, uzatilgan choyni olib:

- Kelinposhsham, Sizni qaysi tomonlardan so'riyvuza? Bizani yo'qotib qo'ygan jiyanuvza-chi, omonmi? U yoqda ayangiz, adangiz yaxshi yurishibdimi? - deb so'rasha ketdilar.

Yangi kennoyim lov qizarib, yer suzdi. Qizarganda yana ham ko'hlik tortib ketarkan. Ayniqsa, qulogʻibni yumshogʻibining takkinasi anordayin yonardi.

- Yurishibdu-yurishibdu... O'shu Tangrutogʻib tomonlarda... - dedi uzun-uzun, oppoq barmoqlarini ezib-ezibiblab. U ich-ichidan turgan bir qaltiroqni shun- day bosarmidi yo o'zimi - bilib bo'lmasdi. Lekin ovozi hazindan-hazin bo'lib, allaqanday to'liqib chiqar edi.

- Sultonmurodning o'zi billa kelavurmabdi-da,- dedilar oyim.

- Kelubla qolurlar... - u battar qisinib, qizarib ketgan edi. O'zini qo'yarga joy topolmas, bu tarz savollardan qochib, turargami, chiqargami mavrid izlar edi. Alohal choylarni uzatib bo'lib, kovshandozdagi oyoq kiyimlarni sarishtalar ekan, xolamlarga ma'noli qaradi:

- Oshnung guruchinu... nima qilay, solavuraymu, opogʻiboyu?..

- Mayli, bolam. Faqat sal ivitib soling. Suv ko'taradigan ekan bu gurunchimiz. Tirik bo'p qolmasin,- dedilar pochchaga qarab qo'yib.

- Ha, barakalla, shavladan tirikroq, oshdan yumshoqroq... Uning otini nima deydilar - "mo'ysafid palov", - deb kuldilar pochcha. Hammamiz u kishiga qo'shilib, jovur-juvur qilishib, birpasda o'rtadan boyagi o'ngibaysizliklar ham ko'tarila qoldi. "Oling-oling" bilan dasturxonga qaradik. Bir yoqdan tanchaning issigʻibi, bir yoqdan choy qo'shilib, ichga issiq kira boshladiyu bir farogʻibat tuyib, atrofga alangladim. Samovarning beozor jigʻibillagan ashulasimi yoki tanchaning atrofida o'tirgan qarindoshlarimizning bir shirin mulozimatlarimi, "oling, Salomxon, dasturxonga qarab o'tiring", deb qistashlarimi, "Hoy, Sanobar, qalamtaroshingiz bor, nokni archib qo'ying", deb xolamning pochchaga ish buyurishlarimi - nimadir menga xush yoqib, erib o'tiribman. Undanam burun Margʻibu kennoyimga o'xshash bir shirin, bir ko'hlik yangi kennoyilik bo'lib qolganim, akam hakda ajib bir mujdalar eshitishim mumkinligi meni mast qilib bormoqda. Ichim qizib-qizib kelyapti. Nega oyim jim qoldilar? Choyni icha qolsalaru shundan so'z ocha qolsalar: akam bu kennoyimni yuborishga yuborib, o'zi nega kelmabdi? Hozir qaerlarda ekan? Qachon kelar ekan? Bilгим kelyaptiki, u yogʻibni yo'q...

Oyim hamon o'sha holatlaridan, uni Iqbor otinning qizi hisoblab, gʻibafatda qolganlaridan ta'sirlanib o'tirgan ekanlar:

- Olloh-Olloh. Iqbor otin ko'rmasin. Naq o'shaning qizi-ya! Odam odamga shunchalik o'xshar ekanmi, tavba? - derdilar turib-turib.

- Ho'-o'y, buyam bo'lsa, Xudoyimning marhamati, Lavhul Mahfuzga bitilgan taqdiri azali, - dedilar pochcha odatdagidek bir tebranib-ta'sirlanib olib. - Qolavursa, yana qanday hikmatlari bor - nimaniyam bilardik biz? Barchasi o'ziga ma'lum, o'ziga ayon.

- Ishqilib, yetimlarni o'zi yorlaqasin, - deb qo'yidilar xolam. - Hech bandani qiynamasin judolikka solib...

- Unda.. unda boyaqish Margʻibugina kelinimiz qayoqda qolibdi? Sultonmurod opketmagan bo'lsa?- dedilar oyim hamon unutilmay. - Qaerlarda ekan, qizgina?

- Xudoyimning dargohi keng, daragiyam chiqib qolar bir kun, - dedilar xolam pochchaga qiyo qarab, xuddi u kishi bir narsa biladigandek.

Ammo pochcha o'z xayollari bilan band, qo'llarida bir donagina uzum, o'shaning ham po'sti ustida ko'z yoshiday yiltirab turgan tomchidan nigohlarini uzmay qolgandilar. Barmoqlari orasiga olib bir silasalaroq u tomchi, u "yosh" ado bo'ladigan, lekin unda nima ko'rib turibdilar ekan, silamaydilar, artmaydilar. Shunaqa o'yg'a tolib ketibdilar.

- Qiyin-qiyin, boyaqishginaning onasiga qiyin bo'ldi, - dedilar oyim allaqanday chuqur tin olib.- Hammani o'qib, dam solib yurgan xotin, o'zi yotdi- qoldi...

- Kuyib ketgan ekan-de? - dedilar xolam.

- Sekin aytasizmi?! Bir ogʻiblining nomini atab chaqirarmish, bir qizining...

- O'gʻibliga xabar qilishmabdimi haliyam? - dedilar pochcha seskanib, o'zlariga kelib.

- Kim bosh qo'shadi, deysiz, bunaqa paytda, - dedilar oyim.

- Shuni aytg, Salomxon, askardan chaqirvolish oson ekanmi? - dedilar xolam achinib. - Unda musht-dek qizchasi bilan qob ketibdi-da, musofirgina?

- Yaxshiyam o'sha qizi, qo'shnilar bor ekan, issiq-sovug'iga...

Men bu gaplardan xabarim yo'q edi, titrab ketdim. Ko'z oldimdan o'sha qizil taram olmal hovli, o'sha supa, o'sha rayhonzor Marg'bu kennoyim bilan bog'liq voqealar kechib, allaqanday betoqatlandim! Kichkina Saidadan ham jahlim chiqdi, ham achindim. Bir og'biz aytmabdi-ya..

Pochcha pishillab xo'rsindilar:

- Kattalarning oldiga chiqib boradigan, o'g'b'lini chaqirtirib beradigan bir mard topilmabdimi?! - dedilar jahllari chiqib.

- Topilmabdi-da, o'sha... - dedilar oyim ma'yus tortib.

- Esiz... - dedilar xolam achinib.

O'rtaq hech gap sig'bmaydigan jimlik cho'kdi. Mening esa ichim achishib boryapti, qacrimdir kuyib ketyapti. Hayot shunchalar beshafqat ekanmi?

- Kim o'ylabdi, kelinimiz - uning qizginasi bedarak ketib, bu eshigimizni so'roqlab keladi, deb.

- Hammasi Xudoyimning xohlashi, sinovi O'zi- ning-ku, lekin... - oyim choy ichaturib, birdan qal-qib ketdilar.

- Halloq de, Halloq de, Salomxon, - deya xolam u kishining kuraklariga qoqdilar.

Oyim o'sha bir og'biz so'zni aytishlari bilan tinchiy qoldilar. So'ng ko'zlaridan tirqirab chiqqan yoshni artib, pochchaga qaradilar:

- Yo'q, meni boshqa narsa qalqitdi: rostdan... o'zi so'roqlab keldimi?

- Ha, shunday bo'ldi, Ollahning qudrati bilan shunday bo'ldi, - dedilar pochcha, - o'zing ayt, Sanobar...

- Uch hafta bo'ldimikan, daladan endi ko'chib tushgan edik, - dedilar xolam yoruqqa orqa o'girib, oyimga qarab. Kechalari hadeb do'ppi tepchiverganlaridan xolam yoruqqa qaray olmas edilar. Shuning uchun hozir ko'zlarini yorug'bdan qochirib so'zlar edilar.

- Oxunguzarlami, qaelri bir odam pochchangni so'rab keldi. Endi asr namoziga takbir tushirayapgan edilar. Eshik orqasida turib aytсам, unda manam qazo o'qib ola qolay, kennoyi, dedi. Kira qoling, tepadagi uydalar, deb chetga o'tib turdim. Shoshib borib, qavatlariga kirib namoz o'tadi. So'ng salom berib turishgach, o'zini tanitibdi.

- Ha-ha, baraka topkur, ko'p iymonli odam ekan,- deb tasdiqladilar pochcha. - O'sha yoqdan qo'shvorishganча qizim, deb chegaradan o'tkazib kepti, aytilgan odamlarni toza izlab, so'roqlapti. Topolmagach, daraklab biznikiga kelgan joyi ekan. Uyat bo'lsayam, keldim, ma'zur tutasiz, deydi.

- Kim qo'shib yuboribdi? Sultonmurodmi yo buni otalari? - dedilar oyim sabrlari yetmay.

- Yo'q, munikidagilar, - dedilar xolam, - to's-to'sda shu yoqqi qochira qolishibdi. Harna qilsa, Toshkan tinch, deb.

- Qanaqa to's-to's? Urushmi? - dedilar oyim.

- Urush ham gapmi, qirg'bin, Salomxon, qirg'bin, - dedilar pochcha qo'l to'lg'bab. - Ularning boshiga tushganini Xudoyim hech kimga ko'rsatmasin. - Pochcha uchli gilam do'ppilarini olib, ustara qirdirishga kep-qolgan sochlarini silashga tushdilar-da, yana bosh to'lg'bab qo'ydilar. - Biz-ku, bir kunimizni ko'rib, Xudo-oblo deb o'tiribmiz. Ammo u tomonlarda yomon bo'bdi, yomon! Avvaliga ro'shnolik berib, keyiniga qonga botirishibdi.

- Yo'g'b'e, u yoqda ham inqilob bo'lgan ekanmi? - dedilar oyim hayratga tushib.

- Shunga yaqinroq, shunga yaqinroq, - dedilar pochcha, u yog'biga gapni cho'zgilari kelmay yoxud bizni chalg'bitib. - Hay, Muhabbatxon, anuv mani hujramdan bir damlamgina qorachoy opchiqing. Bu choymas, turgan-bitgani xashak ekan-ku, - dedilar. Lekin oyim ham, xolam ham chalg'bitmadilar, qaytanga bir-birlariga ma'noli qarab olishdi:

- Bu yoqlardan bosh olib... o'sha talato'pga ketganakanmi, Sultonmurod? - dedilar xolam achinib.

- Man boshqacharoq eshituvdim shekilli, - dedilar oyim, - mo'minlarning boshi qovushganmish, davlat tuzishganmish, deb kim ham aytib edi, Rustamxo'jamidi, Inog'bxo'jamidi?..

- Unisiyam to'g'b'ri, bunisiyam... - pochcha kattakon kaftlarini kursi chetiga bosdilar. - Kim nima niyatda borgan bo'lsa - borgandir, ko'tarilgan bo'lsa - ko'tarilgandir. Ammo oxiri yaxshi chiqmabdi. Hozir ini buzilgan chumoloday to'zib, har kim o'z boshini asrash bilan ovoramish. Kim bizni yurtga, kim qozoqlar panohiga o'tib, kim Hindiston taraflarga qochib qutilayotganmish.

- Sultonmurod jigarimiz-chi? Nima qilibdi ekan? Qaysi o'r, qaysi qirga uribdi ekan o'zini? Boyaqishni shu nasiba quvib borgan ekanmi u yoqlar- ga? - dedilar oyim. - Qaytib o'tolmay sarang, desangiz-chi, hali?

- Hov-v, darig'b, - dedilar endi pochcha to'liqib. Shunday katta, basavlat odam kuyinganda hatto havo yetmay "hov darig'b"lab qolar edilar. - Xudoyim shu bolaning ko'ngliga qanaqa o'tlar solgan ekan, qanaqa urug'blar sochgan ekan, shu yoshga kiribam o'zini o'ylamasa, tinchib - tup qo'yib, palak yoyishni xayoliga keltirmasa! Kimlar haqida qo'yug'burib, kimlar uchundir boshini tikib yuraversa?! Koshki o'sha el bilsa! Vaqti kelib, qavatiga kirsа. Kirmaydi! Bular dorga tortilib ketaveraram, ular tomoshabin bo'lib turave-raram. Mashoyixlar aytmishlar: "Jonni bergin - jonni jonga suqqanga, jonni tikkin - jonni jonga qoqqanga", deb. Bu-chi, adolatpeshalik bilan hech yerga sig'bmaydi. Sig'bsа, o'tirmasmidi ti-inch bag'b'ri- mizda?

Men pochchani og'bizlariga tikilib qopman. To'g'b'ri, u kishi azbaroyi kuyinib ketganlaridan, akamga achinganlaridan gapiryaptilar. O'sha janggohlarda biron daydi to'qqa uchib, benomu inshon qolib ketmasin, deb koyinyaptilar. U yo'llardan qaytarib qololmaganlaridan yurak-bag'brilari ezilib ketyapti. Men buni sezib turibman. Ammo shu bilan birga hov bir oqshom - akam Bo'zsuv bo'ylarini qarorgoh tutib yurgan kezlari pochcha bilan supamizda ko'rishib, tortishib qolganlari, axiyri o'zlari bir nima deya olmaganlari yodimga tushib-tushib ketyapti, aylanib-aylanib kelyapti. Akam o'zini nohaq deb bilsa, o'shandayoq qaytasmidi? Boshini shuncha g'bv'bolarga qo'yib yurguncha? Necha o'lib, necha tirilguncha? Bir narsani biladiki, nafrati beadadki...

Faqat bir narsaga hech aqlim yetmayapti! Akam, o'sha jondan aziz akajonim, Ollahning marhamati bilan shunday suqsurday bir pariga yo'liqqan ekan, unga uylangan ekan, nega endi kelavermay... yolg'biz o'zini jo'natib yuboribdi? O'zi qayoqlarda qoldi ekan? Xuddi Marg'bu kennoyimdan o'sha mashvaratlarini, qarorgohlarini a'lo ko'rgani kabi! Kattabog'b'ning tinchligini deb, kimlarni undan quvib chiqarib yurgani kabi! U-ku, mayli, Kattabog'b' edi. O'z yurti edi. U yoqda-chi, Tangritog'b' tomonlardan nima izlab, nima topmoqchi? Shon-shavkatmi yo bu yerdan topolmagan adolatnimi? Yo qaytish yo'lini topolmay... nochoru noiloj qoldimi? Balki qo'lga tushib...

Boshimga o'ralashib kelayotgan bu kabi xayollardan ich-etim muzlab, o'zim xuddi chuqur jarga qulab borayotgandek bir holga tushdimu sekin o'rnimdan turib, tashqariga yo'l ola qoldim. Qulog'binga hech narsa kirmas, butun o'y-xayolim tashqarida, o'sha yangi kennoyimda edi. Unga ko'rina qolsamu sekin ijkilab bo'lsa-da, bir narsalarni so'rab-surishtirsam. Akam qacarda, nimaga birga-birga qaytmadi - bila qolsam...

Niyatim oshxona oldidan o'tib, yangi kennoyimga bir ko'rinish berish. Ko'rinish bersam, so'rashar-ku...

Kunbotardagi bulutlar hiyla siyraklashib, o'tob o'shalarining ortidan mana hozir yuz ko'rsatib qoladiganga o'xshar-u, ko'rsata olmas, lekin bu oqlik olamni sal bo'lsa-da, ochvorganday edi.

Chiqsam, kungay yo'lkada (shunday biz o'tirgan uy derazasining tagida) yolgb Biz so'fitorgb Hay turgan ekan, u meni ko'rib pildirab nari bordi, tojdor boshini egib, munchoq ko'zlarini bir ajib tikib, ajabsinib qarab qo'ydi-da, yana o'z yumushiga andarmon bo'la ketdi. U yo'lka bo'ylab ushoqmi, nimadir izlab borar, har zamon allanimalarni cho'qilab, yana pildirab keta boshlar edi. Men uning orqasidan yurdim, u ham menga qaray-qaray pildirab boraverdi. Men uni uchirvorgim yo'q, shu bilan birga yangi kennoyimni ham ko'r-gim kepturibdi. Kennoyim esa, o'sha yoqda - oshxo-nada. Nazarimda, mana hozir chiqib, tor yo'lkada ro'para kelib qolsa, ko'zlarim tinib ketadigandek, ko'zlariga qaray olmay, hech narsa so'rolmay qoladigandekman.

Qadamimni tezlatib edim, so'fitorgb Hay ham pildirashini jadallatdi. Lekin hamon yo'lkadan narsa terib, cho'qilashini qo'ymasdi. Bir ko'zi mendayu bir ko'zi yerda. Rizqini terib boryapti. Rahmim kelib, to'xtab edim, u ham to'xtab, hatto orqasiga qaytib, qolib ketgan bir nimani cho'qiladi-da, yana oshxona tomon pildirab keta boshladi. Yetib, o'sha yerda aylandi va ichkaridagi biravdan cho'chib-hadiksirab, qadamini tezlatdi. Va shu vaqt ochiq eshikdan ikki yuzi anorday qizarib, bir hokandoz olov ko'tarib, o'sha birav - yangi kennoyim chiqib keldi. Olov laxcha cho'gb B bo'lib yonar, uning taftiyu shu'lasida buning yuzi bo'rtib, yanayam go'zal bo'lib ketgan edi.

Shunda ko'rdim, u quyib qo'ygandek Margb Bu kenno-yimga o'xshar, faqat o'ng yuzining bir chekkasi - quloq yumshogb Hining yonginasida tangaday bir narsa laxcha cho'gb Bdek qizarib turar, gajagi surilib, ochilib qolgan edi. Shu qo'sh nori bilan u kennoyimdan ajralmasa - ajratib bo'lmas edi hech.

Bu orada uning ko'zi menga tushib, bir daqiqa sarosimalandi-yu, yo'l bera boshlaganimni ko'rib, shirin jilmaydi.

- Uzoqub ketmang, oshnu yopdum, - dedi allaqanday yaqin olib. Men uning qo'lidagi olovdanam burun ana shu yaqin olganidan, lov qizarib, qolaversa, nimaga chiqqanimni sezib qolganidan uyalib, yerga qadim va shoshib qolib:

- Yo'q, uzoqmiyman, sho'ttaman, - deya oltim. Va "qovun tushirganim"dan quloqlarimning tagigacha yonib ketdi. Nazarimda, uning qo'lidagi hokandozdan urib turgan taftiy o'n chandon ortib ketganidan edi.

- Shundaymu? - dedi u bir shirin qilib. Xuddi. "Voy, manu zeriktirub qo'ymayin degan qaynujonumdan", degan kabi edi. U yo'lidan qolmay yura boshlab edi, qo'lidagini olishim kerakligini eslab:

- Menga bera qoling. Men turganda Siz... opkirasizmi? - deb ergashdim.

- Yo'gb B-iy... qo'liz kuyadu, - dedi u taraddudlanib.

- Beravering siz... - dedim qistab.

- Shunaqamu? - u bir qadam chekildi-da, - shoshumang-shoshumang, - deb hokandozni gb Bisht-yo'lkaga qo'yib, tislandi. Yo'lka yaxlagan ekan, hokandoz tagi vishillab-jizilladi.

Men uni ilkis ko'tariboq oyimgilar o'tirgan uyga yurdim. Pochcha olovni ko'rib:

- Hay, barakalla-barakalla, jiyan nimaga chiqdi desam, olovga chiqqan ekan-ku, tanchamizni bozillatib, duo olmoqchi ekan-ku, hay, barakalla, - deb alqay ketdilar, so'ng: - Hoy, Sanobar, tanchani ochvora qol, jiyanni qo'li kuymasin, - deb xolamni shoshirdilar.

Xolam o'zlari o'tirgan tomonni ochib, sandalning oyoq qo'yadiganini ko'tardilar. Men olovni tanchaning cho'gb Hxonasiga to'kdimu u langb Hllab, kulxonani ham cho'gb Hxonaga aylantirdi-qo'ydi.

- Hay-hay, sandal yonib ketmasin, ozgina kul tort ustiga, kul tort, - dedilar xolam.

Ammo pochcha unamadilar:

- Qo'y-qo'y, olov solganimiz nima-yu, kul tortganing nimasi?! Qishning ziynati-ku, bu. Qo'y, birpas tanlarimiz yayrasin. Bu olovni yoqib cho'gb B tushirganlarning, opkelgan mana bu jiyanimizning duoi jonini qilib o'tiraylik birpas. Ogb Hacha kennoyingni chaqir, o'ziyam isinib olsin, - dedilar.

Kennoyim turp archayotgan ekan, hokandozni qo'yi- boq, aytdim:

- O'zingizam kirarkansiz, qutulib qolgan bo'lsangiz.

U qarab, chiroyli bosh silkidi:

- Sal dam yesun, xo'p?

- Xo'p, - dedim-u, nima deyarimni, nima qilarimni bilmay yo'lkaga chiqdim. Tavba, o'zim nega chiqdim-u, endi bir narsa deya olmayapman? Axir, akamni so'rab-netishga bundan qulay, bundan zo'r mavrid bo'lishi mumkinmi?! Yuragim gup-gup urgancha oshxona oldida boryapman-kelyapman, ammo qani zabon bitsa, jur'at topolsam. Bari bir so'ray olmadim, jur'atim yetmadi.

Aftidan, men yangi kennoyijonimni ayardim, uyaltirgim kelmasdi... Uyga kirsam: oyimgilar u haqda gapirib, qulogb Hini qizdirishayotgan ekan, sekin jo-yimga cho'ka qoldim. Ammo tancha bir rohatijon bo'pti-bir rohatijon bo'pti (oyoqdan borgan issiq odamni domiga tortib, elityapti!) Kattalarning bu yoqdagi suhbatidan undan-da ajoyib edi.

- Chegaradan o'rab-chirmab, bir amallab olib o'tibdi-yu, bu yoqqa kelgach, boshi rosa qotibdi-da, bechoraning,- derdilar pochcha nimagadir tushuntirish berib. Bildimki, gap kennoyim haqida ketayapti. - Qora tortib kelgan odamlari allaqachon ko'chib ketgan, qayoqqa - hech zogb B bilmaskan. Nima qilarimizni bilmay sarson bo'lib qoldik, deydi bechora.

- Baraka topsin, omonat mimaligini bilgan odam ekan, - dedilar oyim o'zlaricha alqab.

- Qayoqdagi amakivachchalariga ishonib jo'natvorishganini qaranga-a, - dedilar Muhabbat kennoyi.- Bu yogb Bi katta shahar bo'lsa...

- Endi ularam bu yoqni tinchroq deb o'ylagan-da. Bilishmaydiki, - dedilar pochcha tancha ko'rpani tizzalaridan pastroq tushirib ham oyoqlarini maxsilarining ustidan silab. - Bilishmaydiki, bu yoqda baliq boshidan irib yotipti. Dorilamon zamon qayda ekan! Men bu gapga tushunmay angrayib qolganimni... o'zim sezib, oldimdagi choyga alahsidim. Ammo qulogb Him ding: oyim nima derkinlar, deb ogb Bizlariga qarab-qarab qo'yar edim.

- Ishqilib, surishtir-surishtirlardan tinchmisizlar? Birov bilib, birov bilmay tursa - yaxshi-ya,- dedilar oyim.

- Qayoqda? - deya xolam qo'l siltadilar, - qaerdan is olgan, anavu ordona, aylanadi-keladi, aylanishadi-keladi, quribgina ketgur.

- Kim, Zokir badbaxtm? - dedilar pochcha. - Nima deydi?

- Nima derdi, ang-shanglaydi nuqul, sizlarnikida propiskasiz birov borakan, deb, ko'rsatasiz, deb.

- Ko'rdimi? - dedilar oyim ogb Bizlaridagi ogb Bizlarida, bo'gb Bizlaridagi bo'gb Bizlarida qolib.

- Qayoqda?! Ko'rsatib bo'ladimi u iskovuchga. Xudoning naq boshli-ko'zli balosi-ku,- dedilar Sanobar opam. - Eshik taqillaganining o'zidayoq o'raga yashirib qo'yuvdim. Uch gal kelgan bo'lsa, uchalasida ham topolmay ketdi.

- Shundan beri darvozani zanjirlab o'tiribmiz,- dedilar xolam.

- Kim chaqibdikin-a, kichikoyi? Ko'cha yuzini ko'rgani yo'g'v'bu, boyaqish? - dedilar Muhabbat kennoyi.

- Qo'ni-qo'shnidan bo'lak kim sotadi? Xudodan qo'rqmagan bandasidan har narsani kutsa bo'ladi. To'g'v'brimi, Salomxon? - dedilar xolam.

- Erta kunda cho'g'v'v' so'rab chiqadiganlar-chi? - dedilar Sanobar opa nimagadir sha'ma qilib.

Pochcha pishillab, orqalaridagi yostiqni tortib oldilaru tizzalariga bosib, unga bag'v'irlarini bergancha jim qoldilar. So'ng bosh chayqab:

- Gumon yaxshimas, - dedilar qo'shilmay. - Gumon bor yerdan iymon qochadi. Bunaqa husnning dovrug'v'bi tinganmas. Agar yetti qavat sandiqda saqlaganingda ham axir bir kun chiqadi. Hamma zamonlardayam bo'lgan shunaqasi. Shayx San'onni dinidan kechtirgan, Ma'dalixonni kallasi judo qildirgan nima ekan? Shu xusn-da. Temur zamonida Shodimulk degan bir shunaqasi chiqib, butun saltanatning inqiroziga sabab bo'lgan. Sultonmuroding ham chakkimas. Mana, unga ham shunaqa bittasi - poshsholarning ham ko'zini tindiradigani uchrabdi. Bilmadim, bu sho'rimi, baxtimi bolaning?..

- Nafasizzi yel olsin, hoy, Sanobar. Bu nima deganiz? - deb xolam tovushlarini pastlatdilar. - Halitdan Siz shunaqa deb tursayiz... Pochcha soqollarini tutamlab-silab, qiqlab kulishga, xolamni kulib yengishga tushdilar:

- Xo'p-xo'p. Xo'p, ana, ilohim qo'sha qarisin. O'zi kelib, bizni bu tashvishlardan qutqarsin! Endi qutuldimmi?

- Demay ham ko'ring-chi, asramay ham ko'ring-chi.

Hammalari xolamning po'pisalaridan kulishib turishgan edi, bir talinkada qirilgan turup, bir kosada suvi bilan kertilganini ko'tarib kennoyim kirib keldi. Men shundagina yalt etib yuziga qarab, bamisoli osmondan uzilib tushgan oy suzib kirib kelayotgandek ko'zlarim tinib ketdi. Uning husni pochcha aytganlaricha bor, o'zi o'sha Marg'v'bu kennoyimga o'xshar-u, lekin undan o'n chandon go'zalroq edi. Xuddi o'sha Mar-g'v'bu kennoyim bir ilohiy kavsar suvdan ichib qo'yganu jannatning hur qizlariga o'xshab qolganday edi.

U qo'lidagilarni dasturxon ustiga qo'yib, xolamlarga javdirab qaradi:

- Bitta chinnuga... suzib kelaverayunmu, opog'v'boyuv?..

- Mayli, poshsha kelin, qo'lingiz dard ko'rmasin, ilohim, - deb alqab izn berdilar xolam.

U dasturxondagi ortiqcha talinkalarni olib, osh suzgali chiqdiyam, oyim xolamga qaradilar ham:

- Haligi... biz kelganda chiqib ketayotganlaram shuni daragini eshitib kelishbidimi? Yo Minovarga edimi?

- Qayoqda! - dedilar xolam ichayotgan choylaridan qalqib. - Minavarga bo'lsa jon derdim-da. O'zini ko'ribam o'smoqchilashadi nuqul: boshqa qizizam bormi, deb?..

- Zumrad bilan Qimmat bo'pti-da, opa? - deb kuldilar oyim.

- Ha, shuni aytgin...

Keyin osh keldi, hov birdagidek - xolam bilan pochcha biznikiga borishgandagidek zo'r palov bo'lgan ekan, barmoqlar orasidan yog'v'v'ni oqizib, maqtab-maqtab yeya boshladik. Yangi kennoyim judayam tortinchoq ekan. O'nta qistaganlarida bitta qo'l cho'zar, shunda ham to'rtta guruch olib-olmasdi. Lekin ko'zi oyimgilarning piyolasida, bo'shadi deguncha choy quyib turibdi.

Uzatgandayam har gal o'rnidan turib, tavoze-la, chimildiqdan endi chiqqan kelinlardek piyolani uch barmog'v'bi ustiga qo'ndirib, uzatib turibdi. Bunga sari pochcha:

- Hoy, oyim, hoy kelinposhsha, to'ldirib-to'ldirib, quyavering, endi o'zimiznikisiz, - deb qo'yadilar.

- Bunaqa qilsangiz, bugundan choy quydirmaymiz. Ana, Minavarning o'zi quyaveradi. Oshgayam qarang, - deb qistaydilar xolam.

Tangritog'v'v'lik kennoyim:

- Xo'p, opog'v'boyov, oluppan-oluppan, - deydi-yu, yana bo'shagan piyolalarga alahsib, bularni chalgv'v'bitadi.

Men esam, tergash navbati o'zimga kepqolmasidan hayiqib, ora-chira laganga qo'l uzatib turibman. Ammo-lekin mana bunday tancha atrofida jam bo'lib o'tirishimiz, ayniqsa, oy desa oy, kun desa kundek go'zal kennoyimning choy quyib berib, bedarak ketgan akamdan bir yorug'v'v' mujda bo'lib qarshimizda o'tirishi menga shunaqa yoqyapti ediki... Men undan juda ko'p narsalarni so'ragim, bilgim, akamning daragini eshitgim kelar-u, jur'at ham, mavrid ham topa olmasdim. Qachon bir mavridi keladi ekan, buni ham bilolmasdim.

Nihoyat, oshga fotiha o'qilib, lagan olindi. Kim qozon yuvгани, kim idish-tovoqlarni bir yoqli qilgani chiqdi. Muhabbat kennoyim o'z uylaridan xabar olgani, Sanobar opa pochchaga joy solgani turdilar. Tancha atrofida xolamu oyimu pochcha qoldilar. Oshdan keyingi choy xush yoqib, samovarning ora-chira "tirilib qolib" jig'v'v'billashiga quloq berib-bermay u yoq-bu yoqlardan gaplashib o'tirisharkan, kutilmaganda pochcha jonlanib:

- Hoy, Salomxon, aytmoqchi, qutlug'v'v' bo'lsin! Bu jiyan katta yigit bo'lib, dovon oshganmish, inistularga kirganmish! Kechagida Gulchehra aytasa, "Salom opoqini o'g'v'v'billari biza bilan o'qivotti", desa bir quvonibman-bir quvonibman. Zo'r ish bo'pti-ku, - deb qoldilar.

- O'zi kirib keldi, pochcha, birov orqasidan boribam yurgani yo'q, - dedilar oyim ich-ichlaridan faxr-lanib, - ko'zuvuz tirigida o'qib qolsin.

- Ko'p yaxshi bo'pti-da, - dedilar u kishi. - Besh yil nima - ko'z ochib yumguncha o'tadi-ketadi. Ana, Asatullaniki ham yarimlab qoldi.

- Ilo-oy, yolgv'v'v'izlarni o'zi qo'llab, oying rohatini ko'ri-ib yursin, - deb xolam kuraklarimni silab qo'ydilar. - Ozingina qiyinchilikni o'zingga olsang...- bitirib olasan. Balki... daladan qatnashga qiynalayotgandirsan?

- Yetib kelyapman, - dedim men iymonibgina. - Oyim bomdodga turganlarida uyg'v'v'v'otib qo'yadilar.

- Oldi sutchilar bilan ketadi, - dedilar oyim.

- Juda erta ekan-e, erta. Ustiga-ustak har kuni qatnashni ayt, - dedilar pochcha men uchun qaygv'v'v'urib. Keyin oyimga o'girilib so'radilar: - Hoy, Salomxon, sho'tta qolavursa-chi? Ana, qancha uy hangillab yotibdi. Yotib o'qiyversin!

Oyim tancha ko'rpaning qavig'v'v'v'ini tekislab - xayollanib qoldilar. Men esam, bir chekkasi qanday yaxshi bo'lardi, deb uchib-qo'nib turibman-u, bir chekkasi oyimlarga achinyapman: unda yolgv'v'v'iz qoladilarmi, Asol xolamlarga o'xshab? Yo'q, qiynalsamam...

Oyim boshlarini ko'tardilar. Yuzlari yorishib bir u kishiga, bir xolamga minnatdor qaradilar:

- Mayli, pochcha, qoldirsam-qoldiray. Faqat siz ham yangi kelinposhshani menga qo'shvorasiz. Men ham yolgv'v'v'iz qolmay-da, axir.

Hammalari yalt etib, bir-birlariga qarashdi.

- Ho-ov, balli. Balli, Salomxon. Xo'-o'p, savobga qolardingiz-da, - dedilar pochcha oyimning topqirliklariga besh ketib, ham rapidaday kaftlarini tizzalariga ura-ura. U kishi bu gapni aytmay o'tirgan ekanlar-u, oyim, oyijonim buni qaydan seza qoptilar?! Uyammas, buyammas, men bu yerda qolib, o'rnimga yangi kennoyim ketayotganidan hayratda edim: qa- rang-a, Margv̄bu kennoyimga buyurmagan uylar... unga buyurmoqda edi. Nima bu - yo taqdir deganlari shumikan?..

Navbat Yodgurmurodga Yetibdimi?

Biz hikmatiga yetolmaydigan voqea-hodisalar qancha-ya, tavba.

Quroqlar ham uzib ketolmaydigan ip qidirib, ish orasida do'konga chiqib qaytayotsam, ko'kdan tanish sadolar kelyapti. To'xtab qolayozibman. Quloq tutib, zingil solsam, shahar ustilab rosa horib-tolgan, qo'narga bir makon topolmagan turnalar zo'rgv̄ba-zo'rgv̄ba qanot qoqib, bir ipga tizilishib kelishmoqda. Ahyon-ahyonda "etib qoldik-etib qoldik" degandek bir-birlariga dalda berib qo'yishadi, boyaqishlar.

Beixtiyor kechagi voqea yodimga tushib ketibdi.

Tomda quroq uchirayotgan edik. Ipini oxirigacha bo'shatib, so'ri yogv̄bochiga bogv̄blab tashlaganmiz: o'zini osmon yutib, kaftdek bo'lib qolgan-u, darillashi baralla eshilib turibdi. Bu yoqda shom tushib, ivir-jiviri daraxtlarning teppasigacha o'rlab chiqib borgan, lekin qani Yodgortoyni tomndan tushirolsam.

- Shoshumang, birpas turayluk. Yulduzlar yonsun, ko'rayluk, - deydi nuqul.

Men uning ko'ngliga qarab:

- Mayli, yonsa-yonsin, - dedim.

Nihoyat, ko'kning qora barqut duxobasida birin-sirin injular paydo bo'lib, men yana qistadim:

- Bo'ldi, tushdik. Oyim urishib beradilar: qorongv̄buda tomnda yurilmaydi. Bu yogv̄bga jinlarning kuni tugv̄badi.

O'zini esa ko'tarib ola qoldimu narvondan bitta-bitta tusha boshladim. U jindanmi, nimadan cho'chib, bo'ynimdan mahkam quchib olgan, miq etmasdi. Lekin yerga qo'yishim bilan savol xaltasi ochildi-ketdi: atrofimda gir aylanib, hali u, hali bu bilagimga osiladi, yengimdan tortqilaydi:

- O'sha jinlar quroqqacha yeta oladularmu, amaqu?!

- Yeta oladilar,- dedim, nima deyarimni bilmay.

- Undan naru-chi, o'ta oladularmu?

- Yo'q, yulduzlardan qo'rqadilar.

- Quroqimuz-chi?

- Turaveradi. Biz bogv̄blab qo'ydik-ku, axir.

Ammo u tinchiy olmasdi:

- Amaqu, amaqu... uzub ketsa-chu?

- Uzsa, yangisini yasab beraman, - dedim.

- Yangusi bunaqa chiqmaydu-da.

- Unda... tushirib ola qolayluk, - dedim ko'ngliga qarab.

- Yo'q-yo'q, uchavursin-uchavursin, - deb o'ynoqladi u.

- Bo'lmasa, kirdik.

O'zi orqamdan ergashib kelyapti-yu, savolini qo'y-maydi:

- Amaqu-amaqu, kechasi anuvlar kelsa-chu.

- Yana nimalar? - deb qayrilib to'xtadim.

- Anuv "quruv-quruv"lar-chu.

- Turnalarmi?

- Ha-da.

- Kelsa, nima qipti?

- Urulub ketsa-chu?..

Men baralla kulib yuborib, yelkasiga qoqdim.

- Ho'-ho', ularni bilmaskansan!

- Nega? - deb so'niqdi u.

- Ular sezgir! Argv̄bamchisining boshiyu uchida har qo'riqchilari borki...

- Qanaqa qo'riqchu? - U azza-bazza yo'limni to'sib turib olgan edi.

- Sen ularni nima deb o'tiribsan! - dedim tushuntirishga urinib. - Biror yerga qo'nib, nafas rostlamoqchi bo'lishsa ham o'sha qo'riqchilari mijja qoqmay bir oyoqda turib chiqishadi, bilding.

- Nega bir oyoqda, amaqu?

- Bo'lmasa, uxlab qolishadi.

- Ha-a, zo'r ekan!..

Ertalab tursak quroq ipini uzib ketibdi. Hov, bedapoyaning o'rtasidan topib keldik.

Men unaqa-bunaqa quroq uzolmaydigan ip olib kelishga va'da qilganman. Hozir ichi tushib kutib o'tiribdi.

Xonamga kirib borsam:

- E, barakalla, qayoqda yurasiz? Uyizdan necha qayta so'rashdi, - deya esxonamni chiqarishdi.

Ichimdan olovim chiqib:

- Nega ekan? - dedim.

Bular so'rashmabdi, ular aytmabdi. Ichim tushib, hech yerga sigv̄bmay o'tirsam, haytovur, yana chaqirib qolishdi. Chopib borsam, ayolim...

- Adasi, o'zizmi?

- Men-men, nima gap? - dedim yuragim bo'gv̄bzimga tiqilib.

- Ishdan kelsam.. shahardan odam chiqib, Yodgorizni...

- Kim chiqib?! - deb yuboribman.

- Odam, - dedi u.

- Qanaqa odam? Qayoqqa opketadi? Oyimlar-chi?
- Qanday bermaydilar? Katta buvasi so'ratib tursa, - dedi u.
- Qanaqa buvasi? Buva nima qiladi unda?! - deb baqirib berdim.
- Men bilmasam, adasi...
- Xo'p: buvasining nomidan kelgan... qanday odam ekan? Surishtirmay berib yuboraveradimi?
- Mashinada opketgan odamlarni aytyapsizmi?
- Kimni bo'lardi?! Jilla qursa, mashinasini eslab qoptilarmi?
- Es-ki "Pobeda" mush.
- Ichidagilar-chi?
- Binoyi kiyingan, sipo yigit deydilar.
- Yolgʻ Biz o'zi ekanmi? - dedim tasavvur eta ol-may.
- Yo'q, qo'shnilarning aytishicha, mashina orqasida bir milisa ham o'tirganakanmush.
- E, barakalla sizlarga! - dedim zahrimni kimga socharimni bilmay.- Bo'пти, men o'shanaqasi o'tib boraman, - deb telefon-quloqni joyiga tashladim...
Nega o'shanaqasi dedim, o'shanaqasi deganda nega Yodgormurodlarnikini nazarda tutdim - o'zim bilmasdim. Nazarimda, ularni avrab, bolani olib ketgan kimsa, albatta, Chaman akalarnikiga kirgan, Yodgorni surishtirib bilgandek edi. Ammo o'zi kim, Kemshiktoyni o'gʻ Birlaganlarga qanday dahli bor - hech tasavvur eta olmasdim. Buvisi ham emas, buvasi emish! Ol-a, shovvozar! Rosa bularning ko'zini shamgʻ Halat qilib ketvoribdimi?! Chaman akam kelgan taqdirda ham bunday qildirmasdi-ku. Bu yerda boshqa gap bor. Boshqa birov kelgan. Qolaversa, kecha kechasi quroqning ipini uzib ketishi, men yangi, mahkamroq ip qidirib yurishim, shu paytda horib-tolgan turnalarning shahar ustilab o'tuvi - bularning hammasida bir sir bordek, hammasi bir-biriga bogʻ Bliqdek ko'rinar, miyamdan Yodgorning anuv gapi, bular quroqimizga urilib ketmaydimi, degani ketmasdi. Mana, endi ip topganimda o'zini olib ketishganmish. Tavba, Qumloqqa so'roqlab borishdan boshqa yo'l ko'rolmasdim. Boshqa qaerdan ham izlardim uni?
O'zi nimalar bo'lyapti? Kemshiktoyni yo'qolishi, Sariq moshak bir devonaga ergashib ketishi - tushunarli. Tushunsa bo'ladi. Anavi suvilondan azbaroyi bezganidan ketsa ketvorgandir. Lekin Yodgormurodning yo'qolishi... - dalaga topib borib, olib ketishlari-chi? G'aroyibdan gʻ Haroyib edi. Negadir o'zimni dogʻ Bda qolgandek sezib ketyapman. Ertaga Chaman akaga nima deyman? Onasi - kennoyimning oldiga qay yuz bi-lan boraman? Kim, qaysi nomard jur'at etibdi bu ishga?
O'sha Kalkovuz bo'yidagi tanish xonadonga borsam, hammayoq suv quygandek jimjit. Na chimirilgan "suv-ilon" ko'rinadi, na yuzini sepkil bosgan Kemshiktoy. Yakka tavaqa eshikni ochib, ichkariga kirib boribman ham, oshxona oldiga o'tib chaqirib turibman ham, qani birov ovoz bersa.
Nihoyat, uying orqasidagi hovuz tomondan uch-to'rtta eski bagʻ B ko'tarib, peshonasini qiyiq bilan tangʻ Bigan odam chiqib keldi.
U meni eshitdi, desam, kursi ustiga chiqib, bagʻ B ko'rib bogʻ Blashga unay ketdi. Noiloj, chaqirib boraverdim. Bogʻ B qorovulining rosa "tom bitgani"ga uchragan ekanman. Uning qulogʻ Bi yonidagi zirak-apparati "o'lib qolgan"mi, yoniga borganimdagina ko'ribdi.
U soch-soqoliga oq oralab, qoshlari tikrayib o'sa boshlagan ogʻ Birkarvon odam ekan, salomimga alik olib, pastga tushdi.
- Keling, jiyanni? - dedi ziragini to'gʻ Btilab. - Bittasi har vaqtdagidek yo'lga ketgan. Toklar ham qarovsiz qopti, - dedi ishkomlarga ishora etib.
- Boshqalar-chi? - dedim.
- Boshqasi - idorama-idora yuribdi! - dedi achinib, - lekin ayol - ayol-da. Ayol kishining qo'li qaerga yetardi. Nima dedingiz? "Suvilon"ni aytayapti.
Axiyri qulogʻ Biga cho'zinib dedim:
- Idorama-idora bolalarni surishtiribmi? - Azaga borgan xotin o'z dardini aytib yigʻ Blaganidek, men ham "o'z dardim"dan kelar edim.
- Kechirasiz, tushunmadim, - dedi bogʻ Bbon qo'lini qulogʻ Biga tutib.
- Bolalarni aytyapman, qay birini qidirib ketdilar?
Ogʻ Birkarvon odam yelka uchirdi:
- Bilmasam, jiyanning sannashidan asrandisi shekilli, - deb turib, qo'shib qo'ydi. - Ha, aytmoqchi, anuv shirintoy ham ko'rinmaydi. Ijarada turgan kelinning jujugʻ Bi. So'ramabman ham.
Sal yengil tortgan joyimda ichimga qayta ogʻ B bir tosh cho'kdi. "Uni bular so'ratmagan ekan-ku, so'ratsa shu yerda bo'lmasmidi?!"
- Ichkarida kim bor, buvi bormilar?
- Borlar-borlar, o'tiribdilar shularning duoi-jonini qilib. Kiravering.
Ogʻ Birkarvon bogʻ Bbon (bularga togʻ Ba bo'lsa kerak) zirak-apparatini o'chirib, kursiga chiqdi-da, ko'tarilgan tok novdalarini bogʻ Blashga tutindi. Men o'zim bilgan uy tomon yuraverdim. Yo qudratingdan, bu mo'jazgina, saranjom-sarishta uyda attor qutisimi, nima bor edi, kirmasizdan allatovur ifor hidlarga qo'shilib, bir ajib bo'y - qalampirmunchoq hidi gurkirab kelar edi. Aftidan, Oyto'ra buvi mening qoramni ko'riboq ko'ngillari bo'shab, bir yerga yetganlaru yana ko'zyoshlarini apil-tapil artishga urinib, qo'llari bilan kalampirmunchoq shodasini ushlab qo'ygandek edilar. Men shuning ustiga salom berib kirib bordim.
U kishi (kipriklari o'sha-o'sha nam, o'zlari iymangan hollaricha) meni qarshilarkanlar, yuzlariga nur inib bormoqda edi.
- Keling, aylanay. Vaalaykum assalom, mirzo yigit. Xolangiz o'rgilsin, bormisiz? - u kishi tasbehlarini tizzalaridagi och qo'ngʻ B irrang tivit adyol ustiga tashlab, qo'llarini cho'zib edilar, men engashib yelkamni tutib bordim. Va shunda do'lanarang tasbeh uchida qalampirmunchoq shodachasi borligini ko'rdim. Ha, mana, gap qaerda edi!
Buvi yelkamga qoqib, peshonamdan o'pganlari kamday, qansharimni silab qo'ydilar. Bir rohat sezdim, bir rohat sezdim.
U kishi qo'l ochib, duo qilar ekanlar, hatto nima tashvishda kelganimni-da, unutayozgan edim.
- Yaxshiyam siz, sizday xabar olguvchimiz bor ekan. Xudoyimning o'zi mehribon-da, Chamanimning o'rnigayam sizni yetkazib turibdi...
Oh, koshki o'zim kelgan bo'lsam!
Men bosh egib, yer chizib qolgan edim. Ammo sir boy berib bo'lmasdi. Shu zahoti o'zimni o'nglab:
- Haliyam qaytmadimi u o'yinqaroq? Biz huvillatib ketibmiz-da, uylaringizni? - dedim, ammo qani Yodgor haqida ayta olsam.

Tilim tugib Blik, dardim ichimda edi.

- Asalim shuncha joylarga yuguribam hech ish chiqarolmadi. Osmon uzoq, yer qattiq. Ayol kishi - ayol ekan. Mana, o'ziyam bildi, boyaqish.

Mavridi kelgan edi, so'ray qoldim:

- Milisa-chi, kelmadimi?

Hamma nima gb Bamda, men o'z dardim bilan edim!

- Keldi-keldi, bu yoqqa kirmadi-yu, lekin tepagacha chiqdi, - dedilar buvi.

- Tepada - boloxonada maqib yuribdi? Akbartoyning masalasida kelgan bo'lsa?

- Bilmasam, - dedilar u kishi ham hayron qo-lib.- Avval Asal bilan bir nimalarni gaplashdi, keyin chiqdi.

- U kishini ergashtiribmi? - dedim ichim gb Turmishlab. Men izquvarning dardi nima ekan, bilolmasdim. Yoki Asalning o'zi ogb Bzidan gullab qo'ydimikan, Chaman akam yo'gb Bida? Hammasidan shunisi meni talvasaga solib qo'ygan edi. Buvi bosh to'lgv B adilar:

- Yo'q, tushavermagach, chiqdi shekil. Shundan ke-yin, xo'p, opaxon, xo'p, bexavotir bo'lavering, daragi chiqishi ila xabar qilamiz, deb chiqib ketdi.

- Qiziq, nima izlab kelibdi?

- Bolalarning suratini so'rabdimish.

- Ikkalasinikimi?

- Asalni gapi-da... Men balki xato eshitgandirman.

Menga shuning o'zi kifoya edi. Bekorga boloxonaga chiqmagan, suratini so'ramagan. Ko'rinib turibdi, biznikiga Yodgorni izlab borganam, bu yerga surat so'rab kelganam - shular. Ammo u kim, qanday nobakor? Milisa formasini kiyib olib, hammani laqillatib yurgan izquvar?

Buvi aft-basharasini ko'rmdilarmikan?

Shuncha tashvishlar bilan ham u kishining yuzlaridan anavi gb Baroyib nur kamaymagan, bu nur yuzlarining ruhidanmi, ich-ichidanmi silqib turar edi. U kishining dillarini ogv Britib qo'ymaslikka tirishib, so'radim:

- Oynadan bo'lsa ham ko'rdingizmi o'zini?

- Kimni? O'sha milisanimi?

- Ha-da.

- O'tganda-ku, yaxshi ilg v Bamovdim, lekin qaytganda ko'rdim.

- Yuzinimi?

- Ha, ilgariyam bir kelgan shekilli, Chamanimni so'roqlab... Ancha yil burun.

- Demak, eski o'rtoqlari... Shundaymi?

Buvi bosh chayqadilar:

- Unisini bilmadim. Lekin gb B umaloq yuzli, qozoqbashara yigit edi. Hozir ham ko'z oldimda turibdi. Qizil shapkasi ham tusini o'zgartirmagandi.

- E, umi? Xudoning ho'l balosi! - deb yuboribman. O'zimning gapimdan o'zim uyaliblar ketdim.

- Yo'gb B-e, sipo ko'rindi-ku, - buvi kishini bunchalik yomonlash joiz emas, demoqchi bo'lardilar.

Men gapimni siporishladim:

- Chaman akamdan hayiqqan-da. Agar o'sha Eski Jo'vaning milisaligidan haydalib, bizning yoqqa o'tkazilgan odam bo'lsa, men uni bilaman, - dedim. - Qaytarishbdimikan yana?

- Tanisangiz, surishtirib ko'ring. O'zi ko'ngli o'ksik edi, qaerlarda qoldiykin, bolam boyaqish, sigv Bindi bo'lib?..

Men haligi gapdayoq ado bo'lgan edim. Boshim gir aylanib, ko'zim tinib-tinib kelarmidi, yo turishga intilarmidim, ishqilib tezroq keta qolsam, deb qolgandim.

Axir: huvillablar qoldik, Yodgortoyi qachon opkelasiz, deb qolsalar, nima deymen? Qaysi til bilan men - o'zim uni izlab yuribman, deya olaman? Undan ko'ra...

- Menga javob bersangiz, - deya oldim axiyri til-zabon bitib. Yana: duo qiling, degan kabi qo'limni ochdim.

- Iloho omin, ogv Bir kunlarda bizga bo'lishsiz, Sizga ham qayishadiganlar ko'p uchrasin. Bizdan qaytmasa, Ollohdan qaytsin.

Qaysi yaxshiligimni aytadilar? Hali bilmaydilar-da, kuppa-kunduzi bolani oldirib qo'yganimizni bilsalar, nima derdilar ekan?!

Tezroq ketish kerak! Kimning gapi - topshirigv Bi bilan qildi ekan? Bu yoqqa kelgani yetmaganday, biznikigacha qaerdan topib bordikan? Yana shunchalik qistalang opketgani-chi? Nimaga shoshgan, oshiqqan?

Turdim. Mingta Qo'qon manziratlar bilan xo'shlashib, chiqqa boshladim. (Bu manziratlardan ichim sidirilib boryapti).

- Kep turing-a, yo'q bo'lib ketmang-a? Chaman akangiz ham tayinlagan-a?

- Xo'p-xo'p. Esimda. Kemay qayoqqa boraman?!

Anavi tok tarayotgan "zirakli" togv Ba bilan ham xayr-lashib jilayapman-u, ichkarida bir nimasini unutgan odamdek, galdirardim. Ko'zim hadeb anavi boloxonali uy derzasiga ketib-ketib qolyapti. Nazarimda, o'sha deraza tavaqalari birdan lang ochilib, o'sha toy bo-la - Yodgormurod:

- Amaqujon! - deb chaqirib qoladigandek, qayrilib qaraganim-qaragan. Ammo qani, chaqirsa! Chaqirmasdi! Endi u uyga kirishga, uch yogv Bidan uch xil odam ko'rinadigan u suvratni ko'rishga yo'l bo'lsin! Nazarimda, o'sha azizlarim "Nima bo'ldi? Bizni Yodgormurodimizni, shirintoyimizni nima qilib qo'yding? Nimaga asray olmading?", deb turishgandek, ta'na etishayotgandek.

Men esam, qo'limda turmadan tortib, eng oliy idoralargacha kirib borishga qodir hujjat turib, qaerga borishni, kimga uchrashni bilmasdim: Bizni kim chuv tushirib ketdi ekan? O'sha binoyi, sipo yigitning o'zi kim? Uni kim boshlab boribdi? O'sha qozoq basharami yo bu unimi? Ajratib ol-chi? Men Kalkovuz bo'yida xuddi issiqlab ketgan odamdek yuzimni pishib-pishib chaygancha, o'tirib qolgan edim. Nahot o'sha sulloh uni ergashtirib borib, bolani olib ketgan bo'lsa? Men uni koshki bilmasam...

Xolamlarnikida turganimda necha martalab surishtirib borgan. Meniyam, kennoyimniyam...

Bir kuni o'qishdan qaytsam, darvoza oldida qoqqan qoziqdek turibdi. Meni ko'rib:

- Iya, janoblarining o'zlari-ku! - dedi irsha-yib, - haliyam sho'ttamisan? Jarimaning kattasini solmagunimcha turavurasan shekilli.

Uyda kim bor? - dedi mishillab.

- Bilmasam, ko'rib turibsiz, endi kelyapman, - dedim darvozani ochishga shoshilmay. Yotganidayam ki-yimini yechmay yotadimi, formasini yogv B bosib, yoqayu tirsaklari, tizzalari yaltillab ketgan edi. Keyin undan achimsiq maxorka hidi anqib yotardi.

- Pochcha qaerdalar? - dedi ichkariga ishora etib.
- Tahorat olyapgandirlar-da, - dedim sir bermay.
- Xola-chi? - dedi surishtirishini qo'ymay.
- Bilmasam, - deb yelka qisdim.
- Mehmon-chi? - dedi u dabdurustdan.
- Qanaqa mehmon? - dedim angrayib. - O'zimmimi?
- Sen - otni qashqasini bilmaskanmanmi? Anuv kelinni aytayapman. Chegaradan o'tib kelgan-chi! Kimni gel qilyapsan? - deb o'dagb Bayladi.

Damim ichimga tushib ketdi. Lekin bu ipirisqiga aytib bo'ladimi!

- Men... unaqa mehmonni ko'rganim yo'q, - dedim ko'zimni lo'q qilib. Xuddi u ishonadigandek yana qo'shib qo'ydim, - boshqasi bilan adashtirayotgandirsiz.

U mazax qilganday irshaydi:

- He, qishloqi!.. Kimni laqillatmoqchisan?! Avval mishigb Tingni eplab ol, - dedi-da, ipga osigb Tliq cho'pni teshikka tiqib edi, zanjir tushib, eshik ochila qoldi.
- Boshlaydilar mi yo o'zim kirib boraveraymi? - dedi meni masxaralab kulib, so'ng qorni gb Tarch-gb Turch bosganча tepa uyga qarab chaqirib boraverdi:

- Hov, kim bor? Qaravorasizlarmi bundoq!

Pochcha namozni boshlab qo'rganlar shekilli, yolgb Biz nokning ro'parasidagi oynavand ravonning eshigi ochilib, zinada Muhabbat kennoyi ko'rindilar. U kishi adl qomatli, xonzodalarga o'xshab qaddilarini gb Toz tutib, bir chiroyli yurar edilar. Shu yurishda viqor to'kib kela boshladilar. Milisa ularni ko'rib, qadami tovsillab, oshxona eshigida to'xtadi.

- Kennoyijon, uzr, - dedi yaltoqlanishga tushib, - xizmatchilik. Sizlarnikida...

- Nima, bizlarnikida?.. - dedilar Muhabbat kennoyi pinaklarini buzmay.

- Bepropiska odam... turipti ekan. Shunaqa xabar tushib...

- Kim ekan o'sha... xabargir? Qaniy?.. - deb u kishi qo'l cho'zdilar. Men ortda - o'z darsxonam eshigi kesakisiga suyanib turardim, oqibati nima bilan tugarkin deb.

Uchastkovoy hali u, hali bu cho'ntagini kavlab, talmovsiradi:

- Ie, qopti-ku. Kechiras, idoraga tashlab kelavuribman.

Muhabbat kennoyi pinak buzmadilar:

- Qolgan bo'lsa, opkeling. Men bir ko'ray, o'sha tuhmatchini!

- Endi, kennoyijon, - dedi milisa, - opkelganimdayam berolmayman sizga. Qonunda yo'q.

- Shunaqami? Xatni tekshirishga qonun bor, ko'rsatishga yo'qmi? Kimni laqillatayapsiz? Qani, bir tuyogb Tingizni shiqillatvoring-chi?! - deb u kishi qo'llarining orti bilan tovuq qo'rigandek haydashga tushgan edilar, u qizarib-bo'gb Triqib ketdi.

- Men bilan o'chakishmang, kennoyi. Oxiri yaxshi chiqmaydi, - dedi po'pisaga ko'chib. - Bilaman, sizlar xorijdan o'tib kelgan odamni... yashirib o'tiribsizlar. Birontanglar qamalib ketsanglar...

- Voy-voy-voy, qo'rqitib yubording-ku, juda. Avval top-da, keyin gapir!- dedilar Muhabbat kennoyi.

- Qo'ymayapsiz-ku, axir, - dedi u.

- Bor, ana, topib olaqol. - Muhabbat kennoyi yo'l berib, chetlangan ham edilarki, pochcha to'rdagi uydan chiqib keldilar. Keyin novvotrang xassalarini tizzalariga olganча, derazaning pastak taxtasiga cho'kdilar. (Bir vaqtlar rasm bo'lgan shekilli, o'sha to'rdagi uying ikkala derazasiga ham o'rnatilgan archa qopqalar o'ngib ketgan edi). U kishi kaftlarini qoshlariga tutib, unga zingil tashladilar:

- Zokir, o'zingmisan, qizigb Tbar? Nima balo, betta biz turishimizni... unutilib qo'ydingmi? - dedilar nimagadir shama qilib.

- Assalomu alaykum, pochcha, o'zingiz sho'ttaykansiz-ku, - dedi u haytovur salomini unutilmay.

- Vaalaykum, vaalaykum... Ha, seni nima jin urdi, Rahmatulla akang qaerda ishlashini bilarding shekilli? - dedilar u kishi.

(Rahmatulla aka Muhabbat kennoyining erlari, allaqaysi katta idorada ishlaydilar).

- Bilaman, pochcha, bilaman, - dedi u ancha hovridan tushib. So'ng besh qadam naridan tavozelanib bora boshladi. - Lekin xizmatchilik ekan, iloj qanча?

Hujraning qiya ochiq eshigidan Minavar opam mo'ralab, ayvonda qora duxoba paxtalikda xolam ko'rindilar. Pochcha esa, milisaning kiprik qoqmay yolgb Tonlashi nasha qilib, qiqirlab kuldilar. Balki jahllari kelib, kulgi bilan yengayotgandirlar...

- Xizmatchilik, degin? Qizitaloq, bu senga xizmat topib beradiganlaram ko'payib qopti-da, a, Zokir? - deb tegishdilar. So'ng qo'lini olib, aftiga ham qaramay bosh chayqarkanlar, dabdurustdan so'radilar. - Agar topolmasang-chi, nima bo'ladi? Jazolashadimi?

Zokir qo'lini bo'shatolmagani ustiga nima deyarini bilmay gangigan edi.

- Jazo-ku... berishmas, lekin gap tegishi mumkin,- dedi.

- Shunaqadan ikki-uch marta bo'lib qolsa-chi? Bo'shatvormaydimi, qizitaloqlar?

Bu gapdan u battar dovdirlab, yelka qisdi.

Pochcha qo'lini qo'yib yuborib, xumdek boshlarini saraklatdilar:

- Chatoq, chatoq, Vazifang ogb Tir ekan, Zokir, - dedilar. Va kutilmaganda: - Ana, bor, qiraqol. Xohlagan joyingni titib chiqa qol, - dedilar.

Zokir buni kutmagan ekan, tintuvni qaysi uydan boshlashni bilmay kalovlanib qoldi. Muhabbat kennoyining zinası tomon yura turib, birdan aynidi. (Yo Muhabbat kennoyining boyagi shaxtidan cho'chidi, yo Rahmatulla akaning qaerda ishlashini xotirlab qoldi). Qayta turib, pochchaga yaltoqlandi:

- Sizdaqa tushungan odamning sadagb Tasi ketsang arziydi, pochcha. Anuv raisingiz bor-ku - Mamatoxun! Shundoq qora bo'lib turishga unamadi-ya. Shoshmay tursin. - Ayvon yonboshidagi hujra tomon yura turib, o'z ko'nglida izn so'radi. - Shu bir chekkadan boshlayveray-a? Qani, opoqi, o'ziz boshlay qolasizmi?

Xolam paxtaliklarining tugmasini yechib-qadar-kanlar, pochchaga yaqin borib, quloqlariga bir nima dedilar. Pochcha boyagi-boyagi bosh saraklatib, qi- qirlab kularkanlar, soqollarini tutamlab-silab turib:

- Qo'yaver, sanga nima, tintadigan u ekan. Manga desa, kir o'raga tushib chiqmaydimi?! - dedilar.

Zokir milisa ayvonga o'tgan joyida to'xtadi.

- Milisani mazax qilyapsiz, shekilli, pochcha? - dedi u kishining qiqirlab kulishlaridan chindanam ogb Trinib. Bilmaydiki, pochcha

bir narsadan jahllari chiqa boshlasa, o'zlarini kulib yengadilar.

- Bor deganda boravurmaysanmi, tepchilmagan do'ppilaring bilan kimni nima ishi bor?! Unga bosh-qa birav kerak. Xorijdan kelib, yashirib yotgan odam kerak. Qattan bilasan, balki u katta qo'poruvchidir. Dushmanni yashirib yotgandirbiz?! - dedilar ovozlari ko'tarib.

Pochchani hech bu alpozda ko'rmagandim: u kishi xassalarining uchini qatqaloqqa urib-urib so'zlar edilar.

- Men bir narsa dedimmi, Sanobar, ana ko'rgancha ko'rib, qidirganча qidirsin, yo'q narsani, - deb xolam hujraga boshladilar.

Zokir pochchani avzoylari nimaga ayniganini ang-lab turgan bo'lsa ham ikkilana-ikkilana xolamlarga ergashdi. Men bu mashmashaning nima bilan tugashiga hech aqlim yetmasdi. Tavba, pochcha nega bunday qilyaptilar? Aytib qo'ya qolsalar bo'ladi-ku! Sen qidirgan odam yo'q, ovora bo'lasan, jo'nab ketib bo'lgan desalar, olam guliston-ku. Atay kalaka qilyaptilarmi?..

Men oyogʻ b̄imdan sovuq o'tib borayotgan bo'lsa ham, kirib keta olmasdim. O'n kun izlaganda kennoyimni topolmasligini bilaman, lekin bu mashmasha nima bilan tugashi qiziq.

U hujradan tortib, barcha uylarga, hatto Muhabbat kennoyining ravonigacha bosh suqib chiqdi. Bostirmanini aylanib ko'rdi.

Burchakdagi ming xil eski-tuskilar saqlanadigan joyga kirib, qancha yo'q bo'lib ketdi. Keyin bilsam, bo'sh sandiqlaruni meni bo'yimdek-bo'yimdek xumlar ichigacha bosh suqib ko'ribdi. Axiyri, qo'lining changini qoqib, hovlida gardanini qashlaganча turib qoldi. U qaerdandir yelkalariga necha yillik islarni ilashtirib chiqqan, lekin o'zi sezmas edi.

- Xo'sh, ko'ngling joyiga tushdimi? Yo tom taglarigayam chiqib boqasanmi? - dedilar pochcha o'sha-o'sha deraza rahida jilmayib o'tirganча. Keyin hozir chuchkirib yuboradigan odamdek labu lunjlarini bir gʻ b̄alati bujmaytirdilar.

Kutilmaganda bu unga tegib (yo chindanam bahona topolmay turgan ekanmi), birdan cho'chonglay ketdi:

- Kuling-a, kuling! Sizga odamni ustidan kulish bo'lsa! Hali yigʻ b̄laydigan vaqtlar ham keladi! Shoshmay turing. - U zarda bilan qo'l siltab, jo'nay boshlagan edi (ko'rib turibman, xolamning yuzlari oqarib ketdi, Minavar opam "ada-ada"lab qoldilar, Muhabbat kennoyi esa, milisani insofga chaqirishga taraddudlanib, qadam bosdilar), pochcha uni xotirjam chaqirdilar:

- Menga qara, - dedilar muhim gaplari bordek. Zokir ham bunga ishonib, o'girildi. U kishi asta imladilar. - Bu yoqqa kel. Kel, kelaver.

U ham ishonib qaytib bordi.

- Qulogʻ b̄ingni ber, - dedilar o'tirgan yerlarida qo'llarini cho'zib.

U engashdi.

Hammamiz hayron bo'lib turibmiz. Nima gaplari bor ekan, deb. Pochcha uning boshini o'zlariga yaqin tortib, qulogʻ b̄iga bir nima dedilar.

- Yo'gʻ b̄-e!.. - dedi u ko'zlari ola-kula bo'lib. - Eshitganim yo'q-eshitganim yo'q. Chiningiz bilan-a?- dedi ishonolmay.

- Chin, chin. Chindan, - dedilar pochcha turqlarini qilcha o'zgartirmay.

- Bizda... bizda unaqa ma'lumot yo'q-ku, - dedi Zokir tamomi gangib.

Pochcha kuldilar:

- He, sen bu yogʻ b̄ini eshit, - deb yana qo'llarini cho'zdilar.

U engashdi. Va yana pochcha bir nima dedilar.

- Bir karvon? Sha'm? - dedi. Zokir boyagidan ham garangsib. - Nima qilarkan shuncha sha'mni?

Pochcha qulogʻ b̄ingni ber, beraver, degan kabi yana qo'llarini cho'zdilar.

U yana engashgan edi, yana bir nima deb, kulib yubordilar.

Zokir turgan yerida sachrab, boyagidek cho'chonglab ketdi:

- Ey boring-e! Ey qo'ying-e! Men sizni tuppa-tuzuk odam desam... - U cho'rt burilib, shatillab chiqib keta boshladi.

U kishi nima deya qoldilarki, Zokir milisa chayon chaqqandek bu xonadondan chiqib borarkan, yo'lakay orqasiga o'girilib:

- Hali shoshmay turing. Sha'm qanaqaligini ko'rsatib qo'yaman! Milisa bilan olishishni ko'rasiz hali!- deb javrab-sannar edi.

Pochcha esa, qani parvo qilsalar! Qaytaga xumdek boshlarini chayqab-chayqab, ko'zyoshlarini arta-arta kulardilar. O'zlarini to'xtatolmay: "Voy, Zokiri tushmagur, voy, Zokiri tushmagur, holing shu ekan-ku", deb qo'yardilar.

Qarab turib, men u kishini suyub ketdim. Qara-ya: shu sullohgayam bas keladigan odam bor ekan-a!

U ostonadan o'tdiyam, orqasidan darvoza sharaqlab yopilib, zanjiru xalqalari o'ynab ketdi. Uning vahimasidan hammamiz cho'chib tushibmiz. Ammo pochcha tirqirab chiqqan ko'zyoshlarini kaftlariga arta-arta hamon "voy qizitaloqning yugurdagi-ey", deb kular edilar.

Axiyri xolamlarga zabon bitdi:

- Hay, Sanobar, shu odatiz qolmadi-qolmadi-da. Axir ketvotuvdi-ku, itdek bo'lib?... Zarilmidi jigʻ b̄iga tegish? - dedilar vajillab va yuzlarini burib uyga qarab yurdilar.

- Nima deya qoluvdiz, opoqta? - deb kulimsiradilar Muhabbat kennoyim.

Munavvar opa esa hiringlab hujraga kirib ketdilar.

Pochcha qo'l silkiib, bosh chayqadilar:

- Keyin-keyin. Bir kun kelib, aytib beraman, kulib yurasizlar.

- Hozir aytasangiz-chi? - dedim men.

- Qizigʻ b̄i qolmaydi, jiyan. Ammo-lekin bir tushirdimmi, qizigʻ b̄arni bolasini?! - deb ta'sirlanib qo'ydilar.

Ammo xolam ostonaga yetmay to'xtadilar, ichlariga sigʻ b̄dira olmay:

- Umrbodli dushmanam orttirib olmang-da, Sanobar. Koshki ichiga yutib ketsa. Xudoning ho'l balosi-ku, - dedilar jigʻ b̄illab.

Pochcha bir qo'llari bilan orqa - bellarini ushlaganча xassaga tayanib turib, sekin o'rinlaridan qo'z gʻ b̄oldilar:

- Sen ko'pam gʻ b̄am yema, Sanobar. Xudoyim O'zi gʻ b̄amxo'r. Shu ho'l balosi bilan ham sinamoqchi ekan, sinayveradi. Hammasi

O'zining qo'lida. Yorlaqash ham, qiynab-qiynab iymonni charxlash ham. Men yol gʻ b̄iz O'ziga tavakkal qilgan odamman.

Bo'lagidan qo'rqmiyman. Bilasan-ku, o'zing, - deb u kishining ketidan tanchali uyga yurdilar. Va bora turib, menga "Yur,

Maqsudxo'ja, oyogʻ b̄ingni isitvol. Omon bo'lsang, bunaqa tomoshalarining ko'pini ko'rasan", deb qo'ydilar.

Chindanam bu bir bashorat ekan. Mana, endi bu xonadonlargacha kelib yuribdi. Ular turadigan boloxonalargacha chiqib boribdi.

Bolalar esa dom-daraksiz. Bu ishda u iblisning qo'li yo'qmikan? Hukumatga xizmat qilyaptimi yo boshqa birovlariga?

Arqonning bir uchi shu yerda ekan, nega sogʻ b̄ib-sogʻ b̄ib oldigacha bormay?

Men ichimda bir jahd uyogʻ b̄onib, o'nimdan turdim. Yerning tagidan bo'lsa ham topishim kerak. Yodgormurod haqqi, kennoyim haqqi nima gapligini bilishim kerak!

This is not registered version of TotalDocConverter

Shu yilning barcha kitoblariga qaytib yuribman, kechamidan tinchi ishlay ketdi: uyga bormay turib, oyimlardan anigibini bilmay turib, men kimni izlab yuribman? Axir, sipo yigit bunimas, boshqasini boshlab borgan bo'lishi ham mumkin-ku. Unda "mashinaning orqasida o'tirgan formali odam" kim? Avval o'shani aniqlash lozimmasmi?.. Men jahd bilan uyimizga qayta qoldim. Axir uning izi qaerda yo'qolibdiki, men qaytmasam?.. (Alhamdulillah alo tavfiqih. Kitobning avvali ana shu joyda e'timomiga yetdi).

AvvalgiI- qismB Keyingi